

MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIKASI FANIDAN



O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

O'ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI

O'zbekiston uzluksiz ta'limi davlat standartlari tizimi

OLIY TA'LIM

5111100 –musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan

TALABLAR

Andijon

5111100-musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

BAKALAVR

- -o`zbek musiqasi tarixi, uning xalqlar musiqasi va madaniyatning ajralmas qismi ekanligi;
- chet el musiqasi tarixi manbalari;
- musiqa nazariyasining ahamiyati;
- garmoniyaning musiqa nazariyasidagi o`rni;
- musiqa asarlarining xususiyatlari;
- solfedjioning nazariy va amaliy ahamiyati;
- xalq qo`shiqchiligi va uning tarixiy taraqqiyoti;
- xor, xorshunoslik va dirijyorlikning musiqa bo`yicha bilimlarni shakllantirishdagi o`rni;
- vokal va cholg`u ijrochiligi cholg`u ansambli ilmining musiqa madniyatini o`rganishdagi ahamiyati to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi;
- gadimgi, o`rta va yangi asrlarda o`zbek musiqashunosliging taraqqiyot tarixi;
- musiqa folklori, ananaviy va mumtoz musiqanish rivojlanish tendentsiyalari;
- maqom san'atining o`ziga xos xususiyatlari;
- taniqli bastakorlar ijodi;
- chet el musiqasi madaniyatining taraqqiyot tarixi. janrlari,
- rus musiqasining rivojlanish tarixi;
- musiqa nazariyasining asosiy tushunchalari;
- musiqa asarlarining garmonik taxlili, taxlil printsiplari qo`llanadigan asosiy tushunchalari;
- musiqa asarlari turlari:
- musiqa bayoni turlari, ifoda vositalari;
- turli xildagi major va minor gammalar. intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash;
- xromatizmlil tovushlar bilan va moduliya qilingan bir ovozli, garmonik va polifonik tuzilmadagi ko`p ovozli namunalarni solfedjiolash;
- an'anaviy qo`shiqlar ijrochilik maktablari;
- xor ijrochiligining asosiy xususiyatlari;
- xorda badiiy ifoda vositalari;
- xor turlari;
- xor san'atining nazariy asoslari;
- dirijyorlik apparati;

- dirijyorlik texnikasi, sxemasi;
- xor jo`rnovozligi;
- xor repertuari;
- ovoz apparatining tuzilishi;
- vokal ijrochipigi;
- vokal uslublari;
- asosiy va qo`shimcha cholg`u asbobi, ijro vositalari va badiiyati;
- ansambl turlari;
- ansamblida badiiy ijro etishni bilishi, malaka xosil qilishi va amalda qo`llay olishi;
- musiqasining rivojlanish xususiyatlarini anglash;
- klassik bastakor va kompozitorlarning yaratgan merosini o`rganish va ijro etish;
- chet el musiqa madaniyatining ilg`or an'analaridan foydalanish;
- musiqa nazariyasiga oid tushunchalarni amalda qo`llay olish;
- musiqa asarlarini garmonik taxlil qila olish;
- bir ovozli va ko`p ovozli namunalarni solfedjiolash;
- turli janrdagi musiqa asarlarini tahlil qilish;
- o`zbek an'anaviy qo`shiqchiligini davom ettirish;
- xor jamoalarini tashkil etish;
- xopga dirijyorlik qila olish;
- ovoz va uning imkoniyatlaridan foydalanish;
- badiiy ijrochilik asosiy va xar xil forma, janr, stil yo`nalish ijrosi;
- cholg`u ansamblini tashkil etish ko`nikmlariga ega bo`lishi lozim;

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**Andijon davlat universiteti
Musiq va uni o'qitish metodikasi fanidan amaliy texnologik**

LOYIHASI

Tuzuvchi:

Q.Nurdinov

**Andijon
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**Andijon davlat universiteti
Musiq va uni o'qitish metodikasi fanidan**

MA'RUZALAR MATNI

Andijon

**O'zbekiston Respublikasi
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Zaxiriddin. Muhammad. Bobur nomli
Andijon davlat universiteti**

**«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
dots. M. To'raev _____
2012 yil «__» _____**

*Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi fanidan
Ishchi o'quv dasturi*

Bilim sohasi: 100000-Ta'lim

Ta'lim sohasi: 140000-o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Ta'lim yo'nalishi: 5111100-Musiqa ta'limi

Umumiy o'quv soati	-211-
Shu jumladan	
Ma'ruza	-58-
Amaliy	-50-
laboratoriya va	-10-
seminar mashg'ulotlari	-16-
Mustaqil ta'lim soati	-77-

Andijon 2012-2013

Fanning ishchi o'quv dasturi Andijon davlat universitetining «Pedagogika» fakulteti kengashining 2012 yil avgust «__»-son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

5111100-Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: **katta o'qituvchi: Q.Nurdinov**

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori,
Professor:

N.Qoxxorov.

Fanning ishchi o'quv dasturi «Pedagogika» fakulteti kengashining 2012 yil avgustdagi «__»-son qarori bilan tasdiqlandi.

Kengash raisi:
2012 yil «__» avgust

p.f.n. A.Teshaboev

Kelishildi:

o`quv yili uchun _____ fanidan ishchi o`quv dasturiga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risida.

_____ ta'lim yo`nalishi bo`yicha fanining ishchi o`quv dasturiga quyidagi o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilmoqda:

O`zgartirish va qo`shimchalarni kirituvchilar:

_____	_____
_____	_____
_____	_____

ishchi o`quv dasturi «Pedagogika» fakulteti kengashida muhokama etildi va ma'qullandi (2012 yil «__» _____ dagi «__»-sonli bayonnoma).

Kengash raisi:

p.f.n. A.Teshaboev

KIRISH

Mazkur fan dasturi: 5111100 - Musiqa ta'limi yunalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bulgusi musiqa madaniyati O'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimum belgilab berilgan. Dastur ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohatlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar boy ma'naviy, madaniy musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni xisobga olib to'zilgan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari.

Fanni o'qitishdan maqsad: talabalarni musiqiy dunyokarashini shakllantirish, boyitish, ularniig musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o'stirish; musiqa ifodasi tarkibiy qismlari soxasi bo'yicha bilimlar berib, musiqiy asarni uning mazmunini to'g'ri ochishga yordam berishdir.

Fanning vazifalari:

- talabalar asosiy ifoda vositalarini tushunishlari uchun ularga kerakli malaka va bilimlarni berish; talabalarning estetik diddarini to'g'ri yunaltirish; talabalarni kompozitorlik ijodining muxim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yakindan tanishtirish x.amda musiqaviy til tizimi va garmoniyaning unda egallagan u'rni xakida aniq tushunchalar berish; -musiqa asar shaklining to'zilishiii asosiy qonunlari bilan tashnishtirish, xar tipdagi shaklni taxlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji printsiplari, shaklning qismlarni funktsiyasi mavzularning bilimlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubny jixatdan uzviy ketma – ketligi

Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi faniga kirgan musiqa nazariyasi asoslari, garmoniya, musiqiy asarlar taxlili fanlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, hamda solfedjio, musiqa tarixi, cholg'u ijrochiligi va boshqa musiqa ta'limni asosiy kurslar bilan aloqadir.

Umumiy o'rta ta'lim musiqa madaniyati va QXQ o'qituvchisini amaliy faoliyatdagi o'rni.

Fan musiqa o'qituvchisini maktab akademik litsey, kasb - xunar kollejiga tayyorlashda asosiy Urnini egallaydi. Fan nazariy va amaliy faoliyatni o'z ichiga olib, musiqiy ta'lim yunalishi talabalarini musiqa madaniyati o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlaydi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan xisoblanilib, fanlari bilan ajralmas bog'liqdir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.

Fanni bilimlarini o'zlashtirish uchun ta'limning muammoli, rivojlantiruvchi o'qituv, pedagogik uyinlar, interfaol usullar ahamiyatga xususiy-pedagogik, individual yondashuv kabi zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Fanni utkazish jarayonida kuyidagi interfaol metodlar ishlatish mumkin: «muammo savollar», «asosiy terminlar», «aqliy xujum», «bumerang», «tarmoklar», «fikrlar byicha almashuvi», «birgalib izlash», «markaziy nuktasiga karatilagn savollar».

5-SEMESTR (20 MA'RUZA)

ASOSIY QISM

FANNING NAZARNY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: MUSIQA O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI (2 SOAT)

Musiqa ta'limi va tarbiyasining mazmuni, tashlik qilinishi, turli shakllari va metodlari asosiy ma'lumotlar berish. Musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajrobalarni umumlashtirish. Sinfdan tashqari musiqiy pedagogic amaliyot bo'yicha metodik adabiyotlarni mustaqik o'rganishga tayyirlash.

MAVZU: MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA MUSIQA O'QITUVCHISI **(2 SOAT)**

Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi kursi va musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talabla. Shaxsni shakllantirishda musiqa san'atining roli. Umumiy musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari. Umumiy musiqiy ta'limning tamoyillari.

MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING MAQSADLARI (2 SOAT)

Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalarini musiqa madaniyati o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING TEXNALOGIYASINI VA ASOSLARI (2 SOAT)

Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining mazmuni va maqsadi. Tinglash madaniyatida musiqani qabul qilish uslubiy shakllari.

MAVZU: TA'LIMNING TEXNOLOGIYASI VA USULLARI (2 SOAT)

Musiqiy asarlarning badiiy-pedagogik tahlili metodikasi asoslarini berish. Ilmiy tadqiqotchilik hamda bolalarni musiqa san'ati vositasida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish.

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARI 2 SOAT)

Vokal-xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. YUqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shar

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARINI O'RGANISH METODIKASI (2 SOAT)

Musiqiy ritmik faoliyati ko'nikma va shakl metodikasi, elementlar (bolalar) musiqa asboblari cholg'uchilik faoliyat, metodikasi.

Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga bo'linadi:

1. Darsda qo'shiq kuylash holati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambl
6. Talaffuz.

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI (2 SOAT)

I-sinflarda musiqa madaniyati darslarining mazmuni va metodikasi. II – sinfda musiqa o'qitish mazmuni va metodikasi. III-sinfda musiqa o'qitish mazmuni va metodikasi.

IV-sinfda musiqa o'qitish mazmuni va metodikasi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

1. O'quvchilarda musiqaga ihlos uyg'otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini ritm tuyg'usini o'stirish, musiqiy o'quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish;

2. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash;

3. O'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

O'quvchilarda go'zallikni ko'ra bilish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatini rivojlantirish.

MAVZU: I-II- SINF REPERTUARI (2 SOAT)

SHuningdek birinchi sinf o'quvchilari psixologik – fiziologik xarakterga ko'ra, ma'lum darajada xotirasi, nutqi diqqati – e'tibori, ovoz apparatlari to'liq rivojlanmagan, ovoz pardalari nozik kuchsiz bo'ladi. SHunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishda, butun dars davomida ularni kayfiyatini saqlashda, o'qituvchi ochiq samimiy, shirin muomalasi va yoqimli xatti – xarakatlari bilan erishishi lozim. Birinchi darsdan boshlab o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish yo'li bilan, ularni musiqaviy o'quvlari, qobiliyatlarini kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib olishi va yuqoridagi sifatlarga ko'ra, ularni uch differentsional guruhga bo'lish lozim.

I-chorak: Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar.

II-chorak: Musiqali o'yinlar, raqs va qo'shiqlar.

III-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz.

VI-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz

Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik – fiziologik xarakterga ko'ra, 1-sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Ularning diqqat e'tibori hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilar diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga tez-tez almashib turadi. CHunki, ular o'yin bilan narsalarga ko'proq moyildirlar. SHu nuqtai nazardan musiqa madaniyati darslarida dars faoliyatlarini tez-tez almashtirib turish ularni musiqaga qiziqtirib turish dars unumining garovi hisoblanadi.

Ikkinchi sinfda yil mavzusi:

«Musiqani nimani ifodalaydi va tasvirlaydi».

I-chorak: «Yakkanavozlik, jo'rnnavzlik, jo'rsozlik»

II-chorak: «Yakkanavozlik va yakkaxonlik cholg'u va xonandalar dasturi»

III-chorak: «Kuy nima?» Kuyda nima ifodalaydi?

IV-chorak: «Musiqani ifoda vositalari»

O'qituvchi dars rejasini ushbu mavzular asosida tuzib, ularni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish zarur.

MAVZU: III-IV-SINF REPERTUARI (2 SOAT)

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra 1-2-sinflardan ancha farq qiladi. Ularning diqqat e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalariga, musiqa haqida bilimga ega bo'ladilar.

III-sinfda yil mavzusi:

«Musiqada shakl va mazmun»

I-chorak: Musiqani ifoda vositalari

II-chorak: Xor va orkestr

III-chorak: Musiqaning tuzilishi.

IV-chorak: Oddiy musiqa shakllari. Band va naqorat.

SHuningdek, musiqa darslari yil chorak mavzulari asosida rejalashtirilib besh faoliyat asosida o'tildi.

To'rtinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo'ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nihoyatda o'ylab oqilona ish tutishi lozim.

IV-sinfda yil mavzusi:

«Xalq musiqa ijodi»

- I-chorak: O'zbek xalq musiqasining ommaviy janri.
II-chorak: Xalq ashulalari va ashula yo'lidagi kuylar.
III-chorak: Kompozitorlik uslubi haqida ma'lumot.
IV-chorak: Kompozitorlar ijodida xalq musiqasi namunalari.

5-SEMESTR (22 AMALIY) FANNING AMALIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: MUSIQA O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI (2 SOAT)

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda ahloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish.

MAVZU: MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA MUSIQA O'QITUVCHISI (2 SOAT)

Musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Musiqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ularni doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi.

MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING MAQSADLARI (2 SOAT)

Musiqa o'qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi.

MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING TEXNLOGIYASII VA ASOSLARI (2 SOAT)

Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini hususiy (optimal) metodlar egallab, musiqa darsida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida o'qitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Xususiy metod-biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

MAVZU: TA'LIMNING TEXNOLOGIYASI VA USULLARI (2 SOAT)

Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARI 2 SOAT)

Vokal-xor malakalari musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi

yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi.

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARINI O'RGANISH METODIKASI (2 SOAT)

Vokal-xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. YUqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal-xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI (2 SOAT)

YOsh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori, nafas tarbiyasining, tarkibiy qismi bo'lgan, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o'zlashtirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Boshlang'ich maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarga musiqa san'ati go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang'ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta'limning ahloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi.

MAVZU: I-II- SINF REPERTUARI (2 SOAT)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa inson xis-tuyg'ularini orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va hissiyotlarni faol ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar musiqa san'ati bilan bolalar bog'chalarida oilada, radio va televideniedan beriladigan ko'rsatuvlar orqali tanish bo'ladilar. SHuningdek birinchi sinf o'quvchilari psixologik – fiziologik xarakterga ko'ra, ma'lum darajada xotirasi, nutqi diqqati – e'tibori, ovoz apparatlari to'liq rivojlanmagan, ovoz pardalari nozik kuchsiz bo'ladi. SHunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishda, butun dars davomida ularni kayfiyatini saqlashda, o'qituvchi ochiq samimiy, shirin muomalasi va yoqimli xatti – xarakatlari bilan erishishi lozim.

Birinchi sinfda bolalar musiqasining xarakteri obrazlari orqali olgan bilimlari nisbiy bo'lib, keyingi sinflarda aniq (absolyut) tushunchalarga aylanadi. SHuningdek, birinchi sinfda o'quv yili boshida ilk bor olingan bilimlar notagacha bo'lgan davr deb ataladi.

Ikkinchi sinfda vokal-xor ishlariga e'tibor kuchayadi, o'quvchilar ovoziga va cholg'uga tayanib jo'r bo'lib, musiqali ritmik xarakatlar bajaradilar.

Bunga «Paxtaoy» F.Nazarov, T.Ilxom she'ri, «Kichkintoyimiz - gijingtoymiz» P.Mo'min she'ri, K.Kenjaev musiqasi, «YAngi yilim – yaxshi yilim» P.Mo'min she'ri, D.Zokirov musiqasi «ildiragim» SH.YOrmatov musiqasi, T.Baxromov she'ri kabi qo'shiqlar, «CHamanda gul» O'zbek xalq kuylari misol bo'la oladi.

MAVZU: III-IV-SINF REPERTUARI (2 SOAT)

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra 1-2-sinflardan ancha farq qiladi. Ularning diqqat e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalariga, musiqa haqida bilimga ega bo'ladilar. Uchinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do¹ – mi². SHunga qaramasdan, darsning har bir elementi tajribalarga asoslanib tushuntirish lozim. Uchinchi sinf dars rejasini tuzganda ayniqsa, ijodiy yondashish, uning strukturasi mantiqan bog'lab turish, asarlar tartibini sinf imkoniyatiga muvofiq belgilash,

bolalarni musiqaga qiziqish uyg'otib, badiiy emotsional kechinmalarni vujudga keltirish, ularni ovoz diapazoniga moslab reja tuzish kerak.

O'quvchilarni musiqa haqidagi bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi. Har bir darsda asar xarakteri, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda bolalarga mustaqil fikr bayon etish uchun imkoniyat bermoq lozim. Jumladan, «YOmg'irjon» asarida (D.Omonullaev musiqasi) tembr, dinamika, o'lchov, kontrast asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Kompozitor SH.YOrmatovning «ildiragim», kompozitor A.Mansurovning «Qo'zichog'im-o'yinchoq», kompozitor T.Azimovning «Durdona» asarlarida kuy va jummalarni o'zgartirmay takrorlanishi «rondo» ekanligini o'quvchilar tezda anglab oladilar.

O'quvchilarni musiqa haqidagi bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi. Har bir darsda asar xarakteri, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda bolalarga mustaqil fikr bayon etish uchun imkoniyat bermoq lozim. Jumladan, «YOmg'irjon» asarida (D.Omonullaev musiqasi) tembr, dinamika, o'lchov, kontrast asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Kompozitor SH.YOrmatovning «ildiragim», kompozitor A.Mansurovning «Qo'zichog'im-o'yinchoq», kompozitor T.Azimovning «Durdona» asarlarida kuy va jummalarni o'zgartirmay takrorlanishi «rondo» ekanligini o'quvchilar tezda anglab oladilar.

To'rtinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo'ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

4-sinfda ham o'qituvchilarni differentsial guruhlariga bo'lib o'tkazish lozim bo'ladi. Chunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtoy, kulminatsion rivojlangan davri hisoblanadi. SHuning uchun, darsda ko'proq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, kompozitor N.Norxo'jaev va shoir P.Mo'minni «YAxshi bola», «Oq paxta terdik», kompozitor SH.YOrmatov va shoir S.Barnoevni «Sog'lom avlod qo'shig'i», kompozitor M.Nasimov va shoir YA.Qurbonovni «Bizdan sizga kim kerak?» qo'shig'ini keltirishimiz mumkin.

TAKRORLASH (2 SOAT)

Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik printsiplari, musiqa madaniyati darslarida katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

SEMINAR (4 SOAT)

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF DASTURI (2 SOAT)

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

4. O'quvchilarda musiqaga ihlos uyg'otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini ritm tuyg'usini o'stirish, musiqiy o'quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish;

5. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash;

6. O'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

O'quvchilarda go'zallikni ko'ra bilish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatini rivojlantirish.

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF DASTURI (2 SOAT)

«Boshlang'ich ta'lim uchun Davlat Ta'lim standartlari» asosida barcha fanlar qatori musiqa fanidan ham dastur ishlab chiqildi. Yangi dastur mazmunida milliy musiqamiz merosidan to'laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo'shiqlari, lapar, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o'z aksini topgan. Dasturning bosh mavzusi «Musiq va hayotdir» yil, chorak, dars mavzulari, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi. Bu boshlang'ich sinf musiqasi o'qituvchisidan ish mazmunini yangilashni talab etadi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim, chunki o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirishda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda va ularni ma'naviyatli, ma'rifatli qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi yetakchi bo'lib hisoblanadi.

LABARATORIYA (4 SOAT)

MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARSİ TAXLILI (2 SOAT)

Musiqā darslarining mazmunida faqatgina oʻzlashtirish emas, balki oʻquvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuygʻularini shakllantirish nazarda tutiladi. Oʻqituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi:

- musiqā tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va sanʼat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ifodalash;

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda oʻqituvchi jiddiy tayyorgarlik koʻrishi, oʻz ustida tinmay ishlashi, yaʼni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yoʻllarini takomillashtirib borishi zarur.

MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARSİ TAXLILI (2 SOAT)

SHuningdek musiqā darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Tasviriy sanʼat, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqā darsini hayot bilan bogʻlashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqā darsi oʻzining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Boshlangʻich sinflarda musiqā darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Xor boʻlib kuylash.
 1. Musiqā savodi.
 2. Musiqā tinlash.
 3. Musiqāga mos xarakatlarni bajarish.
 4. Bolalar cholgʻu asboblarida joʻr boʻlishdan iborat.

MAʼRUZA MASHGʻULOTLARNI TASHKIL ETISH BOʻYICHA KOʻRSATMA VA TAVSIYALAR. 5-SEMESTR

№	Fanning boʻlimi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqā oʻqitishning nazariy asoslari	2
2	Musiqā oʻqitish nazariyasi va musiqā oʻqituvchisi	2
3	Umumiy musiqiy taʼlimning maqsadlari	2
4	Umumiy musiqiy taʼlimning maqsadlari	2
5	Taʼlimning texnologiya va asoslari	2
6	Vokal va xor ishlari	2
7	Vokal va xor ishlarini oʻrganish metodikasi	2
8	Boshlangʻich sinflarda musiqā madaniyati darslari	2
9	I-II- sinf repertuari	2
10	III-IV-sinf repertuari	2
	Jami:	20

AMALIY MASHGʻULOTLARNI TASHKIL ETISH BOʻYICHA KOʻRSATMA VA TAVSIYALAR. 5-SEMESTR

№	Fanning boʻlimi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqā oʻqitishning nazariy asoslari	2
2	Musiqā oʻqitish nazariyasi va musiqā oʻqituvchisi	2
3	Umumiy musiqiy taʼlimning maqsadlari	2
4	Umumiy musiqiy taʼlimning texnologiyasi va asoslari	2
5	Taʼlimning texnologiyasi va usullari	2
6	Vokal va xor ishlari	2

7	Vokal va xor ishlarini o'rganish metodikasi	2
8	Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari	2
9	I-II- sinf repertuari	2
10	III-IV-sinf repertuari	2
11	Takrorlash	2
	Jami:	22

**SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
5-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Boshlang'ich sinf dasturi	2
2	Boshlang'ich sinf dasturi	2
	Jami:	4

**LABARATORIYA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
5-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqa madaniyati darsi taxlili	2
2	Musiqa madaniyati darsi taxlili	2
	Jami:	4

**MUSIQA 'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANIDAN O'TILADIGAN MAVZULAR VA ULAR BO'YICHA MASHG'ULOT TURLARIGA AJRATILGAN SOATLARNING TAQSIMOTI
5-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	soatlar				
		Ja mi	ma'ruza	Ama liy	Seminar	Labarato riy
1	Musiqa o'qitishning nazariy asoslari	8	2	2	2	2
2	Musiqa o'qitish nazariyasi va musiqa o'qituvchisi	8	2	2	2	2
3	Umumiy musiqiy ta'limning maqsadlari	4	2	2		
4	Umumiy musiqiy ta'limning texnologiyasi va asoslari	4	2	2		
5	Ta'limning texnologiyasi va usullari	4	2	2		
6	Vokal va xor ishlari	4	2	2		
7	Vokal va xor ishlarini o'rganish metodikasi	4	2	2		
8	Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari	4	2	2		
9	I-II- sinf repertuari	4	2	2		
10	III-IV-sinf repertuari	4	2	2		
11	Takrorlash	2		2		
	Jami	50	20	22	4	4

**TALABALAR MUSTAKIL ISHIINING MAZMUNI VA XAJMI
5-SEMESTR**

№	Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga mavzulari	Mustakil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddati	Xajmi soatda
1	Badiiy asarlarni estetik-goyaviy jixatdan taxlil qilish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	10
2	Klassik asarlar matni ustida ishlash	Musiqni tinglab uni izoxloy olish	Semestr davomida	8
3	Talabalarni ijodiy jarayonga yunaltirish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	8
4	Fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish	Kuyni notaga qarab kuzata bilish va taxlil qilish	Semestr davomida	9
	Jami:			35

5-SEMESTR					
№	Joriynazorati	№	Oraliq nazorati	№	Yakuniy nazorat
1	Musiq o'qitishning qanday metodlari mavjud?	1	Uchinchi sinfda yil chorak mavzulari va ularning musiq darsidagi ahamiyati.	1	Musiq darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?
2	Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor?	2	To'rtinchi sinfda o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari.	2	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
3	Musiq o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari?	3	To'rtinchi sinfda musiq o'qitishning mazmuni va maqsadi.	3	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?
4	«Metodika» - so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat?	4	To'rtinchi sinfda musiq darsining chorak, yil mavzusi va ularni musiq darsidagi ahamiyati.	4	Maktablarda musiq fanini o'rganishdan maqsad nimada?
5	Musiq o'qitishning qanday metodlari mavjud?	5	To'rtinchi sinfda musiq darslarini o'ziga xosligi.	5	Musiq darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
6	Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor?	6	Uchinchi sinfda yil chorak mavzulari va ularning musiq darsidagi ahamiyati.	6	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiq darsidagi mohiyati nimalan iborat?
7	Musiq o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari?	7	To'rtinchi sinfda o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari.	7	Musiq madaniyati darslarida qanday musiq o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?
8	«Metodika» - so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat?	8	To'rtinchi sinfda musiq o'qitishning mazmuni va maqsadi.	8	Musiq darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?
9	Madaniy hayotimizda musiq qanday ahamiyatga ega?	9	To'rtinchi sinfda musiq darsining chorak, yil mavzusi va ularni musiq darsidagi ahamiyati.	9	Boshlang'ich sinflarda musiq o'qitishning asosiy maqsad va mavzuni nimadan iborat?
10	Barkamol insonni tarbiyalashda musiqaning maqsad va vazifalari	10	SHaxsni tarbiyalashda musiq qanday ahamiyatga	10	Boshlang'ich sinflarda musiq o'qitish

	nimadan iborat?		ega?		metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?
11	SHaxsni tarbiyalashda musiqa qanday ahamiyatga ega?	11	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?	11	Musiqa darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?
12	Maktab hayotida musiqa o'qituvchisini tutgan o'rni?	12	YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa san'ati qanday ahamiyatga ega?	12	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
13	Musiqa darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?	13	Birinchi sinf o'quvchilari qanday psixologik - fiziologik xarakterga ega bo'ladilar?	13	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?
14	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?	14	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?	14	Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?
15	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?	15	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?	15	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
16	Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?	16	Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?	16	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?
17	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?	17	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?	17	Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?
18	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?	18	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?	18	Musiqa darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?
19	Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?	19	Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?	19	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsad va mavzuni nimadan iborat?
20	Musiqa darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?	20	Musiqa darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?	20	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?
21	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsad va mavzuni nimadan iborat?	21	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?	21	Musiqa darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?
22	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?	22	Musiqa darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?	22	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
23	YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa san'ati qanday ahamiyatga ega?	23	Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?	23	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?

24	Birinchi sinf o'quvchilari qanday psixologik - fiziologik xarakterga ega bo'ladilar?	24	Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?	24	Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?
25	Birinchi sinfda musiqa o'qitishining maqsad va vazifalari?	25	Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?	25	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
26	Birinchi sinfda qo'shiq o'rgatish metodlari?	26	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?	26	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?
27	Birinchi sinfda musiqa tinglashning o'ziga xos xususiyatlari?	27	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?	27	Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?
28	Birinchi sinfda yil chorak mavzularini aytib bering?	28	Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?	28	Musiqa darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?
29	Ikkinchi sinf o'quvchilari qanday psixologik va fiziologik xarakterga ega bo'ladilar?	29	Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?	29	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsad va mavzuni nimadan iborat?
30	Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?	30	Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?	30	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?

BAHOLASH TURLARI BO'YICHA BALLAR TAQSIMOTI

	soatlar					Joriy baholash					Oraliq baholash					YA.b.	
	ma'ruza	amaliy	seminar	Laboratoriya	Must. ish	amaliy		Must. ish			Koll-um		Must. ish			ball	turi
						soni	ball	soni	ball	Jami ball	soni	ball	soni	ball	Jami ball		
5 sem	20	22	4	4	35	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma

6-SEMESTR (28 –SOAT MA'RUZA) FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURINING MAZMUNINI MAQSADI VA ASOSIY BOSQILARI (4 soat)

O'zbekiston ta'lim tarbiya sohasi va isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta'lim ustivorligidir». Bu omil davlatimizni ijtimoiy siyosatini belgilab beradigan muhim jarayon bo'lganligi uchun 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz, yosh avlodni aql-idrokini o'stirish, barkamol yetuk inson etib yetishtirish uchun eng avvalo, o'zi shu talablarga javob berishi va shunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat o'qituvchilik kasbida bilimdonlik, zukkolik, o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi.

SHuning uchun ham, barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi sharaflil va mas'uliyatli hisoblanadi.

MAVZU: BESHINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI **(4 soat)**

Beshinchi sinfdada o'rta ta'lim etapi boshlanadi. 5-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik jihatdan ancha o'zgargan bo'ladilar. Vokal-xor ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. Sof unisonda kuylashga, ikki ovozli mashqlarni kuylashga, ansamblda kuylashga ega bo'ladi. Qo'shiq haqida, tinglangan asar haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ham ega bo'ladilar. Ovoz diapazoni (Do₁ – Fa₂) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi, ular hayotiy tajribaga boy bo'ladilar. Fanlarga qiziquvchan va o'zlarining sevgan mashg'ulotlariga astoydil mehr bilan qaraydilar. Bolalarda diqqat-e'tibor ancha turg'unlashgan bo'ladi.

MAVZU: OLTINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISHNI MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI **(4 soat)**

Oltinchi sinfdada musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilandi. Oltinchi sinfdada amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni – o'quvchilarning ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan musiqaviy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, tempi, mualliflari haqida fikr yuritishga o'rgatish.

4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Oltinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (Do₁-Fa₂) bo'ladi. Oltinchi sinfdada o'quvchilarni o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-psixologik jihatdan o'quvchilarni ovozi o'zgarishi, bo'yni o'sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi qobiliyatlari rivojlana boshlaydi.

MAVZU: YETTINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA UNING **MAZMUNI (4 soat)**

Yettinchi sinflarda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumlashadi. Ayniqsa, musiqani tinglab, badiiy jihatdan mustaqil tahlil qilish, qo'shiq o'rgatish, musiqa savodi kabi dars faoliyatlarini tatbiq etish ishi nihoyasiga yetadi.

7-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra diqqat-e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir albom, referatlar, sinf burchaklari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin.

MAVZU: CINFDA VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI **(4 soat)**

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarni iloji boricha ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, Ona-vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdir.

MAVZU: PEDAGOGIK KOLLEJLARDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING MAZMUNI **VA METODIKASI (4soat)**

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, barcha sohalardagi kabi bo'lajak pedagoglarning zimmasiga ham o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Pedagogik kollejning bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqa o'qitish metodikasi fanidan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi, axloqiy pok, xalol va sofdil, yuksak fazilatli, o'z kasbining jonkuyari, talabalarga va o'smir yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, qadriyatldari va an'analarini mukammal biladigan, hamda o'z kasbiga talabalarni qiziqтира oladigan shaxs bo'lmog'i lozim.

MAVZU: 1920-90 YILLARDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI (4 soat)

O'zbek halqi ko'p asarlik taraqqiyot tarixiga ega bo'lgan an'analar sohibidir. O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim zamonga borib taqaladi. Qadim madaniyaning ko'pdan-ko'p obidalari buyuk o'zbek mutaffakiri, shoirlari, yozuvchilari, ulug' daholalari Al-Farobiy, Abu-Ali ibn Sino, Navoiy, Jomiy, Nizomiylar lirikasida, keyinchalik esa o'zbek shoirlari va ma'rifatparvarlari Muqimiy, Furqat, Hamza asarlarida musiqa tarbiyasi va ta'lim berish borasida talaygina qiziqarli fikrlar bildirilgan.

6-SEMESTR (22- SOAT AMALIY) FANNING AMALIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURINING MAZMUNINI MAQSADI VA ASOSIY BOSQILARI (2 soat)

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy maqsadi, bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'ni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.

MAVZU: BESHINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI (2 soat)

O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berish va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirishi kerak:

1. Sof unisonga erishishi
2. Musiqiy jumlaning boshidan oxirigacha to'la idrok etishi.
3. Notaga qarab kuylash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Musiqa savodidan asar tahlili, notalarni joylanishi o'lchovlar, ansambl, xor, orkestr haqidagi bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvoffiqdir. Musiqa darslarida iloji boricha, o'qituvchi ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalardan ko'proq foydalanishi kerak. O'quvchilar musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog'liq ekanligini ongli ravishda anglashi kerak.

MAVZU: OLTINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISHNI MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI (2 soat)

Oltinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (Do₁-Fa₂) bo'ladi. Oltinchi sinfdada o'quvchilarni o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-psixologik jihatdan o'quvchilarni ovozini o'zgarishi, bo'yni o'sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, yetarli darajada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. YA'ni, dars davomida o'quvchilarni diqqat-e'tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribona munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlar o'tkazish talab etiladi. SHuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini kuzatib, uni o'rganishi lozim.

MAVZU: YETTINCHI SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA UNING MAZMUNI. (4 soat)

Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni birinchi ovozlarda (Do_1-Mi_2)-, 2-ovozlarda esa – ($Si_{kich}-Re_2$) gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar kahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lib, o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinlangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir.

MAVZU: SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI (4 soat)

To'garak faoliyati faollashtiradigan narsa – bu maktab sahnasidir. O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqsalar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, tuman, shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashdilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his-tuyg'ularni Ona-Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab turli to'garaklar tuzish mumkin:

1. Xor
2. VIA
3. Ashula va raqs ansambllari
4. Vokal ansambllari
5. CHolg'uchilar ansambli (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar)
6. Raqs ansambli
7. Orkestr (duxovoy, xalq cholg'u asboblari orkestri)
8. Yakkaxon qo'shiqchilar.
9. Folklor dastasi.

MAVZU: PEDAGOGIK KOLLEJLARDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI (4 soat)

Bugungi talaba – bo'lajak pedagog, o'tmishi bor o'zbek xalqining musiqa san'atini noyob namunalari o'zlashtirgan bo'lib o'quvchi-yoshlarga ulashmog'i davr talabidir. SHu sababli bo'lajak musiqa fani o'qituvchisi oldiga qo'yidagi talablar qo'yiladi.

1. O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan talaba-yoshlarga musiqa san'ati sirlarini o'rgatish borasida doimo izlanish.
2. Talaba-yoshlarga pedagogika, psixologiya, musiqa o'qitish metodikasi fanlarini mukammal o'rgatish.
3. O'quvchi-yoshlarni musiqa san'ati bo'yicha ijodkorlikka yetaklash. Iqtidorli talabalarini to'garaklarga jalb qilish.
4. Zamon talablariga mos dars va mashg'ulotlarni noan'anaviy dars rejalari asosida o'tkazish.
5. Jahon andozalariga xos yangi pedagogik texnologiyalarni, darslarda qo'llash.

MAVZU: 1920-90 YILLARDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI (4 soat)

O'zbek xalqining musiqa madaniyati xalq va professional ijod mahsuli bo'lgan musiqa asarlari, oozdan-og'g'iizga o'tish asosida asirlar davomida o'plagan an'ana zahirida rivojlangan. U bizgacha xofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali yetib kelgan. Unga xalq ijodining eng yaxshi namunalari hamda professional ijrochilar tomonidan chalingan musiqa asarlari kirgan. So'nggi yillarda, olib borilgan tadqiqotlarning natijalari XVIII asrda o'ziga xos nota yozuvi bo'lgan bo'lsa ham, faqat, musiqa folklari emas, balki o'zbek xalqining professional musiqasi ham 1920 yillariga qadar asosan og'izdan-og'izga o'tish yo'li bilan tarqalgan.

SEMINAR (4 SOAT)

MAVZU: YUQORI SINIF DASTURI (4 SOAT)

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

7. O'quvchilarda musiqaga ihlos uyg'otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini ritm tuyg'usini o'stirish, musiqiy o'quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish;

8. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash;

9. O'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

O'quvchilarda go'zallikni ko'ra bilish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatini rivojlantirish.

MAVZU: PEDAGOGIK KOLLEJLARDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI (4 SOAT)

«Boshlang'ich ta'lim uchun Davlat Ta'lim standartlari» asosida barcha fanlar qatori musiqa fanidan ham dastur ishlab chiqildi. YAngi dastur mazmunida milliy musiqamiz merosidan to'laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo'shiqlari, lapar, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o'z aksini topgan. Dasturning bosh mavzusi «Musiq va hayotdir» yil, chorak, dars mavzulari, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi. Bu boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisidan ish mazmunini yangilashni talab etadi. YAngi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim, chunki o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirishda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda va ularni ma'naviyatli, ma'rifatli qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi yetakchi bo'lib hisoblanadi.

LABARATORIYA (2 SOAT)

MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARS TAXLILI (2 SOAT)

Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;

- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash;

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.

6-SEMESTR

No	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
----	-------------------------------------	-----------------

1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari	4
2	Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
3	oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni va xususiyatlari	4
4	Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.	4
5	Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi	4
6	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
7	1920-90 yillarda musiqa o'qitish metodikasining qisqacha tarixi	4
	Jami:	28

**AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
6-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari	2
2	Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	2
3	oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni va xususiyatlari	2
4	Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.	4
5	Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi	4
6	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
7	1920-90 yillarda musiqa o'qitish metodikasining qisqacha tarixi	4
	Jami:	22

**SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
6-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Yuqori sinf dasturi	4
2	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
	Jami:	8

**LABARATORIYA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
6-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqa madaniyati darsi taxlili	2
	Jami:	2

**MUSIQA 'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANIDAN O'TILADIGAN MAVZULAR VA ULAR BO'YICHA MASHG'ULOT TURLARIGA AJRATILGAN SOATLARNING TAQSIMOTI
6-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	soatlar				
		Ja mi	ma'ruza	Ama liy	Seminar	Labaratori ya

1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari	12	4	2	4	2
2	Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	10	4	2	4	
3	oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni va xususiyatlari	6	4	2		
4	Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.	8	4	4		
5	Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi	8	4	4		
6	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	8	4	4		
7	1920-90 yillarda musiqa o'qitish metodikasining qisqacha tarixi	8	4	4		
	Jami	60	28	22	8	2

TALABALAR MUSTAKIL ISHIINING MAZMUNI VA XAJMI
6-SEMESTR

№	Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga mavzulari	Mustakil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddati	Xajmi soatda
1	Badiiy asarlarni estetik-goyaviy jixatdan taxlil qilish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	8
2	Klassik asarlar matni ustida ishlash	Musiqni tinglab uni izoxloy olish	Semestr davomida	8
3	Talabalarni ijodiy jarayonga yunaldirish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	6
4	Fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish	Kuyni notaga qarab kuzata bilish va taxlil qilish	Semestr davomida	6
	Jami:			28

6-SEMESTR					
№	Joriynazorati	№	Oraliq nazorati	№	Yakuniy nazorat
1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini ochib bering?	1	Ettinchi sinfda musiqa darslarining yil, chorak, dars mavzularining nomlari nima va ularning ahamiyati?	1	O'zbekistonda musiqa madaniyatining shakllanishiga qaysi muaffakirlar o'z hissasini qo'shdilar?
2	Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsad va omillarini yoritib bering?	2	Ettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik tomondan organizmlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi va unga musiqa o'qituvchisining roli?	2	O'zbekistondagi maktablarda musiqa fani qachondan boshlab dars sifatida kiritildi?
3	Kadrlar tayyorlash milliy dasturini asosiy bosqichlari mazmunini ochib bering?	3	Ettinchi sinf o'quvchilari musiqa o'qitishni yakunlovchi davrida qanday dunyoqarashga, bilim va malakaga ega bo'lishlari kerak?	3	Musiqa fani bo'yicha ilk dastur, musiqa kitob qachon va kim tomonidan yaratildi?
4	Davlat Ta'lim Standartlari mazmuni va maqsadini aytib bering?	4	Ettinchi sinf o'g'il va qiz bolalarda mutatsiya davri qanday o'tadi va uning o'ziga xos xususiyatlari?	4	Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?

5	Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi va unga qanday vazifalar qo'yilgan?	5	Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi nima?	5	Musiqiy ta'lim berishning asosiy shakllarini izohlab bering?
6	Oltinchi sinfda musiqa o'qitishni ish mazmuni nimadan iborat?	6	Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini qanday shakllari bor?	6	Musiqa o'qitish metodikasi fani qanday faoliyat turlaridan iborat?
7	YAngi dastur asosida musiqa darslarida olib borishning o'ziga xos qulayliklari va muammolari nimalardan iborat?	7	Sinfdan tashqari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasi qanday tuziladi?	7	Bo'lajak musiqa pedagoglari oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?
8	Oltinchi sinfda musiqa o'qitishning ish mazmuni qanday printsiplar va metodlarga asoslanadi?	8	Maktabdan tashqarida musiqa tarbiyasi ishlariga nimalar kiradi?	8	Bo'lajak musiqa pedagoglari oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?
9	Oltinchi sinfda vokal-xor ishlarini va musiqa tinglashning ish mazmuni qanday?	9	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda nimaga ahamiyat berish kerak?	9	Musiqiy ta'lim berishning asosiy shakllarini izohlab bering?
10	Musiqa o'qitish bo'yicha ta'limning yangi o'quv dasturi va standartlari musiqa darslarida qanday ahamiyatga ega?	10	Bo'lajak pedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?	10	Musiqa o'qitish metodikasi fani qanday faoliyat turlaridan iborat?

BAHOLASH TURLARI BO'YICHA BALLAR TAQSIMOTI

	soatlar					Joriy baholash					Oraliq baholash					YA.b.	
	ma'ruza	amaliy	seminar	Laboratoriya	Must. ish	amaliy		Must. ish			Koll-um		Must. ish			ball	turi
						soni	ball	soni	ball	Jami ball	soni	ball	soni	ball	Jami ball		
6 sem	28	22	8	2	28	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma

7-SEMESTR (10 –SOAT MA'RUZA) FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TARBIYASI TIZIMI (4 SOAT)

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. SHuning uchun musiqa tarbiyasi mustaqillik mamlakatlarda e'tiqod uchun xorijiy mamlakatlarida esa burjua demokratiyasi uchun xizmat qiladi.

MAVZU: O'ZBEKISTONNING UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING RIVOJLANISHI (4 SOAT)

Mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra 9-yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni mintaqaviy hususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa predmeti bo'yicha kontseptsiyasi ishlab chiqildi

MAVZU: BOLALAR BILIM VA MALAKALARINI MUSTAXKAMLASH (2 SOAT)

Talabalarimizni olgan nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashg'ulot o'tkazgan darslari va o'quv-tarbiya mashg'ulotlarida guruhning barcha talablari, o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilishlari lozim. Tahlil jarayonida, eng muhimi talaba o'zining dars o'tkazuvchi o'qituvchi sifatida tasavvur qilib, o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baholay olganidadir. Talaba tomonidan o'tkazilgan darslarning va tarbiyaviy ishlarning tahlili, odatda o'z-o'zini baholashda, o'zini hisobotini reja va konspektalarni tahlil qilishdan o'z ishini baholay olishdan boshlanadi. Metodist-o'qituvchi amaliyotchi-talabaga metodik yordam ko'rsatish va maslahatlar berib kamchilik va yutuqlarni aniqlab to'g'ri yo'l ko'rsatishi lozim.

7-SEMESTR (8- SOAT AMALIY) FANNING AMALIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TARBIYASI TIZIMI (4 SOAT)

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalardan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektroorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir-biriga jo'rnavoqlik qilishlarni) bajaradilar.

Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat. Jumladan, AQSHda yagona davlat dasturi yo'q. Musiqa ta'limi «estetika» sifatida o'tiladi. Unda musiqa, tasviriy san'at va mehnat mazmunan bir-biri bilan bog'langan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. SHuning uchun har bir shtatda davlat maktablarida, shaxsiy va diniy maktablarda o'quv soatlarini ham bir xil emas, o'rta hisobga I-VII-sinflarda haftasiga 1-2 soatdan dars o'tiladi. Darsdan tashqari har bir o'quvchi musiqa to'garaklariga (xor, orkestr, raqs, VIO) a'zo, deyarli har bir maktabda simfonik orkestr mavjud.

MAVZU: O'ZBEKISTONNING UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING RIVOJLANISHI (4 SOAT)

«Dars» - ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarda bo'layotgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy o'zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi zamonaviy talablar qo'yildi:

- 1.Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish.
- 2.Darsda ta'limning faol usul va uslublaridan foydalanish.
- 3.Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'alarini, jahon pedagogika va psixologiyasi, san'atimiz, buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, rivoyatlarimiz, hikmat to'la hadislarimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

SEMINAR (4 SOAT)

MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA MUSIQA TARBIYASI TIZIMI (4 SOAT)

YAponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. **YAponiyada** musiqa tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha

estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo'lib, unga musiqa, tasviriy san'at va mehnat uzviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida;
- b) 6-14 yoshgacha to'liqsiz o'rta maktab;
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi;
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi.

LABARATORIYA (4 SOAT)

MAVZU: MUSIQA MADANIYATI DARSİ TAXLILI (2 SOAT)

Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash;

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR. 7-SEMESTR

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Xorijiy mamlakatlarda musiqa tarbiyasi tizimi.	4
2	O'zbekistonning umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishi	4
3	Bolalar bilim va malakalarini mustaxkamlash	2
Jami:		10

AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR. 7-SEMESTR

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Xorijiy mamlakatlarda musiqa tarbiyasi tizimi.	2
2	O'zbekistonning umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishi	2
Jami:		8

SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR. 7-SEMESTR

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Xorijiy mamlakatlarda musiqa tarbiyasi tizimi	4
Jami:		4

**LABARATORIYA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA
VA TAVSIYALAR.
7-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqa madaniyati darsi taxlili	4
	Jami:	4

**MUSIQA 'QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANIDAN O'TILADIGAN
MAVZULAR VA ULAR BO'YICHA MASHG'ULOT TURLARIGA AJRATILGAN
SOATLARNING TAQSIMOTI
7-SEMESTR**

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	soatlar				
		Ja mi	ma'ruza	Ama liy	Seminar	Labaratori ya
1	Xorijiy mamlakatlarda musiqa tarbiyasi tizimi.	16	4	4	4	4
2	O'zbekistonning umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishi	8	4	4		
3	Takrorlash	2	2			
	Jami	26	10	8	4	4

**TALABALAR MUSTAKIL ISHIINING MAZMUNI VA XAJMI
6-SEMESTR**

№	Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga mavzulari	Mustakil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddati	Xajmi soatda
1	Badiiy asarlarni estetik-goyaviy jihatdan taxlil qilish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	8
2	Klassik asarlar matni ustida ishlash	Musiqni tinglab uni izoxloy olish	Semestr davomida	8
3	Talabalarni ijodiy jarayonga yunaltirish	Asarlarni taxlil qilish	Semestr davomida	6
4	Fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish	Kuyni notaga qarab kuzata bilish va taxlil qilish	Semestr davomida	6
	Jami:			28

7-SEMESTR					
№	Joriynazorati	№	Oraliq nazorati	№	YAkuniy nazorat
1	Horijiy mamlakatlarda musiqa o'qitishning shakli va maqsadi nimadan iborat?	1	Horijiy mamlakatlarda musiqa o'qitishning shakli va maqsadi nimadan iborat?	1	Horijiy mamlakatlarda musiqa o'qitishning shakli va maqsadi nimadan iborat?
2	Horijiy mamlakatlarda musiqa fani. qanday fan bo'lib hisoblanadi?	2	Horijiy mamlakatlarda musiqa fani. qanday fan bo'lib hisoblanadi?	2	Horijiy mamlakatlarda musiqa fani. qanday fan bo'lib hisoblanadi?
3	YAponiya maktablarida musiqa o'qitish qanday?	3	YAponiya maktablarida musiqa o'qitish qanday?	3	YAponiya maktablarida musiqa o'qitish qanday?
4	AQSHda qanday maktablar va	4	AQSHda qanday maktablar	4	AQSHda qanday maktablar

	dasturlar mavjud?		va dasturlar mavjud?		va dasturlar mavjud?
5	Umumiy ta'lim maktablarida yangi dastur asosida musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?	5	Umumiy ta'lim maktablarida yangi dastur asosida musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?	5	Umumiy ta'lim maktablarida yangi dastur asosida musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
6	Musiqa o'qitish bo'yicha qanday ilmiy-metodik ishlar, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi va ularning mualliflari kim?	6	Musiqa o'qitish bo'yicha qanday ilmiy-metodik ishlar, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi va ularning mualliflari kim?	6	Musiqa o'qitish bo'yicha qanday ilmiy-metodik ishlar, dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi va ularning mualliflari kim?
7	YOsh kadrlarni tarbiyalashda musiqa o'qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?	7	YOsh kadrlarni tarbiyalashda musiqa o'qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?	7	YOsh kadrlarni tarbiyalashda musiqa o'qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

BAHOLASH TURLARI BO'YICHA BALLAR TAQSIMOTI

	soatlar					Joriy baholash					Oraliq baholash					YA.b.	
	ma'ruza	amaliy	seminar	Laboratoriya	Must ish	amaliy		Must. ish			Koll-um		Must.ish			ball	turi
						soni	ball	soni	ball	Jami ball	soni	ball	soni	ball	Jami ball		
7	10	8	4	4	14	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma

BAHOLASH TURLARI BO'YICHA BALLAR TAQSIMOTI

	soatlar					Joriy baholash					Oraliq baholash					YA.b.	
	ma'ruza	amaliy	seminar	Laboratoriya	Must ish	amaliy		Must. ish			Koll-um		Must.ish			ball	turi
						soni	ball	soni	ball	Jami ball	soni	ball	soni	ball	Jami ball		
5 sem	20	22	4	4	35	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma
6 sem	28	22	8	2	28	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma
7	10	8	4	4	14	1	25	1	10	35	1	25	1	10	35	30	Yozma
Jami: 211 soat	58	50	16	10	77												

NAZORAT TURLARINI O'TKAZISH TARTIBI

1. Joriy nazoratni o'tkazish tartibi:

Ushbu nazoratni turi auditoriyada akademik guruxning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg`ulotlarni tekshirish;
- test savollari o`tkazish;
- nazorat ishlarini o`tkazish.

2. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok hamda akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

kollokvium;

og`zaki so`rov;

test sinovlari o`tkazish;

yozma ish.

3. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruxning barcha talabalari ishtirokida «Yozma ish» tartibida o`tkazilad. Jami variantlar soni 15 ta . Har bir variant 5ta savoldan iborat.

JORIY VA ORALIQ NAZORATI TURLARIDA TALABALAR BILM, KO`NIKMA HAMDA MALAKALARINI BAXOLASH MEZONI.

Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichini quyidagi mezonlar asosida baxolanadi;

86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozii;

- xulosa va qaror qabul qila olish;
- ijodiy fikirlay olish;
- mustaqil mushoxadi yurita bilish;
- olgan bilimlarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- musiqiy merosimizni chuqur anglay bilish;
- mavzular mohiyatini to`la bilish va aytib bera olish;
- fanga oid termin va tushunchalarni izoxlay olish;
- musiqiy termin va atamalarni yod bilish;
- kompozitor va bastakorlar ijodini mustaqil mushoxada qilish;
- kompozitorlar yaratgan musiqiy asarlarni ravon, mustaqil taxlil qilish.

71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozii;

- mustaqil mushohada yurita olish;
- auditoriyada olgan bilimlarni amalda qo`llay ola bilish;
- mavzular mohiyatini bilish, aytib berish;
- fanga oid termin va tushunchalarni izoxlay olish;
- musiqiy termin va atamalarni yod bilish;
- kompozitor va bastakorlar ijodini taxlil qila olish;
- musiqiy asarlarni taxlil qila bilish;
- chet el kompozitorlar asarlarini taxlil qila bilish;

55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozii;

- mavzular mohiyatini bilish, aytib berish;
- fanga oid termin va tushunchalarni izoxlay olish;
- musiqiy termin va atamalarni yod bilish;
- kompozitor va bastakorlar ijodini taxlil qila olish;
- musiqiy asarlarni taxlil qila bilish;
- chet el kompozitorlar asarlarini taxlil qila bilish;

0-54 ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozii;

- fanga oid termin va tushunchalarni izoxlay olish;
- musiqiy termin va atamalarni yod bilish;
- kompozitor va bastakorlar ijodini taxlil qila olish;
- musiqiy asarlarni taxlil qila bilish;

Dasturning informatsiy - uslubiy taminoti

Mazkur fan o`qitish jarayonida ta5111100limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsiy texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutiladi:

Musiqqa o`qitish nazariyasi fani bo`yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;

O`rganiladigan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disketlar, CD, DVD, MRZ va magnitofon kassetalari;

Musiqiy yozilgan xujjatli disklar;

Zamonaviy texnologiyalarni dare jarayonida kullash; musiqqa darelarda tarbiyaviy ishlarni olib borishga va musiqaga bo`lgan qiziqishni o`stira olishga, talabalarda badiiy ijrochilikni shakllanishiga, musiqiy did va bilimlarini kengaytirishiga asos buladi.

Foydaniladigan asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar ruyxati

Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar

1.D.Raximov «Musiqaning elementar nazariyasi bo`yicha mashq va vazifalar tugtami» T.,2006

2.O.Azimova. Garmoniya Darslik. Nazariy kurs. T., «qatortol - Kamolot» nashriyoti 2000.

Z.M.I.Roytershteyn «Osnova teoreticheskogo muzikoznaniya» M., «Akademiya» nashriyoti 2003.

Qo`shimcha adabiyotlar

mashq va masalalar to`plami» T., Xrestomatiya po garmonicheskomu

1 .X-Raximov «Garmoniya bo`yicha «Aloqachi» nashriyoti, 2005. 2.O.A. Skrebkova, S.S.

Skrebkov. analizu. M, «Muzika» nashriyoti 1978.

MA`RUZA MASHG`ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO`YICHA KO`RSATMA VA TAVSIYALAR. 5-SEMESTR

No	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqqa o`qitishning nazariy asoslari	2
2	Musiqqa o`qitish nazariyasi va musiqqa o`qituvchisi	2
3	Umumiy musiqiy ta`limning maqsadlari	2

4	Umumiy musiqiy ta'limning maqsadlari	2
5	Ta'limning texnologiya va asoslari	2
6	Vokal va xor ishlari	2
7	Vokal va xor ishlarini o'rganish metodikasi	2
8	Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari	2
9	I-II- sinf repertuari	2
10	III-IV-sinf repertuari	2
	Jami:	20

1-MA'RUZA
MAVZU: MUSIQA O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari. 2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari. 3. Sistematik, ilmiylik, davomiylik printsiplari. 4. Onglilik va aktivlik printsiplari. 5. Musiqa darslarida ko'rgazmalik printsiipi. 6. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi bularni mustaxkamlash printsiipi. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Musiqa darsining umumdidaktik printsiplari bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari to'g'risida tushuncha berish;		O'quv faoliyati natijalari: 1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish; 2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari va printsiplari

2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari va prinsiplari to'g'risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;	to'g'risidagi nazariy bilimlarini o'zlashtirish;
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "AQLIY XUJUM" metodi, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. "Aqliy xujum" metodi bo'yicha talabalarning boshlanrich bilimlarini aniqlaydi. 3. talabalar fikrlarini ezishlari uchun kartochkalar tarqatadi. 4. talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Talabalarning fikrlarini mantiqiy bog'laydi. Munozaraga chorlaydi. 6. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 7. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. "Aqliy xujum" metodiga ko'ra boshlanrich bilimlarini baen etadilar. 3. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar va kartochkalarga o'z fikrlarini ezadilar.. 4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. "Aqlik xujum" strategiyasi bo'yicha mavzuga doir o'quv materialini tarqatadi. 4. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 5. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Aqliy xujum" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. "Aqliy xujum" strategiyasi bo'qicha tavsiya etilgan o'quv materialini yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va munozaraga kirishadi. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik

	<p>6. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi.</p> <p>7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi.</p> <p>8. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar.</p> <p>5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.</p> <p>6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
<p>3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)</p>	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash.</p> <p>2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.</p> <p>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar.</p> <p>2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar.</p> <p>3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar.</p> <p>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Musiqqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsiplari asosida tuziladi. Mazkur printsiplar o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari –dars mazmunini metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Musiqqa madaniyati darslarining didaktik printsiplari besh turdan iborat:

1. Musiqqa ta'limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik printsiipi.
2. Darsda o'quvchilarning onglilik va aktivlik printsiipi.
3. Musiqqa madaniyati darslarida ko'rgazmalik printsiipi.
4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiipi.
5. Musiqqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi printsiipi.

Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. YUqoridagi, qayd etilgan umumdidaktik printsiplar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqqa darsini davlat ta'lim standartiga muvofiq, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqqa faoliyatini izchilligini ta'minlaydi.

1. **Musiqqa ta'limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik printsiipi** har bir darsda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosida tashkil topishi lozim. Musiqqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqqa oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish – musiqqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar xosil qilish demakdir. Dars jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi. Bolalar ovozinin rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsining ilmiylik printsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni, sistemaliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi darslarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi sistemalik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish printsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, sistemalilik demakdir. Darsning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir darsning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylik printsiipi demakdir.

2. Darsda o'quvchilarni onglilik va aktivligi printsiplari.

Mazkur printsiplarni didaktikaning yetakchi printsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish o'quvchining aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqoyalarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarni ongli ravishda bilib o'zlashtirishi, bilim jarayonini aktivligini vujudga keltiradi. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darslarida onglilik va aktivlik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirish uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlarida ham, onglilik va aktivlik, musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. Musiqa darsida ko'rgazmalilik printsiplari.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmalilik vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida ijro etib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmalilik kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi.

4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiplari.

Mazkur printsiplarni dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir sinfning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqa darsining yarim yillik kalendar-mavzuli rejasini tuziladi. Kalendar-mavzuli ish reja bir yilda ikki marta, o'quvchilarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, dars faoliyatlariga qarab tuziladi.

5. Musiqa darslarida bilim va malakalarining mustahkamligi.

Mazkur printsiplarini amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta printsiplarga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Birinchidan bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va hayotiylikni ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilish lozim.

Ikkinchidan asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

a) asarning bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyasini uchun mosligi.

b) musiqa ta'limining xususiyati.

v) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqitira olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: Qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rgatish va keyingi darslarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan musiqa darslarida har bir yangi bilim elementi dars faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

Xulosa, qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik printsiplari, musiqa madaniyati darslarida katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Pedagogikaning didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat?
2. Umumdidaktik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo'llanilishi?
3. Musiqa darslarida sistemalilik, davomiylik printsiplaridan qanday foydalaniladi?
4. Ko'rgazmalilik, onglilik va aktivlik printsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?
5. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiplari deganda nima tushunamiz?
6. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash printsiplari qanday qo'llaniladi?

Tayanch tushunchalar:

1. **Ohangdoshlik** – bir necha tovushlarning bir yo'lga solib kuylanishi.
2. **CHolg'uchi** – musiqachi, sozanda cholg'u asboblarda ijro etuvchi.
3. **Printsip** – tamoyil.
4. **Musiqa tarixi** – Musiqa sa'natining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.
5. **Musiqa nazariyasi** – musiqa tahlili, ijrochiligini o'rgatuvchi fan.

2-MA'RUZA

MAVZU: MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA MUSIQA O'QITUVCHISI Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati. Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi. Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi. Musiqa darsining strukturasi. Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
O'quv	Musiqa madaniyati darslarining hususiyati va strukturasi o'zlashtirish

mashg'ulotining maqsadi	
Pedagogik vazifalar: - Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati to'rtisida tushuncha berish. - Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi tushuntirish. - Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi to'rtisida bilim berish. - Musiqa darsining strukturasi o'rgatish. - Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.	O'quv faoliyati natijalari: - Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati to'rtisida tushunchaga ega bo'lish. - Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi ажrata olish. - Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi to'rtisida bilim olish. - Musiqa darsining strukturasi xaqida o'rganish. - Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "T- jadval " metodi, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiq)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha kichik guruxlarni shakllantiradi. 3. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 4. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 6. Talabalar, kichik guruxlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 7. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 8. mashg'ulotni yakunlaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. "T-jadval" metodiga ko'ra kichik guruxlarda ishlaydilar. 3. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha mavzuga	1. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha

bosqichi (50 daqiqa)	doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. 4. Prezentatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 5. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 6. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 8. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	guruhlarga tavsiya etilgan o'quv materiali yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va tegdoshlarini mazkur bilimlar bilan tanishtiradilar. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentatsiya bilan tanishadilar. 4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarining pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda ahloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalash;

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbobi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektlarini tuzib yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa

darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi.

Musiqqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. SHuning uchun musiqqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir. Musiqqa darslari quyidagi spetsifik hususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1) U musiqqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2) Musiqqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at ranglar bilan, raqs sanxati harakat bilan ifodalansa, musiqqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. YUqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqagina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

3) Musiqqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. SHuning uchun, ijro etilayogan musiqqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda, uning yangi-yangi badiiy qirralarini his etamiz.

4) Musiqqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. YAxshi, mazmunli, qiziqarli musiqqa darslaridan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, hursand bo'lib chiqadilar. Hullas musiqqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

SHuningdek musiqqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
5. Musiqqa savodi.
6. Musiqqa tinlash.
7. Musiqqaga mos xarakterlarni bajarish.
8. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishdan iborat.

Xor bo'lib kuylash

Bolalarni musiqiy o'quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal-xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqтира olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiq o'quvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq. CHunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishi ko'pincha o'qituvchi ovozigga taqlid qilib kuylashga asoslanadi. SHuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o'qituvchi ovoz sozlash, qo'shiq o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ovoz diapazoni (do_1 - do_2), ishchi diapazoni (mi_1 - fa_1 - sol_1) primar tovushlarida kuylash uchun qulay bo'lgan (sol_1 - lya_1), tovushlarini aniq bilishi lozim.

Musiqqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

1. Bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish.
2. Qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (qo'shiq mualliflari, asarining mazmuni, tarixiy hususiyatlari xaqida qisqacha xikoya qilish).
3. Qo'shiqni tahlil qilinishi (musiqqa ifoda vositalari, ladi, xakteri mazmunini suhbat yo'li bilan belgilash).
4. Qo'shiqni musiqiy jumalarga bo'lib o'rgatish (to'g'ri nafas olib, jumlaning ohirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatlarini ustida ishlash).
5. Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish ya'ni umumlashtirish).

Musiqqa savodi

Musiqqa madaniyati darslari jarayonida, musiqqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Musiqqa savodi mazmuni o'quvchilarni tobora shakllantiradi va ularni doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. SHunday qilib musiqqa savodi darsining ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqqa savodi (faoliyatining) asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo'yicha berilgan chorak mavzulari kuylash va tinglashga doir asarlarini savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi.

Musiqqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi.

1. Bolalar diqqatini musiqqa ifoda vositalari – kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilar o'rgatish.
2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish.
3. Musiqqa ijodkorlari: «kompozitor», «ijrochi», «tinglovchi» mavzuning mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar, musiqqa savodi orqali amalga oshiriladi.

Musiqqa tinglash

Musiqqa tinglash, musiqqa madaniyati darslarining asosiy omili hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning xarakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi. O'quvchilarni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqqa asari zamirida ma'lum, his-tuyg'u va fikr aks ettiriladi. Biz musiqqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik, u avval musiqani tinglab, musiqani idrok etishdan boshlanadi va o'quvchilarning ruhiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun musiqqa tinglash darsining yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar, badiiy-g'oyaviy mazmuni jihatdan chorak, dars mazmuniga bog'liq bo'ladi va ilmiylik, davomiylik, izchillik tamoyillariga amal qiladi.

Musiqqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy va badiiy g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish.
4. Asarni bir butunligicha qayta tinglash va asar haqida o'quvchilarni umumiy taassurotlari yuzasida yakuniy suhbat o'tkazish.

Musiqqa tinglash metodlari:

1. Ko'rgazmali metodi:

- o'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalari orqali bolalar cholg'u asbobi, torli, ritimli harakatlar.

2. Amaliy metod:

- o'quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularni hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

3. Taqqoslash metodi:

- bunda asarlarning janrlari ijrochilik xususiyatlari templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi.

Musiqqa darsini 5ta faoliyati turlari (xor bo'lib kuylash, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish) uzviy bog'lab boriladi va mantiqiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

4. Og'zaki metodlar:

- O'qituvchi tinlanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog'lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi.

Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish.

Bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki bolalar cholg'u asboblari jonli, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchining qiziqtiradi. Bolalar cholg'u asboblari birinchi navbatda o'quvchilarda ijrolik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblari foydalanish yaxshi natijalar berish bilan birga o'quvchilarni darsga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy o'quvini oshiradi. Musiqqa darslarida qo'llaniladigan bolalar cholg'u asboblari ikki turga bo'linadi. **Kuychang va kuychang bo'lmagan** (shovqinli) cholg'u asboblari kiradi.

1. Kuychang cholg'u asboblarga metalafon va kselafon kiradi.

2. Kuychang bo'lmagan cholg'u asboblari: doirachalar, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shiqildoqlar, barabanchalar, uchburchak, markassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish turli *metodlar* amalga oshiriladi:

1. Avval bolalar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo'r bo'lish.
2. Musiqaga ritmik jo'r bo'lishni aniq bajarganlar, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'ladigan.
3. Keyinchalik esa, passiv bolalar, to'g'ri ijro etishga intilish maqsadida, ular ham jo'r bo'ladilar.
4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish har gal, har xil cholg'u asboblarida bajariladi.
5. Sinfni 2 guruhga bo'lib. 1-guruh chapak va cholg'uda, 2-guruh esa ovoz usul berish (bum-ba, baka-baka-bum) bilan amalga oshirish mumkin.
6. Bolalar cholg'u asboblarida ritmik, jo'r bo'lish grafik ko'rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o'quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Musiqaga xos xarakterlar bajarish.

Boshlang'ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ovoz apparatlari nozik, diqqat e'tibori tarqoq serharakat, o'ynqaroq, xotirasi, nutqi, to'liq rivojlanmagan bo'lganligi sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez-tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish, o'quvchilarni diqqatini jamlashda, xotirasini mustahkamlashda va jismonan o'sishga yordam beradi. Dars davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raqsi elementlarini bajarish, mustaqil o'yinlar o'tkazish, musiqaning harakteriga mos, turli qo'l va tana harakatlari bilan ifodalanadi. Ma'lumki, milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o'rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Raqs harakatlari musiqa darsida o'quvchilar faollashuvini oshiradi. Eng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritm tuyg'usi faol rivojlanadi. Har bir harakat turini o'qituvchi oldindan belgilaydi va o'zi uni aniq, go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqani mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra harakatlar bajarish yaxshi natija beradi. Bolalar musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Ko'p musiqiy asarlar mazmunida o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayoni bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o'yinlar, o'quvchilarni xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismoniy sog'lom bo'lishiga ko'maklashadi va ularni ruhlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini diqqat e'tiborini tarqoq ovoz apparatlari, kuchsiz, musiqiy o'quv qobiliyatlari to'la shakllanmagan, serharakat, o'yinga moyil bo'ladilar. Bunda darsning tuzilishi pedagogik maqsadlarga qarab darsni hohlagan dars faoliyatidan boshlash mumkin. Bundan maqsad, o'quvchilarni musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, dars faoliyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab mazmun jihatdan mantiqiy bir butunlikka erishdir. Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo'lishi lozim.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Musiqa darsining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Musiqa darsi qanday xususiyatlarga ega va qanday fanlar bilan bog'liq?
3. Zamon talabi asosida musiqa darsi qanday bo'lmog'i kerak?
4. Musiqa darsining strukturasi qanday faoliyatlardan iborat?

TAYANCH TUSHUNCHALARI:

«Metodika» - bilish, o'rganish usuli.

«Xususiy metodika» - bitta fanning uslubi.

«Amaliy metod» - ijodiy mehnat.

3-MA'RUZA
MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING MAQSADLARI
Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni. Musika o'qitish metodlarining vazifalari. Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlari. Musika o'qitish metodlari va ularning turlari.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Musika o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini o'zlashtirish	
Pedagogik vazifalar: - Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni bilan tanishtirish - Musika o'qitish metodlarining vazifalarini tushuntirish - Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlari haqida tushcha berish		O'quv faoliyati natijalari: - Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni bilan tanishish - Musika o'qitish metodlarining vazifalari haqida bilimga ega bo'lish - - Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlarini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "Muammoni xal etish" metodi, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	

Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test
---------	----------------------------------

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. "Muammoni xal etish" metodi bo'yicha kichik guruxlarni shakllantiradi. 3. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 4. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 6. Talabalar, kichik guruxlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 7. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 8. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. "Muammoni xal etish" metodiga ko'ra kichik guruxlarda ishlaydilar. 3. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. "6x6x6" strategiyasi bo'yicha mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. 4. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 5. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 6. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosani qiladi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Muammoni xal etish" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. "Muammoni xal etish" strategiyasi bo'yicha guruhlarga tavsiya etilgan o'quv materialini yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va tegdoshlarini mazkur bilimlar bilan tanishtiradilar. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga

	8. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Musiqqa o'qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi.

U, musiqqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi. Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqqa o'qitish metodikasi o'qituvchidan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli sohadir.

Xozirgi kunda musiqqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki, maktabda o'quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlarini, ko'nikma va malakalariga qarab, musiqqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur) ta'lim printsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqqa o'qitish metodikasi, o'quvchilarning musiqqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiiq etuvchi fandır. «Metodika» so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqqa o'quv metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini hususiy (optimal) metodlar egallab, musiqqa darsida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqqa darsida o'qitishning (optimal) hususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, hususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Hususiy metod-biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

Xususiy (optimal) metodlar o'qitish faoliyati maqsadga qarab to'rtga bo'linadi:

1. Darsni musiqaviy umumlashtiruvchi metodi.
2. O'tilajak darslarga oldindan «yugurib», bog'lanib o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi.
4. Darsning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanish metodi.
 1. Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, o'quvchilarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganidir:
 - A) O'qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;
 - B) O'qituvchi va o'quvchi birga hamkorlikda masalani yechadi.
 - V) O'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.
 2. Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, o'quvchilarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.
 2. Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. O'qituvchi darsni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va o'quvchilarni darsga faol qiziqitirib, darsning emotsional dramaturgiyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim. Musiqa o'qituvchisi maktabda musiqa darsidan tashqari kontsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishni talab etadi.

4. Darsni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

- A. O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.
- B. Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.
- C. O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarni kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, sinfda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqilli bo'lishga intilsinlar.

SHunday qilib, musiqa o'qitish metodlarini boshqa turlari ham mavjud:

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.
2. Ko'rgazma o'qitish metodlari.
3. Amaliy o'qitish metodlari.
4. O'yin metodlari.
5. Taqqoslash metodlari.
6. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Asosan, bu metoddan boshlang'ich sinfda ko'proq foydalaniladi.

Hikoya – bu o'qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.

Suhbat – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatni kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Tushuntirish – ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. **Ko'rgazmali o'qitish metodlari.** Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarni, plakatlarni, rasmlar, o'qituvchining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

3. **Amaliy o'qitish metodlari.** Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. **O'yin metodi** – boshlang'ich sinflarda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari serharakat va o'yingga moyil bo'ladilar. Darsda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish uyg'otadi.

5. **Taqqoslash metodi.** Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida o'qituvchi, o'quvchilar bilan gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarni templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. **Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.** Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsial guruhlariga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi. Differentsial guruh – deganda o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovozig qarang uch guruhga bo'linadi.

1-guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar kiradi.

2-guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni o'qituvchining ovozig ergashib, tayanib kuylaydigan o'quvchilar kiradi.

3-guruhga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar qo'yidagi tartibda o'tkaziladi: **birinchi** qatorga o'qituvchini ovozig tayanib kuylaydiganlar, **ikkinchi** qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, **uchinchi** qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tkaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofda gilar eshitib ularning ovozariga ergashib, chiroyli, to'g'ri kuylashga harakat qiladilar.

SHu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. SHu tariqa, hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quvi, bir hilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Musiqa o'qitishning qanday metodlari mavjud?
2. Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor?
3. Musiqa o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari?
4. «Metodika» - so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat?

Tayanch tushunchalari:

1. «Metodika» - bilish, o'rganish usuli.
2. «Xususiy meodika» - bitta fanning uslubi.
3. «Amaliy metod» - ijodiy mehnat.

4-MA'RUZA
MAVZU: UMUMIY UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING TEXNALOGIYASINI VA
ASOSLARI
Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni. Musika o'qitish metodlarining vazifalari. Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlari. Musika o'qitish metodlari va ularning turlari.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Musika o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini o'zlashtirish	
Pedagogik vazifalar: - Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni bilan tanishtirish - Musika o'qitish metodlarining vazifalarini tushuntirish - Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlari haqida tushcha berish	O'quv faoliyati natijalari: - Musika o'qitish metodikasining maqsad va mazmuni bilan tanishish - Musika o'qitish metodlarining vazifalari haqida bilimga ega bo'lish - - Musika o'qitishning xususiy (optimal) metodlari va ularning turlarini o'zlashtirish	
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "Muammoni xal etish" metodi, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. "Muammoni xal etish" metodi bo'yicha kichik guruxlarni shakllantiradi. 3. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 4. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 6. Talabalar, kichik guruxlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 7. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 8. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. "Muammoni xal etish" metodiga ko'ra kichik guruxlarda ishlaydilar. 3. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. "6x6x6" strategiyasi bo'yicha mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. 4. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 5. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 6. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 8. O'quv materialini bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Muammoni xal etish" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. "Muammoni xal etish" strategiyasi bo'yicha guruhlarga tavsiya etilgan o'quv materialini yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va tegdoshlarini mazkur bilimlar bilan tanishtiradilar. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.

3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni soʻrash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi oʻzlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar boʻyicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan oʻz fikrlarini bildiradilar. 4. Oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. Oʻqituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.
--	---	--

Maʼruza matni

Musiqqa oʻqitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan oʻqitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va sanʼatshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi.

U, musiqqa oʻqitishning qonun-qoidalarini taʼriflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qoʻllanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi. Metodika, taʼlim-tarbiya jarayonida oʻqituvchining oʻquvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqqa oʻqitish metodikasi oʻqituvchidan isteʼdod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud boʻlishini talab etadi, chunki, sanʼat pedagogikasi mashaqqatli va juda masʼuliyatli sohadir.

Xozirgi kunda musiqqa oʻqitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. Respublikamizda musiqqa oʻqitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali oʻqituvchilarning qator izlanishlari, oʻquv qoʻllanmalarining ahamiyati katta boʻladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi soʻnggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqqa oʻqitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashgʻulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Maʼlumki, maktabda oʻquvchilarning yosh fiziologik xususiyatlarini, koʻnikma va malakalariga qarab, musiqqa oʻqitish metodikasi qoʻllaniladi. Bu yerda taʼlim usuli, oʻquv materiallarining (oʻquv reja, dastur) taʼlim printsiplari, oʻquv-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqqa oʻqitish metodikasi, oʻquvchilarning musiqqa sanʼatiga oʻrgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini oʻrgatuvchi va oʻquv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yoʻllarini tadbiiq etuvchi fandır. «Metodika» soʻzi grekcha soʻz boʻlib, «tadqiqot yoʻli», «bilish usuli» degan maʼnoni anglatadi va taʼlim-tarbiyaning alohida qismlari boʻlib hisoblanadi, ularning yigʻindisi musiqqa oʻquv metodlari deyiladi. Musiqaning oʻqitish metodlari deganda, maktab oʻquvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda oʻqituvchilarning qoʻllagan ish usullari tushuniladi.

Musiqqa oʻqitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqqa oʻqitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yoʻnalishini hususiy (optimal) metodlar egallab, musiqqa darsida qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa oʻqitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqqa darsida oʻqitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bogʻliq. yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab oʻqituvchisining shaxsiyati va unga boʻlgan professional talablar va oʻquvchilar munosabatini, xususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda taʼriflab berganlar. Xususiy metod-biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatida oʻzaro aloqadorligini va oʻquvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

Xususiy (optimal) metodlar oʻqitish faoliyati maqsadga qarab toʻrtga boʻlinadi:

5. Darsni musiqaviy umulashtiruvchi metodi.
6. Oʻtilajak darslarga oldindan «yugurib», bogʻlanib oʻtish va ilgari oʻtilganlarga qaytish metodi.
7. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi.

8. Darsning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanish metodi.

3. Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, o'quvchilarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

A) O'qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

B) O'qituvchi va o'quvchi birga hamkorlikda masalani yechadi.

V) O'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2. Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, o'quvchilarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

4. Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. O'qituvchi darsni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va o'quvchilarni darsga faol qiziqitirib, darsning emotsional dramaturniyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim. Musiqa o'qituvchisi maktabda musiqa darsidan tashqari kontsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishni talab etadi.

4. Darsni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

D. O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.

E. Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.

F. O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish. Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarni kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, sinfda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqilli bo'lishga intilsinlar.

SHunday qilib, musiqa o'qitish metodlarini boshqa turlari ham mavjud:

7. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

8. Ko'rgazma o'qitish metodlari.

9. Amaliy o'qitish metodlari.

10. O'yin metodlari.

11. Taqqoslash metodlari.

12. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Asosan, bu metoddan boshlang'ich sinfda ko'proq foydalaniladi.

Hikoya – bu o'qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.

Suhbat – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatni kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Tushuntirish – ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va ohang tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarni, plakatlar, rasmlar, o'qituvchining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

3. Amaliy o'qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. O'yin metodi – boshlang'ich sinflarda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari serharakat va o'yingga moyil bo'ladilar. Darsda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish uyg'otadi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida o'qituvchi, o'quvchilar bilan gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarni templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differentsial guruhlariga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi. Differentsial guruh – deganda o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovozigga qarab uch guruhga bo'linadi.

1-guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar kiradi.

2-guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni o'qituvchining ovozigga ergashib, tayanib kuylaydigan o'quvchilar kiradi.

3-guruhga esa, ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar qo'yidagi tartibda o'tkaziladi: **birinchi** qatorga o'qituvchini ovozigga tayanib kuylaydiganlar, **ikkinchi** qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, **uchinchi** qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tkaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofdagilar eshitib ularning ovozariga ergashib, chiroyli, to'g'ri kuylashga harakat qiladilar.

SHu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. SHu tariqa, hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quvi, bir hilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

Musiqa o'qitishning qanday metodlari mavjud?

Xususiy metod nimani anglatadi va qanday turlari bor?

Musiqa o'qitish metodlarining turlari va ularning vazifalari?

«Metodika» - so'zi nimani anglatadi va uning vazifalari nimadan iborat?

Tayanch tushunchalari:

4. «Metodika» - bilish, o'rganish usuli.

5. «Xususiy metodika» - bitta fanning uslubi.

6. «Amaliy metod» - ijodiy mehnat.

5 –MARUZA. TA'LIMNING TEXNOLOGIYA VA ASOSLARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none">1. Mavzuning mazmuni va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish.2. Shaxsning ijtimoiy mohiyati, shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni yoritish; faoliyatning shaxs rivojlanishdagi ahamiyatini ochib berish; rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish.3. Ma'ruza matnini tarqatish.4. Ma'ruza mohiyatini taqdimot texnologiyasi asosida yoritib berish.5. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.6. Savol-javob orqali talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.7. Mavzuni yakunlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Talabalarga shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi hamda musiqa tarbiyasining ahamiyati haqidagi nazariy bilimlarni beri orqali ularda o'quvchi shaxsiga nisbatan to'g'ri yondashish ko'nikmalarini shakllantirish
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
- shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi to'g'risida tushuncha berish;	- talabalar shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar;
- talabalarni shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasi bilan tanishtirish;	- talabalar shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasidan xabardor bo'ladilar;
- musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirish;	- musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirishni anglaydilar;
- talabalarni rivojlanshning yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;	- talabalar rivojlanshning yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar;
- talabalarda ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish ko'nikmalarini shakllantirish.	- talabalar ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish zarurligini tushunadilar, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ta'lim jarayonida o'quvchining yosh va individual xususiyatini inobatga olish ko'nikmasini o'zlashtiradilar;
	- talabalarning BKM darajasini aniqlovchi nazorat savollari va test topshiriqlari bo'yicha javob qaytarish orqali mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlarni baholaydilar.
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "T-jadval" strategiyasi, pedagogik vaziyat, "Shaxs portreti" metodi, savol-javob

Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Faoliyat mashmuni	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha kichik guruxlarni shakllantiradi. 3. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 4. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 5. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 6. Talabalar, kichik guruxlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 7. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 8. mashg'ulotni yakunlaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. "T-jadval" metodiga ko'ra kichik guruxlarda ishlaydilar. 3. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 5. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 6. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.	
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. 4. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 5. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 6. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 8. O'quv materialini bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	1. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. "T-jadval" strategiyasi bo'yicha guruhlarga tavsiya etilgan o'quv materialini yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va tengdoshlarini mazkur bilimlar bilan tanishtiradilar. 3. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.	
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan	1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni	

- | | | |
|-------------------------|--|---|
| bosqichi
(10 daqiqa) | hamkorlikda tahlil qiladi.
3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.
4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi. | tanishtiradilar.
3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.
4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamladilar.
5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar. |
|-------------------------|--|---|

Ma'ruza matni

Musiqaning madaniy hayotimizda keng o'rinni tutgan, inson shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqaning tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. O'quvchilarga nafosatli tarbiya berishda umumta'lim maktablaridagi, musiqaning madaniyati darslarini ahamiyati katta. O'quvchilar nafosat hissini, san'at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san'atdan bahramand bo'lishni, avvalo maktablarga o'rganadilar. Nafosat didini shakllantirish uchun esa, musiqaning madaniyati darslari bilan bir qatorda sinfdan tashqari musiqaning tarbiyasini ahamiyati katta. Chunki, sinfdan tashqari musiqaning tarbiyasining ommaviy va to'garak shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, musiqaning tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqaning, go'zallik olamiga olib kiradi. Chunki, musiqaning inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy-nafosat tarbiyasining muhim vositasidir. Inson musiqaning bilan ona allasi orqali tanishib, umirbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan bo'lishi kerak. Olimlardan birlari: «Odam shaxs bo'lishi uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb his qilmog'i kerak» - degan edi.

Shaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning hulqiga ta'sir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o'rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlar doirasiga qo'yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy hulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. «Har bir inson – degan edi Abu Nosir Al-Farobiy – o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va yuksak yetuklikka erishish uchun, insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sababli u ko'p narsalarni o'zaro yordamlashuvi orqali yetuklikka erishadi».

Bolani shaxs sifatida rivojlantirishda nasl, atrofdagi muhit, tarbiya muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi bu omillarni kuzatib, o'rganib chiqib, o'quvchilarni qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go'zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini singdira borishi lozim. Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. Shu bois o'quvchilarga musiqaning madaniyatini tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish boshlang'ich sinf musiqaning o'qituvchisini vazifasidir. Musiqaning inson ruhiyatiga emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta'sir etadi, bolalarni quvontiradi, o'ylantiradi, yaxshilikka, go'zallikka yetaklaydi va nafosat olamiga olib keladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda musiqaning madaniyati darslariga e'tibor yanada kuchayib, boshlang'ich sinf musiqaning o'qituvchisi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Shu bilan birga, iqtidorli o'qituvchilarni, maktab hayotiga ommaviy va to'garak ishlariga jalb etish boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidadir. Musiqaning madaniyati darslarida milliy musiqaning meroslaridan to'laqonli foydalanish va bugungi zamonaviy asarlarni musiqaning darslarida qo'llash, o'qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi. Buning uchun musiqaning o'qituvchisi o'z fanini puxta bilishi, bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqaning o'qitish metodikasidan chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Chunki yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqaning o'qituvchisi yetakchi bo'lib hisoblanadi. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqaning o'qituvchisini faoliyat miqyosi kengdir. Musiqaning madaniyati darslaridan tashqari, o'quvchilar bilan tarbiyaviy musiqali ochiq darslar o'tkazadi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmunini va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar keng ma'noda mazmunli qilib yoritilgan. Musiqaning o'qituvchisi dars jarayonida qo'shiq kuylash, musiqaning tinglash, musiqaga mos bolalar cholg'u asboblardan jo'r

bo'lish musiqiy ritmga harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqaga qiziqтира olish, ularni musiqiy qobiliyatlarini o'stirishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqa o'quvchilarga tez ta'sir eta oladigan ta'lim-tarbiya vositasidir. U o'qituvchilarni shaxs bo'lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, musiqa madaniyati darslari, avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqa o'qituvchisidan mehnat, o'z faniga muhabbat, bolalarni go'zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, musiqaga mehr va shijoat talab etadi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Madaniy hayotimizda musiqa qanday ahamiyatga ega?
2. Barkamol insonni tarbiyalashda musiqaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. SHaxsni tarbiyalashda musiqa qanday ahamiyatga ega?
4. Maktab hayotida musiqa o'qituvchisini tutgan o'rni?

Tayanch tushunchalar:

Musiqa – turli-tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atni bir turi.

Musiqa estetikasi – musiqa san'atining mohiyati, badiiy shakllari va uslublarini o'rganadigan fan.

6 – MA'RUZA

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Vokal – xor malakalari haqida ma'lumot Vokal-xor malakalarining turlari Musiqa darsida vokal-xor malakalarining roli Ashulachilik apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilish.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Vokal-xor malakalari va ularning ahamiyati to'g'risida bilim olish	
Pedagogik vazifalar:		O'quv faoliyati natijalari:

- Vokal – xor malakalari haqida ma'lumot berish - Vokal-xor malakalarining turlari bilan tanishtirish - Musiqa darsida vokal-xor malakalarining roli xaqida tushuncha berish - Ashulachilik apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilishni o'rgatish	- Vokal – xor malakalari haqida ma'lumotga ega bo'lish - Vokal-xor malakalarining turlari bilan tanishish - Musiqa darsida vokal-xor malakalarining roli xaqida tushunchaga ega bo'lish - Ashulachilik apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilishni o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.	1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni

	<p>5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi.</p> <p>6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi.</p> <p>7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>tanishtiradilar.</p> <p>4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.</p> <p>5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
<p>3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)</p>	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash.</p> <p>2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.</p> <p>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar.</p> <p>2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar.</p> <p>3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar.</p> <p>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslarida vokal-xor ishlari, o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasi o'qitishning eng faol shaklidir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqi rivojlaniradi, ovoz diapazoni kengayiradi, musiqiy o'quvi o'stiradi, mutatsiya davri yengil o'tadi, dunyoqarashi yildan-yilga shakllanib boradi. Vokal-xor malakalari musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi.

Vokal-xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. YUqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal-xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga bo'linadi:

7. Darsda qo'shiq kuylash holati
8. Ashulachilik nafasi
9. Ovoz hosil qilish
10. Sozlanish
11. Ansambl
12. Talaffuz.

1. **Qo'shiq kuylash holati**, deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri turish, o'tirib kuylaganda parta suyanchig'iga suyanmasdan, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushlash, qo'llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. **Ashulachilik nafasi**. Ma'lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o'rtasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishdagi nafas

esa qo'shiq xarakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo'shiq jumlasining cho'zimiga, sur'atiga va harakterining ifodalanishiga qarab cho'ziladi. Sun'iy nafasdan aktyorlar, suhandonlar va qo'shiqchilar foydalanadilar. SHuningdek, sun'iy ya'ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud: ko'krak nafasi; diaffragma nafasi; qorin nafasi.

Kichik bolalarning ko'krak nafasi hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko'krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida yelkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini, so'zini bo'lib nafas olishlari tabiiydir. SHuning uchun bolalarning yelkalarni ko'tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa so'zni bo'lib nafas olmaslikni o'rgatib borishi lozim. Nafas olish malakasini ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarning kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlagandek osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o'rgatiladi. Ana shu malakani amalga oshirishda darsliklarda, qo'llanmalarda tavsiya etilgan vokal-xor mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo'shiqlarni magnit tasmlari orqali tinglash kabi amaliy mashg'ulotlarda shakllantirib boriladi.

Bolalar mashq va qo'shiqlarni kuylaganda o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamati bilan jumla oxirigacha yetkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijyorlik holatlari «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»larga rioya etib kuylashga o'rgatish nafasini rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yiladi va ularni o'rgatish jarayonida amalga oshiradi.

Ovoz hosil qilish.

Ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. U ovoz apparati (kekirdak, hiqildoq) va uning ichidagi konussimon ikkita ovoz pardasining nafas (o'pka, traxeyalar, ko'krak qismi) va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo'ladi. Tomoqda hosil bo'lgan tovush kuchsiz va xishillab, sadolanib chiqadi, uning nutq apparati ayniqsa burun bo'shlig'i orqali tebranishi kuchayadi va o'ziga xos tembr va jarangdorlik xususiyatiga ega bo'ladi. To'rt organ – nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o'zaro faoliyatidagi musiqiy oxangga qo'yiladigan ovoz-ashulachilik ovozi deb ataladi.

1-sinfda o'quvchilarning ovozni zo'riqtirmasdan kuylatish uchun ashula aytishi primar (sol₁-lya₁) bo'ladi, ishchi diapazoni (mi₁-si₁). Umumiy diapazon (re₁-do₂) bo'lib, bunga me'yorida amal qilish lozim.

Bolalar bosh rezanatoriga asoslangan faltsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq attaka bilan boshlash lozim, hech qachon qo'shiqni qattiq attaka bilan boshlamaslik kerak. Buni o'qituvchi nazorat qilib borishi shart.

Sozlanish.

Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o'z ovozini unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish – ma'lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich sinfdagi vokal-xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylashga) erishishdan iboratdir. SHuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish boriladi. Ayniqsa, musiqa o'quvi sust rivojlanayotgan bolalarga e'tibor kuchaytiriladi. Ularni o'qituvchi ovoziga cholg'u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovoziga qo'shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya'ni tenglashishga da'vat etiladi va intonatsion sof sozga erishiladi va bir hil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ansambl

Ansambl – frantsuzcha so'z bo'lib, birgalikda degan ma'noni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura san'atlarining qonuniyatlaridan biridir. Musiqada bir necha ijrochilarning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli, raqs ansambli, vokal ansambli va boshqalar. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm-usul va dinamik uyg'unligi vokal-xor ansambli deyiladi. **Ansambl xususiy va umumiy turlarga bo'linadi.** Xordagi barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib, hamma bir kuyda ansambl bo'lib, ikki yoki uch

ovozda kuylashi **umumiy** ansambl deyiladi. Har bir ovozni alohida-alohida sozi va ansambli **xususiy** ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg'unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo'yilgan sof unisonga erishish mumkin.

Talaffuz

Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag') ning faol hamjihatligi, vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida xorda baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e'tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to'g'ri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o'rgatib borish talab etiladi. Bunda og'iz shaklini, tilni harakatlariga, o'zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo'shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o'rgatib borish lozim.

TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. Musiqa darslarida vokal-xor malaklari qanday ahamiyatga ega?
2. Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
3. Ashulachilik apparatini tuzilishi va bolalar ovozini qanday ehtiyot qilish kerak?

Tayanch tushunchalar:

Vokal – yakka ovozda kuylash

Malaka – odat, ko'nikma.

7-MA'RUZA

MAVZU: VOKAL VA XOR ISHLARINI O'RGANISH METODIKASI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabda musiqa darsining roli 2. Musiqa o'qitishning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-metodik ta'minoti va tashkiliy jihatlari. 3. O'rta va boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini rejalashtirish. 4. Musiqa darslarida vokal-xor mashqlari ustida ishlash. 5. Maktablarda musiqa darsining milliylik va zamonaviyliligiga ahamiyat berish. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish	
Pedagogik vazifalar:		O'quv faoliyati natijalari:

<ul style="list-style-type: none"> - Maktabda musiqa darsining roli haqida ma'lumot berish - Musiqa o'qitishning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-metodik ta'minoti va tashkiliy jihatlarini bilan tanishtirish - O'rta va boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini rejalashtirish xaqida tushuncha berish - Musiqa darslarida vokal-xor mashqlari ustida ishlashni o'rgatish - Maktablarda musiqa darsining milliyligi va zamonaviyliligiga ahamiyat berish. 		<ul style="list-style-type: none"> - Maktabda musiqa darsining roli haqida ma'lumotga ega bo'lish - Musiqa o'qitishning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-metodik ta'minoti va tashkiliy jihatlarini bilan tanishish - O'rta va boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini rejalashtirish xaqida tushunchaga ega bo'lish - Musiqa darslarida vokal-xor mashqlari ustida ishlashni o'rgatish - Maktablarda musiqa darsining milliyligi va zamonaviyliligiga ahamiyat berish. 	
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob		
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy		
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya		
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona		
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test		

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga

	tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga davlat ta'lim standartini joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda hududiy vohalarni san'ati va madaniyati, u yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. SHuningdek, ta'lim standarti o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra, davlat, xudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida darsliklar metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yiladi. YAngi dastur asosida musiqa madaniyati darslarini sifatli, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o'qituvchi, ijodkor, o'z kasbini va o'quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg'uchi, metodikani puxta o'zlashtirgan inson bo'lishi kerak. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib topishida, fortepiano asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'u asboblardan ham foydalana olishi zarur.

SHuningdek, o'zbek xalq musiqa merosimizni tarixi va hozirgi kun talablarini kuzatib o'rganib borishi shart. CHunki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda «Musiqa madaniyatini» tarkib toptirishdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ham foydalanishi kerak. Musiqa darsida musiqa faoliyatlarini oddiydan – murakkabga o'tish printsipi asosida o'zaro mantiqiy bir butunlikka erishish va o'qitishning rivojlanuvchi, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish zarur.

Umumiy ta'lim maktablarida jumladan, boshlang'ich (I-IV) sinf musiqa fani bo'yicha, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. CHunki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi poydevori quyiladi va shakllanadi.

1. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatini (musiqiy o'quvi, ritmi tuyg'usi, diqqati, xotirasi, nutqi) o'stirish.
2. O'quvchilarni milliy musiqamizga, ona Vatanga, tabiatga muhabbat, go'zallikni his etish tuyg'usini tarbiyalash.
3. O'quvchilarni mehnatga, o'qishga, hayotga o'z-o'zini va atrofidigilarni hurmat qilish, o'z galar mehnatini qadrlashga o'rgatish.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har bir darsga ijodiy yondoshib, yangi dastur talablariga muvofiq dars o'tish lozim. Musiqa fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxminiy – mavzuli ish rejasi va shunga qarab, har bir dars uchun reja-konspekt tuziladi. YArim yillik ish rejasi

boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida-alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarni yoshi (sinfi), ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar, yil, chorak, dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Ba'zi qo'shiqlarni, tinglash uchun asarlarni, o'qituvchi o'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirishi mumkin. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda:

I chorak 9 s

II chorak 7 s

III chorak 10 s

IV chorak 8 s

Jami bir yilda 35 soat dars o'tiladi.

SHuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash jarayonida 12-14 asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlari sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va ayrim hollarda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'riladi.

Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozlik elementi bor qo'shiqlar kiritilgan. III – IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'lib, ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. SHunga ko'ra oddiydan murakkabga printsipli asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqa xarakteriga mos harakatlar bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblardan jo'r bo'lish

O'rta (V-VII) sinflarda esa, dars faoliyati bir muncha kamayadi. CHunki, o'rta sinf o'quvchilari ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib, o'quvchilar bilim va malakalarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan musiqiy qobiliyatlari rivojlangan, musiqaning tuzilishi, shakli musiqa ifoda vositalari xaqida bilimga ega bo'ladilar va musiqa tinglash qobiliyati rivojlangan bo'ladi. O'rta sinfdagi o'quvchilar uchun V-VII sinf musiqa dasturi asosida darslar rejalashtirib, ikki ovozli, ovoz mashqlari, ikki ovozli qo'shiqlar, musiqa savodi va musiqa tinglashdan, shunga qarab murakkabroq asarlar tinglanadi. Har bir faoliyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, dars mazmunini, ya'ni bir butunlikni ta'minlaydi. CHorak mavzulari, yil mavzulariga bo'ysunadi. Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarni bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirish, bahsga tortish va amaliy faoliyatiga ko'proq jalb etish va odilona baholash lozim bo'ladi. SHunday qilib, musiqa darslari, yangi dastur asosida rejalashtirilib, o'quvchilarni milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otishi lozim.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Maktablarda musiqa fanini o'rganishdan maqsad nimada?
2. Musiqa darsini rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berilishi kerak?
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini musiqa darsidagi mohiyati nimalan iborat?
4. Musiqa madaniyati darslarida qanday musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish lozim?
5. Musiqa darslarini ilmiyligi va zamonaviyligi deganda nima nazarda tutiladi?

Tavanch tushunchalar:

«Diapazon» - ashulachilar ovozining kengligi.

«Ton» - aniq balandlikka ega bo'lgan tovush.

8-MA'RUZA

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 2-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi. 2. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishni vazifalari. 3. YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqaning ahamiyati. 4. Musiqa madaniyati darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari	
Pedagogik vazifalar: - Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi haqida ma'lumot berish - Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishni vazifalari bilan tanishtirish - YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqaning ahamiyati xaqida tushuncha berish - Musiqa madaniyati darslariga qo'yilgan zamonaviy talablarni tushuntirish		O'quv faoliyati natijalari: - Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi haqida ma'lumotga ega bo'lish - Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishni vazifalari bilan tanishish - YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqaning ahamiyati xaqida tushunchaga ega bo'lish - Musiqa madaniyati darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar xaqida tushunchaga ega bo'lish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.

	baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi.	
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiq)	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezentsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiq)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

YOsh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori, nafas tarbiyasining, tarkibiy qismi bo'lgan, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o'zlashtirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o'ylaytiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nosir Al-Farobiy aytganidek, «Bu fan tana sog'lig'i uchun foydalidir». Bobomiz SHayx Sa'diy «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir»- degan edi. SHunday ekan, biz musiqa o'qitishni, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlashimiz lozim. CHunki, boshlang'ich sinfda maktabda musiqa ta'limotini poydevori qo'yiladi.

Boshlang'ich maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarga musiqa san'ati go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang'ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta'limning ahloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Darsdan tashqari tashkil qilinadigan turli tadbirlar, tarbiyaviy soatlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarini, dunyoqarashini shakllantirishda ahamiyati katta.

Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi:

10. O'quvchilarda musiqaga ihlos uyg'otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini ritm tuyg'usini o'stirish, musiqiy o'quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish;

11. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash;

12. O'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.

O'quvchilarda go'zallikni ko'ra bilish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatini rivojlantirish.

O'quvchilarning musiqiy ijodkorligini taassurotni boyitishda, tasavvurlarini kengaytirishda musiqa tinglash faoliyatini ahamiyati katta. Musiqa tinglash darsining boshidan oxirigacha amalga oshadi, chunki musiqa madaniyati darslarining barcha faoliyat turlari (qo'shiq kuylash, musiqiy ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash) musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Musiqa madaniyati darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrofda go'zal narsalarni idrok eta olishga va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. «Boshlang'ich ta'lim uchun Davlat Ta'lim standartlari» asosida barcha fanlar qatori musiqa fanidan ham dastur ishlab chiqildi. YAngi dastur mazmunida milliy musiqamiz merosidan to'laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo'shiqlari, lapar, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o'z aksini topgan. Dasturning bosh mavzusi «Musiqa va hayotdir» yil, chorak, dars mavzulari, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi. Bu boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisidan ish mazmunini yangilashni talab etadi. YAngi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim, chunki o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirishda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda va ularni ma'naviyatli, ma'rifatli qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi yetakchi bo'lib hisoblanadi. Barchaga ma'lumki, har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darsini olib borolmaydi. Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi bo'lish uchun o'z kasbiga va bolalariga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasining amaliy sohalarida chuqur bilimga ega bo'lmog'i lozim. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa madaniyati darslari bilan birga u sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini ham tashkil etishi va boshqarishi lozim.

Maktabda sinfdan tashqari ochiq tarbiyaviy soatlar o'tkazish, musiqa tarbiyasining ommaviy va to'garak shakllarini olib borishi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidadir. Bunga «Mustaqillik bayrami», «Bilimlar kuni», «O'qituvchilar kuni», «Alifbe bayrami», «YAngi yil», «Navro'z bayrami», bolalar shoirlari, san'atkorlar bilan uchrashuvlar kiradi.

Bugungi mustaqillik sharoitida ta'lim muammolarini hal qilishda boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirish va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning asosiy maqsad va mavzuni nimadan iborat?
2. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasiga qanday vazifalar qo'yilgan?
3. YOsh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa san'ati qanday ahamiyatga ega?

Tayanch tushunchalar

Musiqa – turli tuman tovushlar bilan ovoz yaratib beruvchi, g'oyaviy-emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atni bir turi.

Musiqa etikasi – musiqa san'atining mohiyati, badiiy shakllari va uslublarini o'rganadigan fan.

9 –MA’RUZA
MAVZU: I- SINIF REPERTUARI
Texnologik pasport

Ma’ruzaga ajratilgan vaqt 1-soat		Talabalar soni 30-60
O’quv mashg’ulotlari shakli va turi		Ma’ruza
O’quv mashg’ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. Birinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari. 2. Birinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va vazifalari. 3. Birinchi sinfda musiqa o’qitishning ish mazmuni yil, chorak mavzulari. 4. Birinchi sinfda bolalar cholg’u asboblari jo’r bo’lish. 5. Birinchi sinfda musiqali ritmik xarakterlarni bajarish.	
O’quv mashg’ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o’qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Birinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari haqida ma’lumot berish - Birinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish - Birinchi sinfda musiqa o’qitishning ish mazmuni yil, chorak mavzulari xaqida tushuncha berish - Birinchi sinfda bolalar cholg’u asboblari jo’r bo’lishni o’rgatish - Birinchi sinfda musiqali ritmik xarakterlarni bajarish o’rgatish		O’quv faoliyati natijalari: - Birinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari ma’lumotga ega bo’lish - Birinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va vazifalari bilan tanishish - Birinchi sinfda musiqa o’qitishning ish mazmuni yil, chorak mavzulari xaqida tushunchaga ega bo’lish - Birinchi sinfda bolalar cholg’u asboblari jo’r bo’lishni o’zlashtirish - Birinchi sinfda musiqali ritmik xarakterlarni bajarish ko’bikmalarini o’rganish
Ta’lim metodlari	Ma’ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta’limni tashkil etish shakli	Ma’ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma’ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta’limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O’qituvchi	Talaba

<p>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)</p>	<p>1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi.</p>	<p>1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)</p>	<p>1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)</p>	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xar tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa inson xis-tuyg'ularini orzu-istaklarini o'ziga xos badiy tilda ifoda etadi va hissiyotlarni faol ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar musiqa san'ati bilan bolalar bog'chalarida oilada, radio va televideniedan beriladigan ko'rsatuvlar orqali tanish bo'ladilar. Musiqa madaniyati darslarida quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash, kuylash, raqs elementlarini bajarish, chapak chalish hamda bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish musiqaga ishtiyoqlarini yanada tez oshirib boradi. Chunki bu yoshdagi bolalarda hali diqqat – e'tibor uncha to'liq bo'lmaydi, ular ko'proq serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar.

SHuningdek birinchi sinf o'quvchilari psixologik – fiziologik xarakterga ko'ra, ma'lum darajada xotirasi, nutqi diqqati – e'tibori, ovoz apparatlari to'liq rivojlanmagan, ovoz pardalari nozik kuchsiz bo'ladi. SHunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishda, butun dars davomida ularni kayfiyatini saqlashda, o'qituvchi ochiq samimiy, shirin muomalasi va yoqimli xatti – xarakatlari bilan erishishi lozim. Birinchi darsdan boshlab o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish yo'li bilan, ularni musiqaviy o'quvlari, qobiliyatlarini kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib olishi va yuqoridagi sifatlariga ko'ra, ularni uch differentsional guruhga bo'lish lozim.

I – guruhga – iqtidorli musiqiy o'quvi yaxshi rivojlangan bolalar;

II – guruhga – musiqani aniq eshita oladigan, ammo sozga o'qituvchi ovozigga tayangan, holda tushadigan bolalar;

III guruhga – sozga umuman tusha olmaydigan bolalar kiritiladi.

Bundan musiqa madaniyati darslarida o'qituvchi o'quvchilarni quydagicha utkazish lozim.

Birinchi guruh bolalarni orqa qatorga, Ikkinchi guruh bolalarni oldingi qatorga, uchinchi guruh bolalarni esa o'rta qatorga o'tkazish tavsiya etiladi. Natijada dars davomida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalarning musiqiy o'quvi o'sadi va shakllanadi. Darsda o'quvchilarni qiziqishini o'stirish uchun, ularni har bir yutug'i uchun rag'batlantirish hamda, ilg'or bolalar bilan teng darajada musiqiy faolligini ko'rsata olishga ishonch hosil qildirish lozim. Musiqiy o'quvi sust bo'lgan o'quvchilar bilan darsdan keyin yakka tartibda ishlash ham tavsiya etiladi. Musiqa darsdagi faoliyat turlari tez-tez almashib turishi, o'quvchilari zerikmaslik, toliqmaslikni shu bilan birga musiqa darsiga qiziqishni oshiradi.

Birinchi sinfda musiqa o'qitishni asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish va musiqiy taassurotni tarkib toptirish, musiqani san'at sifatida ongli idrok etish. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
2. Musiqani (tinglash) idrok etish malakasini o'stirish.
3. Kuylash malakalarni o'stirish.
4. Musiqiy badiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik tarbiyalash.

Ma'lumki, musiqa – hayot va davr aksidir. SHuning uchun ham boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini dasturining bosh mavzusi «Musiqa va hayot»dir. SHuning uchun ham boshlang'ich sinfda musiqa madaniyati darslari, bolalarning hayotiy tajribalariga tayangan holda, olib borish, badiy ta'lim beruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Zeroki, dasturda kuylash va tinglash uchun tavsiya etiladigan qo'shiqlar va musiqiy asarlar, baxtli bolalaik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, tabiatga muhabbat haqida asarlardan iboratdir. Musiqa ijodkorlari – «kompozitor» – «ijrochi» – «tinglovchi» haqida umumiy tushunchalar bilan tanishadilar.

Birinchi sinfda bolalar musiqasining xarakteri obrazlari orqali olgan bilimlari nisbiy bo'lib, keyingi sinflarda aniq (absolyut) tushunchalarga aylanadi. SHuningdek, birinchi sinfda o'quv yili boshida ilk bor olingan bilimlar notagacha bo'lgan davr deb ataladi.

Musiqiy faoliyatlarning birinchi turlariga doir vazifalar, ish mazmunini tashkil etadi. Mazkur faoliyatlar ashula aytish, musiqa tinglash, musiqa savodi, raqs elementlarini bajarish musiqali o'yinlar, qadam tashlash musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi sinfda xor bo'lib qo'shiq kuylash – jamoa faoliyati sifatida o'quvchilarni bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Qo'shiq kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bundan bosh miyadagi nerv xujayralari faol qatnashadi, o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularini faolligini ta'minlaydi, ko'krak qismi tovush hosil qiluvchi a'zolari artikulyatsiya va nafas organlarini faollashtiradi hamda o'quvchilarning samarali ishlashga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda qo'shiq o'rgatish uchun avval shu qo'shiq tinglanadi so'ng **qo'shiq o'rgatish metodi** asosida o'rgatiladi:

1. Qo'shiq haqida o'qituvchining qisqacha kirish so'zi (qo'shiq mualliflari haqida, asarning tarixiy yoki tarbiyaviy ahamiyati xaqida, qisqa hikoya qilish, shu asarga doir qiziqarli hayotiy suhbat o'tkazish va rasm ko'rsatish).
2. Qo'shiqni o'qituvchi tomonidan to'liq ijro etib berilishi.
3. Qo'shiqni musiqiy xarakteri, uning ifoda vositalari, shakli, janrini o'quvchilar bilan birgalikda aniqlash.

4. Qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish.
5. Qo'shiqni ijro sifatлари ustida ishlash (nafas, sof intonatsiya, talaffuz, dinamik belgilar asosida ifodali kuylash).
6. Taassurotlari yuzasidan qisqacha suhbat o'tkazish (savol - javob) ko'rgazmali materiallar asosida.

Bunga misol qilib, darslikdagi quyidagi asarlarni aytishimiz mumkin: «Buvijonim» D.Omonullaeva musiqasi, N.Ro'zimuxammedov she'ri, «Baxtiy erkato'y» T.Toshmatov musiqasi, T.IIhomov she'ri, «Diloromning qo'shig'i» D.Omonullaeva musiqasi, H.Muxammad she'ri.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni ovoz diapazonini aniqlash va kengaytirishga alohida e'tibor berish lozim. Birinchi sinfdan o'quvchilarni ovoz diapazoni ($DO_1 - LYA_1$), keyinchalik esa, ularni ovoz diapazoni kegayib o'quv yili oxirlarila ($DO_1 - DO_2$)gacha ham bo'lishi mumkin. Qo'shiqlarni o'quvchilarga musiqiy qobiliyatları, musiqiy o'quvi, xotirasiga, talaffuziga ahamiyat beriladi.

Qo'shiqlarning differtsional guruhlarga bo'lib o'rgatish dars samaradorligini oshiradi. Musiqiy o'quv bo'sh bo'lgan o'quvchilarni qiziqish va musiqiy qobiliyatini yanada o'stirish uchun o'qituvchilarni uch guruhga bo'lib o'tkazish lozim.

Musiqiy o'quv bo'sh bo'lgan bolalar har tomonidan jarangdor ovozlarni eshitib, ularga taqlid qilib chiroyli, sof intonatsiyada kuylashga harakat qiladilar. Bu yoshdagi o'quvchilarni ovozi o'zlariga xos juda mayin va yoqimli tembrga ega bo'ladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasini so'z o'rtasida olmaslik uchun rejaga solish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, sof intonatsiya ustida muntazam ish olib borish lozim. Bolalar ovozini parvarish qilish tavsiya etiladi. Ovoz sozlashni primar tovushlardan (mi_1, fa_1, sol_1) boshlab, yelkani ko'tarmasdan nafas olishga ahamiyat berish, qo'shiq kuylash samaradorligini oshiradi.

Musiqqa tinglash – darsning boshidan oxirigacha amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Agar bolalar sinfga musiqqa sadolari ostida kirsalar, demak ular musiqani idrok etib kiradilar. Qo'shiq aytsalar, uni avval eshitib idrok etib, so'ng o'rganib kuylaydilar. Raqsga tushganda ham musiqani tinglab uning badiiy ifodasini raqs harakatlari bilan tasvirlaydilar. Musiqqa tinglashga doir asarlar shakl va janr jihatidan xilma-xil bo'lmog'i lozim. Aynan musiqqa tinglash vositasida bolalar turli o'zbek xalq cholg'u sozlari, o'zbek xalq musiqasidan namunalar («CHertmak», «Dutor bayoti», «Alla», «Dilhiroj») kabi asarlar bilan bolalar kompozitorlari va bastakorlar hayoti va ijodi, milliy musiqamiz an'analari kuy va qo'shiqlar bilan tanishadilar.

Dars mazmuni bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmali qurollar, musiqqa obrazlarini ifodalovchi badiiy suratlar, plakatlar texnika vositalari, didaktik o'yinlardan foydalanish lozim.

Musiqiy o'quv bo'sh bo'lgan bolalar xar tomondan jarangdor ovozlarni eshitib ularga taqlid qilib, chiroyli, sof intonatsiyada kuylashga xarakat qiladilar. Bu yoshdagi o'quvchilarni ovozi o'zlariga xos juda mayin va yoqimli tembrga ega bo'ladi. O'tirib va turib kuylaganda gavdani to'g'ri tutish, nafasni so'z o'rtasida olmaslik uchun rejaga solish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, sof intonatsiya ustida muntazam ish olib borish lozim. Bolalar ovozini parvarish qilish tavsiya etiladi. Ovoz sozlashni primar tovushlardan (mi_1, fa_1, sol_1) boshlab, yelkani ko'tarmasdan nafas olishga ahamiyat berish, qo'shiq kuylash samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z diqqat-e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib turolmaydilar, juda tez charchab qoladilar. SHuning uchun ham musiqqa madaniyati darslarida musiqiy ijroga ahamiyat berib borish, chapak chalish, qadam tashlash kabi xilma-xil xarakatlardan foydalanish zarur.

Ayniqsa bolalar musiqiy cholg'u asboblari (doira, bubencha, shiqildoq, marakassa, uch burchak, rumba, baraban)da jo'r bo'lish va ritmik raqs xarakatlarini bajarish, bolalarni faollashtiradi va dars qiziqarli, mazmunli o'tadi.

Kuylar oxangni o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rmashib qolishi uchun, ular bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. SHuni esdan chiqarmaslik kerak, musiqiy asarlarni yaxshi esda qolishi uchun kamida 2-3 marta eshittirish har gal kuyning yangi qirralari bilan tanishtirib boriladi, musiqqa tinglashni esa sodda so'zli asarlardan boshlab asta-sekin murakkablashtirib borish lozim. Darsning xar beshta faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq xolda darsning mazmunini bir-butun bo'lishini ta'minlash lozim. Darsning chorak yil mavzulari bir-biri bilan izchil bog'lanib bir-birini to'ldirish kerak

Birinchi sinfda yil mavzusi:

«Biz musiqani sevamiz»

I-chorak: Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar.

II-chorak: Musiqali o'yinlar, raqs va qo'shiqlar.

III-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz.

VI-chorak: Xushnavo cholg'ularimiz.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Birinchi sinf o'quvchilari qanday psixologik - fiziologik xarakterga ega bo'ladilar?
2. Birinchi sinfda musiqa o'qitishining maqsad va vazifalari?
3. Birinchi sinfda qo'shiq o'rgatish metodlari?
4. Birinchi sinfda musiqa tinglashning o'ziga xos xususiyatlari?
5. Birinchi sinfda yil chorak mavzularini aytib bering?

Tayanch tushunchalari:

«Diapazon» - ashulachilar ovozi kengligi.

«Ton» - aniq balandlikka ega bo'lgan tovush.

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 1-soat		Talabalar soni
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari. Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi. Ikkinchi sinfda vokal-xor ishlarini mohiyati. Ikkinchi sinfda musiqa savodi va uning ahamiyati.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumot berish - Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi bilan tanishtirish - Ikkinchi sinfda vokal-xor ishlarini mohiyati xaqida tushuncha berish - Ikkinchi sinfda musiqa savodi va uning ahamiyatini o'rgatish		O'quv faoliyati natijalari: - Ikkinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish - Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi i bilan tanishish - Ikkinchi sinfda vokal-xor ishlarini mohiyati xaqida tushunchaga ega bo'lish - Ikkinchi sinfda musiqa savodi va uning ahamiyatini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha

	<p>4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi.</p> <p>5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>6. mashg'ulotni yakunlaydi.</p>	<p>o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar.</p> <p>7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)</p>	<p>1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.</p> <p>3. Prezentatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi.</p> <p>4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.</p> <p>5. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi.</p> <p>6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi.</p> <p>7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar.</p> <p>2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentatsiya bilan tanishadilar.</p> <p>3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar.</p> <p>4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.</p> <p>5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)</p>	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash.</p> <p>2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.</p> <p>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar.</p> <p>2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar.</p> <p>3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar.</p> <p>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Ikkinchi sinf o'quvchilarining psxologik – fiziologik xarakterga ko'ra, 1-sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Ularning diqqat e'tibori hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilar diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga tez-tez almashib turadi. CHunki, ular o'yin bilan narsalarga ko'proq moyildirlar. SHu nuqtai nazardan musiqa madaniyati darslarida dars faoliyatlarini tez-tez almashtirib turish ularni musiqaga qiziqtirib turish dars unumining garovi hisoblanadi.

Ovoz apparatlarini nozikligi, mo'rtligi, ovoz pardalarining to'la shakllanganligi sababli ovozlari faltet tizimida yangraydi. O'z diapazoni (DO₁ – RE₂)gacha bo'ladi. Birinchi sinfda olingan bilim va malakalari ikkinchi sinfda chuqurlashib, takomillashib konkretlashadi. Masalan: birinchi sinfda o'quvchilar marsh musiqalarini jadal shaxdam tantanavor xarakterini musiqa ohangiga mos qadam tashlash bilan ajralsalar, ikkinchi sinfda esa bu musiqalarni janr ekanligi, ularni turlari (sport, bayram, xarbiy) xaqida konkret bilimga ega bo'ladilar. SHu tarzda qo'shiq va raqs janri ham o'rganiladi. Ikkinchi sinfda vokal – xor ishlari, birinchi sinfda olingan bilim va malakalarini mustahkamlash va qo'shiq kuylashdagi nuqsonlarni tuzatib borishdan iboratdir. Birinchi sinfda xor bo'lib ashula aytishga doir bo'lgan bilimlarni, ikkinchi sinfda yanada shakllantirish lozim. Fiziologik o'sish munosabati bilan ovoz kuchi, diapazoni, tembri o'zgarib boradi, ma'lum tizim asosida avaylab tarbiyalash ikki ovozlikda kuylash uslubini shakllantiradi.

Ikki ovozlilikni xosil etishda bolalarni mayin ovozda kuylashi lozim, aks xolda ikkinchi ovoz eshitilmay qoladi. O'qituvchi darsda bolalarga qo'shiq o'rgatishda bolalar ovozini o'ziga xos hususiyatlarini puxta bilishi lozim. O'quvchilarni mutassil qo'l xarakterlariga o'rgatib borishi «Diqqat», «Auf», «Ijroni boshlash», «Ijroni tugatish» kabi dirijyorlik ishoralariga amal qilgan holda o'quvchilarni kuylashga tayyorlash lozim.

Ikkinchi sinfda ham o'quvchilar sevgan kuy va qo'shiqlar doirasini kengaytirish lozim. O'quvchilarni hayotiy tajribalariga, birinchi sinfda olgan bilimlariga tayanib, musiqa asarlari tanlash lozim. Ularni milliy musiqamizni idrok etish, mumtoz musiqa namunalari bilan o'zbek xalq musiqasi namunalari, o'zbek xalq cholg'u sozlari bilan musiqa tinglash va qo'shiq kuylash orqali tanishtirib borish lozim. Bu o'quvchilarimizni o'z tarixini bilishga, fanlar aro aloqa, o'z Vatanini sevishtirishga, milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfda vokal-xor ishlariga e'tibor kuchayadi, o'quvchilar ovozigina va cholg'uga tayanib jo'r bo'lib, musiqali ritmik xarakterlar bajaradilar.

Bunga «Paxtaoy» F.Nazarov, T.Ilxom she'ri, «Kichkintoyimiz - gijingtoymiz» P.Mo'min she'ri, K.Kenjaev musiqasi, «YAngi yilim – yaxshi yilim» P.Mo'min she'ri, D.Zokirov musiqasi «ildiragim» SH.YOrmatov musiqasi, T.Baxromov she'ri kabi qo'shiqlar, «CHamanda gul» O'zbek xalq kuylari misol bo'la oladi.

Musiqa idrokining asosiy vositasi musiqa nutqidir. Musiqa ifoda vositalari: kuy, lad, ritm, registr, temr, tembr, dinamik belgilar kabilar musiqa savodiga kiradi. Ularni xis etmasdan turib musiqa asarlarini sanat sifatida badiiy va g'oyaviy jihatdan ongli ravishda to'liq idrok etish qiyin.

O'quvchilar shuningdek o'lchov, takt, takt chizig'i, notalarni joylanishi, pauzalar, kuchli va kuchsiz hissalar, janrlar haqida bilimlarga ega bo'lishlari, kuy-qo'shiqlarni ongli ravishda o'zlashtirishga musiqiy savodidan quyidagi bilim va malakalar shakllanib, amalda bajarilishi lozim:

1. kuylarni ritmik sxemalarini bo'g'inli so'zlar bilan kuylash (Iya, du, da, mo, mi)
2. kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash va ularni his etib kuylash
3. chapak va cholg'u asboblarida chalib kuyga ritmik jo'r bo'lish
4. marsh va raqs xarakterini harakatlarda ifodalash
5. lad haqida bilimlarni mustahkamlash mumkin.

Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarida yetakchi faoliyat hisoblanadi. Zero, darsda qo'llanadigan barcha musiqa materiallari, asosan, musiqa tinglash orqali amalga oshiriladi,

Ikkinchi sinfda bu bilimlar chuqurlashib takomillashadi. Musiqadan ozuqa olish uchun o'quvchilar musiqiy obrazlarni anglashlari, his etishlari va taasavvur etishlari lozim. SHunday ekan, o'qituvchi ikkinchi sinfda o'quvchilarni musiqa tinglash jarayonida ishonchli dalillar: ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari, test kartochkalari, didaktik o'yinlar, noan'anaviy darslar yordamida o'tishni talab etiladi. Musiqaning tabiati, undagi kayfiyat, obraz xarakterini ifodalashda lad hissini o'stirishni ahamiyati katta. Bunga: «Alla», «YAllama-yorim», «O'zbek xalq kuyi», «Andijon polkasi», «Gulxan» D.Zokirov qayta ishlagan, «Bahor vals» M.Mirzaev musiqasi misol bo'la oladi. Har bir darsda asar xakteri, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda ko'proq bolalarga mustaqil fikr yuritish uchun imkoniyat berish lozim. SHu tarzda tinglanadigan va kuylanadigan qo'shiqlar dars davomida oddiy tahlil etilib o'rgatiladi. O'rgatiladigan kuy va qo'shiqlar unutilmaslik uchun, uyga vazifa berib, rasmlar solib kelish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash orqali mustahkamlash kerak. Musiqa madaniyati darslari beshta faoliyat asosida olib boriladi. Dars mavzulari bir-biri bilan uzviylik, ilmiylik, sistemaliylik tamoyillari yordamida bog'lanadi.

Ikkinchi sinfda yil mavzusi:

«Musiqa nimani ifodalaydi va tasvirlaydi».

I-chorak: «YAkkanavozlik, jo'mavzlik, jo'rsozlik»

II-chorak: «YAkkanavozlik va yakkaxonlik cholg'u va xonandalar dasturi»

III-chorak: «Kuy nima?» Kuyda nima ifodalaydi?

IV-chorak: «Musiqani ifoda vositalari»

O'qituvchi dars rejasini ushbu mavzular asosida tuzib, ularni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish zarur.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Ikkinchi sinf o'quvchilari qanday psixologik va fiziologik xarakterga ega bo'ladilar?

2. Ikkinchi sinfda musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ikkinchi sinfda qo'shiq o'rgatishni o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering?
4. Ikkinchi sinfda yil chorak mavzularini izohlab bering?

Tayanch tushunchalar:

Musiqa nazariyasi – musiqa taxlili, ijrochiligini o'rgatuvchi fan.

Musiqa tarixi – Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.

Vokal-xor mashg'uloti – yakka holda ansabl va xor bilan jamoa bo'lib ashula aytish.

10-MA'RUZA

MAVZU III-SINF REPERTUARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 1-soat		Talabalar soni
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Uchinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi. Uchinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari. Musiqa darslarida ko'rgazmali qurollar tayyorlash va uning metodik ahamiyati. Uchinchi sinfda yil chorak dars mavzulari va ularni o'quvchilar yoshi va qiziqishiga mosligi.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Uchinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi haqida ma'lumot berish - Vokal Uchinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan tanishtirish - Musiqa darslarida ko'rgazmali qurollar tayyorlash va uning metodik ahamiyati haqida tushuncha berish - Uchinchi sinfda yil chorak dars mavzulari va ularni o'quvchilar yoshi va qiziqishiga mosligini o'rgatish		O'quv faoliyati natijalari: - Uchinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi haqida ma'lumotga ega bo'lish - Uchinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan tanishish - Musiqa darslarida ko'rgazmali qurollar tayyorlash va uning metodik ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lish - Uchinchi sinfda yil chorak dars mavzulari va ularni o'quvchilar yoshi va qiziqishiga mosligini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba

vaqti		
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra 1-2-sinflardan ancha farq qiladi. Ularning diqqat e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalariga, musiqa haqida bilimga ega bo'ladilar. Uchinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni $do^1 - mi^2$. SHunga qaramasdan, darsning har bir elementi tajribalarga asoslanib tushuntirish lozim. Uchinchi sinf dars rejasini tuzganda ayniqsa, ijodiy yondashish, uning strukturasi mantiqan bog'lab turish, asarlar tartibini sinf imkoniyatiga muvofiq belgilash, bolalarni musiqaga qiziqish uyg'otib, badiiy emotsional kechinmalarni vujudga keltirish, ularni ovoz diapazoniga moslab reja tuzish kerak. O'quvchilarni o'quv jarayonida musiqaning hayotiyliigi, soddadan murakkabga qarab uzluksiz rivojlanishi, musiqaning nazariyasi va janrlari, tuzilishi va

mohiyati, boshqa san'at turlari bilan aloqasi xaqida bilimga ega bo'ladilar. Musiqa savodidan notaga qarab kuylash qobiliyatlari ongli ravishda rivojlanadi. O'qituvchini qo'l harakatiga qarab va ularni qo'llarini harakatga keltirib turli mashqlar va qo'shiqlarni kuylay oladilar. Bu o'rganilayotgan musiqiy asarlarning janrlarini aniqlashda, sof intonatsiyada to'g'ri kuylashga va qo'shiq mazmunini ifodali qilib, badiiy jihatdan to'g'ri ijro etishda muhim rol o'ynaydi. Bunga misol qilib, kompozitor F.Nazarov va shoir P.Mo'minning «Qish chog'lari» qo'shig'i, kompozitor SH. YOrmatov va shoira Zulfiyaning «Qor» qo'shig'i, kompozitor N.Norxo'jaev va shoir P.Mo'minning «Salom bergan bolalar», «Gul terdi gullar» kabi asarlarini keltirishimiz mumkin.

Uchinchi sinf o'quvchilari nafasni to'g'ri olib, jumlaning oxirigacha yetkazishga asta-sekin o'rganib borishlari kerak. Ikki ovozli asarlarning eng oddiysini kuylay oladigan bo'lishlari kerak. Ikki ovozli kuylashga erishish uchun avvalo sof intonatsiyaga erishish kerak, bunga ovoz sozlash jarayonida erishiladi. Oldin tertsiya kengligida ikki ovozli mashqlarni kuylash, so'ngra bir ikki takt kanon shaklida mashqlar kuylash orqali o'quvchilarni musiqiy o'quvini rivojlanib, eshitish qobiliyati o'sib boradi. Asta-sekin ikki ovozli asarlarni kuylash o'quvchilarni qiziqishini oshirib boradi. Kompozitor S.Bobojev va shoir P. Mo'minni «Dastyor qiz» qo'shig'i, kompozitor N.Norxo'jaev va shoir P.Mo'minni «Oltin paxtam-oppog'im», «Keng Turkiston» kabi qo'shiqlari misol bo'la oladi.

O'quvchilarni musiqa haqidagi bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi. Har bir darsda asar xarakteri, mazmuni va ifoda vositalarini aniqlashda bolalarga mustaqil fikr bayon etish uchun imkoniyat bermoq lozim. Jumladan, «YOmg'irjon» asarida (D.Omonullaev musiqasi) tembr, dinamika, o'lchov, kontrast asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Kompozitor SH.YOrmatovning «ildiragim», kompozitor A.Mansurovning «Qo'zichog'im-o'yinchoq», kompozitor T.Azimovning «Durдона» asarlarida kuy va jumalarni o'zgartirmay takrorlanishi «rondo» ekanligini o'quvchilar tezda anglab oladilar. Endi musiqaning rivojlanishidagi kuyning qaytarilishida uning o'zgarishi, o'zgaranda ham yangi xarakter kasb etib, o'ynoqi va murakkab ritm va chaqqon temp etilishi – kontrast deyiladi. Kontrastga misol qilib kompozitor F. Nazarovning «Qo'shiq va raqs», o'zbek xalq kuyi «Paxta raqsi», kompozitor A.Mansurovning «CHumoli va Nor», kompozitor S.Abramovanning «Buvijonim kelyapti» asarlarini keltirishimiz mumkin. Asarni 2-3 dars davomida tinglagach, hayotdagi voqelikni, murakkab voqelikni, musiqiy ohanglarni tasvirlab olishini ko'ramiz. SHu bilan birga 3-sinf o'quvchilari musiqiy ritmik harakatlarni aniq bajara olishlari, kuylayotgan qo'shiqlarini jozibali, quvnoq, yoqimli, sof intonatsiyada kuylashga harakat qilishlari lozim. SHuningdek, bolalar cholg'u asboblarida aniq, ravon, o'z vaqtida jo'r bo'lishlari lozim. 3-sinfda ham barcha boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan metodlardan: ko'rgazmali, amaliy, og'zaki, taqqoslash va musiqa o'qitishning optimal metodlaridan foydalaniladi.

O'qituvchi musiqa madaniyati darslarida ijrosidan tashqari gramplastinka yozuvidan, magnit tasmalaridagi yozuvlardan foydalanib, bolalar xori, professional san'atkorlar cholg'u asboblarida ijro etgan musiqiy asarlar, xalq qo'shiq va kuylarini tinglab idrok etish bilan o'quvchilarni sehrli musiqa olamiga olib kirish, badiiy didni, qiziqishni rivojlantirish mumkin.

III-sinfda yil mavzusi:

«Musiqada shakl va mazmun»

I-chorak: Musiqa ifoda vositalari

II-chorak: Xor va orkestr

III-chorak: Musiqaning tuzilishi.

IV-chorak: Oddiy musiqa shakllari. Band va naqorat.

SHuningdek, musiqa darslari yil chorak mavzulari asosida rejalashtirilib besh faoliyat asosida o'tildi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Uchinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi.
2. Uchinchi sinf musiqa darslarida qandiy metodlardan foydalaniladi?
3. Uchinchi sinf o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari.
4. Uchinchi sinfda yil chorak mavzulari va ularning musiqa darsidagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar:

«Xor» - jamoa bo'lib qo'shiq kuylash.

«Janr» - musiqaning turi.

10-MA'RUZA MAVZU: IV-SINF REPERTUARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 1-soat	Talabalar soni
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari. 2. To'rtinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va mazmuni. 3. To'rtinchi sinfda musiqa dars mavzularini o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga mosligi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish
Pedagogik vazifalar: - To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumot berish - To'rtinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va mazmuni bilan tanishtirish - To'rtinchi sinfda musiqa dars mavzularini o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga mosligi xaqida tushuncha berish	O'quv faoliyati natijalari: - To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish - To'rtinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va mazmuni bilan tanishish - To'rtinchi sinfda musiqa dars mavzularini o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga mosligi xaqida tushunchaga ega bo'lish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.

	4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.
--	---	--

Ma'ruza matni

To'rtinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo'ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nihoyatda o'ylab oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi lozim. Bundan maqsad bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san'atiga qiziqishidan iboratdir. 4-sinf o'quvchilarining vokal-xor malakalari bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. CHunki, ba'zi boshlang'ich sinflarda musiqa fanidan mutaxassislar dars berishmaydi. Mutaxassis ish olib borgan joyda esa o'quvchilar sof unisonda kuylash, ansambl va qo'shiqlarni me'yoriga yetkazib, ikki ovozda kuylash darajasiga ega bo'ladilar. 4-sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (do¹ – mi²). 4-sinfda ham o'qituvchilarni differentsial guruhlarga bo'lib o'tkazish lozim bo'ladi. CHunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtoy, kulminatsion rivojlangan davri hisoblanadi. SHuning uchun, darsda ko'proq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, kompozitor N.Norxo'jaev va shoir P.Mo'minni «YAxshi bola», «Oq paxta terdik», kompozitor SH.YOrmatov va shoir S.Barnoevni «Sog'lom avlod qo'shig'i», kompozitor M.Nasimov va shoir YA.Qurbonovni «Bizdan sizga kim kerak?» qo'shig'ini keltirishimiz mumkin.

Kalendar-mavzuli reja tuzganda yuqorida aytilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda chorak, yil mavzulari hisobga olinib, reja tuziladi. O'qitish davomida quyidagi bosqichlarga e'tibor berish kerak.

Birinchi: fanlararo aloqa metodi. Boshqa fanlardan olingan bilim va malakalardan foydalanish.

Masalan: ona tili va adabiyot, tasviriy san'at, O'zbekiston tarixi, tabiatshunos, matematika va boshqalar.

Ikkinchi: o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini o'stirish; sof unisonga erishish, jumla boshida nafas olib, jumla oxirigacha rejalab yetkazish, lad haqida ma'lumot, o'lchovlarni bilish, notalarga qarab kuylay olish.

Uchinchi: musiqa savodiga qiziqitira olish; musiqa savodining eng muhim ahamiyati - qo'shiqlarni notalar nomlari bilan kuylatish, tinglash uchun berilgan asarlarni tahlil qila olishdir.

Qo'shiq o'rgatishda dirijyorlik uslubida fortepiano cholg'u asbobidan unumli foydalanish lozim. Ovozlarini maromiga tushirib kuylash uchun qo'shiq parchalaridan mashqlar tanlab kuylash lozim. Mashqlarni ma'lum tizimga solib kuylash kerak. 4-sinfda musiqa tinglashni ahamiyati katta, chunki bunda o'quvchilar xalq musiqa ijodi o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari, bastakorlik uslubi, kompozitorlik uslubi namunalari bilan tanishadilar. Musiqa tinglash uchun 4-sinfda o'zbek xalqining ommaviy qo'shiqlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Masalan: «Alla», «Omonyor», «Boychechak», «Dilxiroj», «Tanovor», «Lolacha», «Kovushim», «CHorgoh» va boshqalar.

O'quvchilarda shuningdek, xalq musiqa ijodining ommaviy janrlari, kasbiy musiqa, kompozitor va bastokarlarning musiqalari haqida ma'lumot berish lozim. Xalq musiqasining ommaviy janrlari xalqimiz orasida keng tarqalgan bo'lib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda, bu asarlar mazmunida orombaxsh, yoqimli, mayin allar, pandu-nasihah, ahloq-odob haqida qo'shiqlar, yalla, lapar kiradi. Bularga misol qilib «Olmacha anor», «Oyijon», «Qizgina», «Xey, lola», «Ishga chiqing kelinoyi» kabi asarlarni tinglash mumkin.

4-sinf o'quvchilarini ayniqsa, kompozitorlik va bastakorlik ijodi bilan tanishtirish lozim.

Kompozitorlar – bu musiqa yaratuvchi ijodkor, odatda konservatoriyada maxsus ta'lim olgan inson bo'ladi. Kompozitorlarning asarlari simfoniya, opera, balet, sonata, qo'shiqlar, o'z zamonasiga mos nota yozuvlarida o'z aksini topadi.

Bastakorlar – esa og'zaki an'ana uslubidagi professional musiqa ijodkorlari. Bastakorlar xalq kuylariga tayangan holda yangi asarlar yaratadilar. Muhim tomoni shundaki, bastakorlar o'z asarlarini odatda dastlab, o'z ijodkorlik san'atlari orqali namoyon etadilar, so'ng nota yozuvlarida aks ettiradilar. SHu bois bastakorlar bir vaqtini o'zida yaratuvchi ijodkor ham ijrochi san'atkordirlar.

Xalqimiz orasida eng sevimli bastakorlarga M.Mirzaev, /.Toshmatov, T.Jalilov, Usta Olim Komilov, YU.Rajabiyarlarni aytish mumkin. Taniqli kompozitorlardan M.Ashrafiy, M.Burxonov, F.Nazarov, K.Kenjaev, SH. YOrmatov, N.Norxo'jaev A.Mansurovlarni aytish mumkin.

Musiqaning tinglashda vokal va cholg'u musiqasi xalq ommaviy musiqasini va kasbiy musiqaning tinglab idrok etish nazarda tutiladi.

IV-sinfda yil mavzusi:

«Xalq musiqasi ijodi»

I-chorak: O'zbek xalq musiqasining ommaviy janri.

II-chorak: Xalq ashulalari va ashula yo'lidagi kuylar.

III-chorak: Kompozitorlik uslubi haqida ma'lumot.

IV-chorak: Kompozitorlar ijodida xalq musiqasi namunalari.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. To'rtinchi sinfda o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari.
2. To'rtinchi sinfda musiqaning o'qitishning mazmuni va maqsadi.
3. To'rtinchi sinfda musiqaning darsining chorak, yil mavzusi va ularni musiqaning darsidagi ahamiyati.
4. To'rtinchi sinfda musiqaning darslarini o'ziga xosligi.

Tayanch tushunchalar:

«**Volta**» - bir nota yozuvida musiqaning asarlarining turlicha tugatish uchun qo'yiladigan belgi.

«**Repriza**» - bir musiqiy jumlaning ikki marta takrorlanishi.

«**Sozanda**» - cholg'u asbobida ijro qiluvchi cholg'u uchi.

**AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.
5-SEMESTR**

No	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Musiqaning o'qitishning nazariy asoslari	2
2	Musiqaning o'qitish nazariyasi va musiqaning o'qituvchisi	2
3	Umumiy musiqiy ta'limning maqsadlari	2
4	Umumiy musiqiy ta'limning texnologiyasi va asoslari	2
5	Ta'limning texnologiyasi va usullari	2
6	Vokal va xor ishlari	2
7	Vokal va xor ishlarini o'rganish metodikasi	2
8	Boshlang'ich sinflarda musiqaning madaniyati darslari	2
9	I-II- sinf repertuari	2
10	III-IV-sinf repertuari	2
11	Takrorlash	2
	Jami:	22

1-MAVZU: MUSIQA O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI
Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Vahti - 2 soat	Talabalar soni 25-30 gasha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy, klaster uslubi
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari. 2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari. 3. Sistematik, ilmiylik, davomiylik printsiplari. 4. Onglilik va aktivlik printsiplari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Musiqa darsining umumdidaktik printsiplari bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari to'g'risida tushuncha berish; 2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari va printsiplari to'g'risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: O'quv faoliyati natijalari: 1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish; 2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari va

	Prinzipialari to'g'risidagi nazariy bilimlarini o'zlashtirish;
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, Klaster uslubi, blits-so'rov, taqdimot.
O'qitish shakli	Gurux, individual, jamoada ishlash.
O'qitish vositalari	proektor, A32 bichimidagi qog'oz marker, doska, bo'r.
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlangan namunadagi auditoriya.



Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi

<u>Bosqichlar, vaqti</u>	<u>Faoliyat mazmuni</u>	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich Kirish (5 minut)	1.1. Mashg'ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi (1-ilova).	1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar
II-bosqich Bilimlarni faollashtirish (10 minut)	II.1 Ekranga testlar chiqariladi, test olinadi va tekshiriladi.(2-ilova). II.2 Test natijalari taxlil qilinadi va xatolarga to'xtalib o'tiladi va iopshiriqlarni qaytarib o'tadi	II.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. II.2. Test natijalarini taxlil qiladilar.

III-bosqich Asosiy anglash bosqichi(55 minut)	III. 3 talabalarni uch guruxga bo'ladilar va topshiriqlarni qaytaradai .(3-ilova).Ish yakunlanganida qanday natijaga ega bo'lishi kutilayotgani bilan tanishtiradi. Klaster uslubi yordamida savollarni echish qoidalari bilan tanishtiradi.(4-ilova) III.3 O'zaro baholash natijalarini xal etishni tashkil etadi. Izoxlaydi javoblarni tartibga soladi, o'quv jaroayoni davomida olingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	III.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. III.2. Test natijalarini taxlil qiladilar. III.3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. III.4. Topshiriqlarni bajaradilar –gurux sardorlari muammoni xal etishni va prizentatsiyani tayyorlashni tashkil qiladilar. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
IV-bosqich Yakuniy (10 minut)	IV. 1 Mavzuni yakunlaydi ishtirokchilarni baholaydi, rag`batlantiradi. IV.2 Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi; kelgusi mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qib kelish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash vazifa qilib beriladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar

1- Ilova

REJA

1. Pedagogika fani asosida musiqa ta'limining o'qitish usullari.
2. Musiqa o'qitishning didaktik asoslari.
3. Sistematik, ilmiylik, davomiylik printsiplari.
4. Onglilik va aktivlik printsiplari.

Test topshiriqlari.

Talabalar 3 guruhga bo'linadilar, berilgan topshiriqqa javob beradilar
 Klaster uslubidan foydalanish

2-Ilova

•TEST

1 Ohangdoshlik nima?

- A) Musiqa
- B) Pedagogika

•D) Umumdidaktika

•C) bir necha tovushlarning bir yo'lga solib kuylanishi

2. Printsip deganda nimani tushunasiz?

•A) tamoyil.

•B) oxangdoshlik

•D) tovush

•C) diapazon




3. CHolg'uchi –kim?

•A) arganchi

•B) musiqachi, sozanda cholg'u asboblarda ijro etuvchi.

•D) ashulachi

•C) jarchi





(C)fuul

musiqacha

umumdida
ktika

sistemalilik



GURUXLARDA ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-GURUX

1. Pedagogikani didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat?
2. Umumdidaktik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo'llanilishi?

2-GURUX

1. Musiqa darslarida sistemalilik, davomiylik printsiplaridan qanday foydalaniladi?
2. Ko'rgazmalilik, onglilik va aktivlik printsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?

3-GURUX

1. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiipi deganda nimani tushunamiz?
2. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash printsiipi qanday qo'llaniladi?

KLAUSTER USLUBINI YECHISH BOSQICHLARI

- Mustaqil fikrlang, Xayolingizga kelgan barcha g`oya, fikrlarni qog`ozga yozing.
- Barcha g`oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa maxsus belgi qo'yning.
- G'oyalarni boxolang.

- Eng maqbul g`oya gurux g`oyasi sifatida shakllantiradi.
- Barcha yozilgan g`oyalar gurux muammosini eshish uchun guruxlashtirish mumkin.
- Guruxning umumiy javobi shakllantiriladi.

•AQLIY HUJUM USULINI YECHISH BOSQICHLARI

- 1.O`qituvchi guruxga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va talabalarga o`z fikrlarini aytishni taklif qiladi.
2. Istisno tariqasida barcha fikrlar doskaga yoki flipshatga yozib boriladi.
- 3.Barcha fikrlar yozib olingandan so`ng o`qituvchi talabalar bilan birga fikrlarni silliqlashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi, keyinshuluk ishdan foydalanish maqsadida eng muhiimlari ajiratib ko`rsatiladi.

•1-GURUX

1-topshiriq. Pedagogikani didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat? Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq. • Umumdidaktik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo`llanilishi?

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang.

2-GURUX

1-topshiriq. Musiqa darslarida sistemalilik, davomiylik printsiplaridan qanday foydalaniladi? Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq. Ko`rgazmalilik, ongliklik va aktivlik printsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?

- Klaster uslubidan foydalanib izohlang.

3-GURUX•

1-topshiriq. O`quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsiipi deganda nimani tushunamiz?

- Klaster uslubidan foydalanib izohlang.


2-topshiriq. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash printsiipi qanday qo`llaniladi? Savolga “klaster” usulida javob toping. Klaster uslubidan foydalanib izoxlang..

•GURUX BILAN ISHLASH QOIDALARI

- Guruxning har bir a'zosi:
 - o'z sheriklarini fikrlarini xurmat qilishlari lozim;-berilgan topshiriqlar faol, hamkorlikda va ma'suliyat bilan ishlashlari lozim;
 - o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
 - yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
 - guruxni baxolash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

GURUHLARGA TOPSHIRIQLAR

•TEST



1- Topshiriq test.

1 Ohangdoshlik nima?

- A) Musiqa
- B) Pedagogika
- D) Umumdidaktika
- C) bir necha tovushlarning bir yo'lga solib kuylanishi

2-topshiriq. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash printsiipi qanday qo'llaniladi? Ushbu savolga aqliy hujum usulida javob bering.

3-topshiriq. . Pedagogikani didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat?

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang?

4-topshiriq. Mavzuga qisqasha xulosa qiling .

BAXOLASH KO'RSATKICHLARI MEZONLARI (BALL)

Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari	Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari		
	1	2	3
1-topshiriq(test)			
2-torshiriq(savollarga javob berish)			
3-topshiriq interfaol usllardan foydalanish			
Xulosalarni aniq shakllantirilganligi			
Jami:			

BLITS-SO'ROV SAVOLLARI

1. Pedagogikani didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat?
2. Umumdidaktik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo'llanilishi?
3. Musiqa darslarida sistemalilik, davomiylik prntsiplaridan qanday foydalaniladi?
4. Ko'rgazmalilik, onglilik va aktivlik printsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?

5. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsipli deganda nimani tushunamiz?
6. Musiqa darslarida bilim va malakalarni mustahkamlash printsipli qanday qo'llaniladi?

“INSERT USULU”

Insert-samarali o'qish va farqlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beradi. Uni o'qib shiqib, “V; +; -; ?” belgilari orqali o'z fikrini ifodaladi.

MATNNI BELGILASH TIZIMI

(V)-men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)-yangi ma'lumot

(-)-men bilgan narsaga zid.

(?)-meni o'ylantiradi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

INSERT JADVALI

<u>Tshunchalar:</u>	V	+	-	?
Pedagogikani didaktik printsiplarining mohiyati nimadan iborat?				
Umumdidaktik printsiplarining qanday turlari mavjud va ularning musiqa darslarida qo'llanilishi?				
Musiqa darslarida sistemalilik, davomiylik printsiplaridan qanday foydalaniladi?				
Ko'rgazmalilik, onglilik va aktivlik printsiplaridan musiqa darsida qanday foydalanish mumkin?				

2-MAVZU: MAVZU: MUSIQA O'QITISH NAZARIYASI VA MUSIQA O'QITUVCHISI
Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni 25-30 gasha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy, klaster uslubi
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati. 2. Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi. 3. Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi. 4. Musiqa darsining strukturasi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Musiqa madaniyati darslarining hususiyati va strukturasini o'zlashtirish	
Pedagogik vazifalar: Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati to'rtisida tushuncha berish. - Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi tushuntirish. - Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi to'rtisida bilim berish. - Musiqa darsining strukturasi o'rgatish. - Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati to'rtisida tushunchaga ega bo'lish. - Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi axrta olish. - Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi to'rtisida bilim olish. - Musiqa darsining strukturasi xaqida o'rganish. - Musiqa darsining faoliyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirish
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, Klaster uslubi, blits-so'rov,taqdimot.
O'qitish shakli	Gurux, individual, jamoada ishlash.
O'qitish vositalari	proektor, A32 bichimidagi qog'oz marker, doska, bo'r.
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlangan namunadagi auditoriya.



Amaliy mashg`ulotining texnologik kartasi

<u>Bosqichlar, vaqti</u>	<u>Faoliyat mazmuni</u>	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich Kirish (5 minut)	1.1. Mashg`ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi (1-ilova).	1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar
II-bosqich Bilimlarni faollashtirish (10 minut)	II.1 Ekranga testlar chiqariladi, test olinadi va tekshiriladi.(2-ilova). II.2 Test natijalari taxlil qilinadi va xatolarga to'xtalib o'tiladi va iopshiriqlarni qaytarib o'tadi	II.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. II.2. Test natijalarini taxlil qiladilar.
III-bosqich Asosiy anglash bosqichi(55 minut)	III. 3 talabalarni uch guruxga bo'ladilar va topshiriqlarni qaytaradai .(3-ilova).Ish yakunlanganida qanday natijaga ega bo'lishi kutilayotgani bilan tanishtiradi. Klaster uslubi yordamida savollarni echish qoidalari bilan tanishtiradi.(4-ilova) III.3 O'zaro baholash natijalarini xal etishni tashkil etadi. Izoxlaydi javoblarni tartibga soladi, o'quv jaroayoni davomida olingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	III.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. III.2. Test natijalarini taxlil qiladilar. III.3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. III.4. Topshiriqlarni bajaradilar –gurux sardorlari muammoni xal etishni va prizentatsiyani tayyorlashni tashkil qiladilar. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
IV-bosqich Yakuniy (10 minut)	IV. 1 Mavzuni yakunlaydi ishtirokchilarni baholaydi, rag`batlantiradi. IV.2 Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi; kelgusi mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qib kelish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash vazifa qilib beriladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar

REJA

1. Musiqa madaniyati darslarining maqsad va ahamiyati.
2. Musiqa madaniyati darsining hususiyati va boshqa fanlardan farqi.
3. Musiqa madaniyati darsining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Musiqa darsining strukturasi.

Test topshiriqlari.

Talabalar 3 guruhga bo'linadilar, berilgan topshiriqqa javob beradilar

Klaster uslubidan foydalanish

TEST TOPSHIRIQLARI

•TEST

«Metodika»-deganda nimani tushunasiz?

- A) san'atining mohiyati
- B) badiiy shakl
- D) uslub
- C) bilish, o'rganish usuli.

«Xususiy metodika» deganda nimani tushunasiz?

- A) Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.

•B) - bitta fanning uslubi.

- D) g'oyaviy-emotsiya
- C) tovushni


«Amaliy metod» deganda nimani tushunasiz?

- A) O'zbekiston tarixini
- B) ekalogiyani




D) ijodiy mehnat.

•C) yuqori



(C)fuul

Skrinka



2-chiziq


Sol

3-Ilova

musiqa

umumdida
ktika
1-topshiriq. «Repriza» - deganda nimani tushunasiz?

Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq. To'rtinchi sinfda musiqa darslarini o'ziga xosligi.

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang.

3-GURUX

1-topshiriq. To'rtinchi sinfda musiqa darsining chorak, yil mavzusi va ularni musiqa darsidagi ahamiyati.

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang.

2-topshiriq. « Volta » - deganda nimani tushunasiz?

Savolga "klaster" usulida javob toping.

Klaster uslubidan foydalanib izoxlang..

•GURUX BILAN ISHLASH QOIDALARI

•Guruxning har bir a'zosi:

-o'z sheriklarini fikrlarini xurmat qilishlari lozim;-berilgan topshiriqlar faol, hamkorlikda va ma'suliyat bilan ishlashlari lozim;

-o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;

-yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;

-guruxni baxolash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

GURUHLARGA TOPSHIRIQLAR

1- Topshiriq test.

•TEST

«Sozanda» deganda nimani tushunasiz?

- A) O'zbekiston tarixini
- B) - - cholg'u asbobida ijro qiluvchi cholg'uchi.
- D) musiqa taxlili, ijrochiligini o'rgatuvchi fan.
- C) yuqori

2-topshiriq. «Repriza» - deganda nimani tushunasiz?

Ushbu savolga aqliy hujum usulida javob bering.

3-topshiriq. «Repriza» - deganda nimani tushunasiz?

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang?

4-topshiriq. Mavzuga qisqasha xulosa qiling .



BAXOLASH KO'RSATKICHLARI MEZONLARI (BALL)

Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari	Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari		
	1	2	3
1-topshiriq(test)			
2-torshiriq(savollarga javob berish)			
3-topshiriq interfaol usllardan foydalanish			
Xulosalarni aniq shakllantirilganligi			
Jami:			

BLITS-SO'ROV SAVOLLARI

To'rtinchi sinfda o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari.

To'rtinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va maqsadi.

To'rtinchi sinfda musiqa darsining chorak, yil mavzusi va ularni musiqa darsidagi ahamiyati.

To'rtinchi sinfda musiqa darslarini o'ziga xosligi.

«Repriza» - deganda nimani tushunasiz?

«Sozanda» deganda nimani tushunasiz?

« Volta » - deganda nimani tushunasiz?

“INSERT USULU”

Insert-samarali o'qish va farqlash uchun belgilashning interfaol tizimi

hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beradi. Uni o'qib shiqib, "V; +; -; ?" belgilari orqali o'z fikrini ifodaladi.

MATNNI BELGILASH TIZIMI

(V)-men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)-yangi ma'lumot

(-)-men bilgan narsaga zid.

(?)-meni o'ylantiradi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

INSERT JADVALI

<u>Tshunchalar:</u>	V	+	-	?
To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari.				
To'rtinchi sinfda musiqa darslarining maqsadi va mazmuni.				
To'rtinchi sinfda musiqa dars mavzularini o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga mosligi.				
To'rtinchi sinf o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari.				

MA'RUZA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR. 6-SEMESTR

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
---	-------------------------------------	-----------------

1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari	4
2	Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
3	Oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni va xususiyatlari	4
4	Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.	4
5	Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi	4
6	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
7	1920-90 yillarda musiqa o'qitish metodikasining qisqacha tarixi	4
	Jami:	28

1 -MA'RUZA. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURINING MAZMUNINI MAQSADI VA ASOSIY BOSQILARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzuning mazmuni va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish. 2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari 3. Ma'ruza matnini tarqatish. 4. Ma'ruza mohiyatini taqdimot texnologiyasi asosida yoritib berish. 5. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash. 6. Savol-javob orqali talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash. 7. Mavzuni yakunlash. 8. Talabalarga Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari bilan tanishtirish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari to'g'risida tushuncha berish;	- talabalar shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar;
- talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy	- talabalar shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasidan xabardor bo'ladilar;
	- musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirishni

bosqilari to'g'risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish;
 - talabalarda ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish ko'nikmalarini shakllantirish.

anglaydilar;

- talabalar rivojlanshning yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar;
 - talabalar ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish zarurligini tushunadilar, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ta'lim jarayonida o'quvchining yosh va individual xususiyatini inobatga olish ko'nikmasini o'zlashtiradilar;
 - talabalarning BKM darajasini aniqlovchi nazorat savollari va test topshiriqlari bo'yicha javob qaytarish orqali mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlarni baholaydilar.

Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, "6x6x6" metodi, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Faoliyat mazmuni	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va natijalarni bayon etadi. "6x6x6" metodi bo'yicha kichik guruxlarni shakllantiradi. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. Talabalar, kichik guruxlar faoliyatini nazorat qilib boradi. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. "6x6x6" metodiga ko'ra kichik guruxlarda ishlaydilar. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar. 	
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. Plakatlar mohiyatini yoritadi. "6x6x6" strategiyasi bo'yicha mavzuga doir o'quv materialini kichik guruhlarga tarqatadi. Prezentatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch 	<ol style="list-style-type: none"> "6x6x6" strategiyasi bo'yicha o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. "6x6x6" strategiyasi bo'yicha guruhlarga tavsiya etilgan o'quv materialini yuzasidan bilimlarni o'zlashtiradilar va tegdoshlarini mazkur bilimlar bilan tanishtiradilar. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 	

- tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.
6. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi.
 7. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi.
 8. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.

3-bosqich.
Yakuniy
qism –
fikrlash
bosqichi (10
daqqa)

1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash.
2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.
3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.
4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.

4. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar.

5. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.

6. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.

1. Guruh tarkibida taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini izlaydilar.

2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar.

3. Boshqa guruhlarining pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.

4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar.

5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

O'zbekiston ta'lim tarbiya sohasi va isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta'lim ustivorligidir». Bu omil davlatimizni ijtimoiy siyosatini belgilab beradigan muhim jarayon bo'lganligi uchun 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz, yosh avlodni aql-idrokini o'stirish, barkamol yetuk inson etib yetishtirish uchun eng avvalo, o'zi shu talablarga javob berishi va shunday fazilatlar ega bo'lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat o'qituvchilik kasbida bilimdonlik, zukkolik, o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. SHuning uchun ham, barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi sharaflil va mas'uliyatli hisoblanadi. Jamiyatimizni ma'naviy yangilanishida demokratik, huquqiy, davlat qurish kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy masala bo'lib hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy omillaridan biri, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida kadrlarni tayyorlash va yangi tizimini shakllantirish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy maqsadi, bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'ni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.

1-bosqichda (1997-2001 yillar) pedagogik va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish hamda ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi, davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish va yo'nalishlariga aniqliklar kiritish.

2-bosqichda (2001-2005 yillar) majburiy umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limiga o'tish, sifat bosqichini shakllantirish.

3-bosqichida (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida, yanada rivojlantirish. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga, kompyuter axborot tarmog'i orqali ulash. Masofada o'qitishni joriy etish.

Musiqqa san'ati, yangi avlodni tarbiyalashda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan, o'zbek musiqqa ta'lim-tarbiya pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. SHu bois barcha o'quv predmetlari qatori musiqqa fanidan ham 1998 yil 10 may Vazirlar Mahkamasining 203-son qarori bilan Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqildi.

Davlat Ta'lim Standartlari joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari maqom, yo shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topgan. YAngi ta'lim mazmuni, o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, xotiralarini mustahkamlaydi, obrazli tasavvur qilish, musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi Davlat Ta'lim Standartlari asosida, turli darajalaridagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi **ta'lim turlarini** o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

«Umumiy ta'lim dasturlari»: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar), umumiy o'rta ta'lim (5-6 sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'limning asosiy printsiplari quyidagilarga asoslanadi:

1. Ta'lim-tarbiyaning demokratik xarakterda ekanligi.
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.
3. Umumiy, o'rta va o'rta maxsus ta'limning majburiyligi.
4. Litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qish tanlashning ixtiyoriyligi.
5. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega bo'lishi.
6. Davlat Ta'lim Standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.
7. Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv.
8. Ta'lim tizimida davlat va nodavlat boshqaruvni bo'lishi.
9. Ta'lim tizimida Xalq ta'lim vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.
10. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.

Davlat Ta'lim Standartlari mazmunida o'quvchilarni musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarga shart-sharoit yaratib berish, ularni badiiy ehtiyojini qondirish, musiqqa ta'lim-tarbiyasini asosiy vazifasini tashkil etadi.

O'quvchilarni musiqqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish Davlat Ta'lim Standartlarini asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. SHuningdek, umumiy ta'lim doirasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etilgan.

Davlat Ta'lim Standartlari musiqqa dasturida musiqani o'rgatish metodikasi, darslarining tahminiyl rejasi, yil, chorak, mavzular, o'zbek xalq musiqasi namunalari, hamda kompozitorlarning yangi zamonaviy asarlari kiritilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'tarilgan barcha masalalar, Respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan, bu eng avvalo o'qituvchi kasbiga bo'lgan munosabatni oshirish lozimligini taqozo etadi.

Bugungi mustaqillik sharoitida ta'lim muammolarini hal qilishda, boshlang'ich sinf musiqqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab, axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirish va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim. Sinfidan tashqari musiqqa tarbiyasini to'garak shaklida raqs dasturi, folklor, doirachilar ansamblli, xor to'garaklari, vokal ansambli musiqqa o'qituvchisini zimmasidir. O'qituvchi bir soatlik musiqqa darsida ham cholg'u, ham xonanda, ham dirijyor, ham stsenariy muallifi, ham artist bo'lishi lozim. SHu bois, musiqqa darsi san'at darsi deyiladi. Buning uchun musiqqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli keng

dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasining amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. CHunki boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisining maktab hayotida faoliyat miqyosi kengdir.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini ochib bering?
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsad va omillarini yoritib bering?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini asosiy bosqichlari mazmunini ochib bering?
4. Davlat Ta'lim Standartlari mazmuni va maqsadini aytib bering?
5. Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi va unga qanday vazifalar qo'yilgan?

Tayanch tushunchalar

Folklor – o'zbek xalq og'zaki ijodi.

Asar, ijod – kompozitor yaratgan musiqa.

Dinamika – tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.

Musiqa shakli – musiqa asarining tuzilishi.

Maqom – musiqa cholg'u asboblari parda va tovushlar o'rmini bildiradi.

2 -MA'RUZA

MAVZU: BESHINCHI SINFDADA MUSIQA O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. Beshinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari. 2. Beshinchi sinfdada vokal-xor ishlari va ikki ovozda kuylashning maqsad va vazifalari.

	3. Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Beshinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumot berish - Beshinchi sinfda vokal-xor ishlari va ikki ovozda kuylashning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish - Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi xaqida tushuncha berish	O'quv faoliyati natijalari: - Beshinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish - Beshinchi sinfda vokal-xor ishlari va ikki ovozda kuylashning maqsad va vazifalari bilan tanishish - Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi xaqida tushunchaga ega bo'lish	
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism –	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi.	1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar.

<p>anglash bosqichi (50 daqiqa)</p>	<p>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezentsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
<p>3-bosqich. YAKuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)</p>	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Beshinchi sinfda o'rta ta'lim etapi boshlanadi. 5-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik jihatdan ancha o'zgartirilgan bo'ladilar. Vokal-xor ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. Sof unisonda kuylashga, ikki ovozli mashqlarni kuylashga, ansamblda kuylashga ega bo'ladi. Qo'shiq haqida, tinglangan asar haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ham ega bo'ladilar. Ovoz diapazoni (Do₁ – Fa₂) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi, ular hayotiy tajribaga boy bo'ladilar. Fanlarga qiziquvchan va o'zlarining sevgan mashg'ulotlariga astoydil mehr bilan qaraydilar. Bolalarda diqqat-e'tibor ancha turg'unlashgan bo'ladi. Hajm jihatdan kattaroq musiqani tinglashga va kuylashga qodir bo'ladi. Musiqa darsida ko'rgazmalilik asosiy o'rinni egallaydi. O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berish va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirishi kerak:

5. Sof unisonga erishishi
6. Musiqiy jumlaning boshidan oxirigacha to'la idrok etishi.
7. Notaga qarab kuylash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Musiqa savodidan asar tahlili, notalarni joylanishi o'lchovlar, ansambl, xor, orkestr haqidagi bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa darslarida iloji boricha, o'qituvchi ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalardan ko'proq foydalanishi kerak. O'quvchilar musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog'liq ekanligini ongli ravishda anglashi kerak. Beshinchi sinf o'quvchilarini qiziqishi, qobiliyatiga, qarab to'garaklarga jalb etilishi lozim. Beshinchi sinfda bir ovozda qo'shiq kuylash ustida ish olib borish davridayoq, o'quvchilarni ikki ovozda kuylashga asta-sekin tayyorlab borish lozim. O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, nihoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqoratlaridan, kuylash uchun qulay bo'lgan laddalardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarni ham, asosan solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki bu jarayonda notalarni nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. Ikki ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarda ko'rsatib notalar nomini va tovushining balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tertsiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar kuylash uchun asos bo'la oladi. Chunki bu intervallar kuylash uchun qulay yoqimli va

o'quvchilar xotirasida saqlanishi oson. Intervallar faqat ikki ovozda kuylanmasdan, balki tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastgi tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o'quvchilarni garmonik o'quvini kuchaytiradi, intervallarni ongli ravishda o'zlashtirish to'yg'usi paydo bo'ladi. Ikki ovozlik qo'shiqlarni kuylash uchun, kichik kanonlardan boshlab kattaroq hajmdagi jo'rsiz (akapella) asarlarga o'tish, o'quvchilarni bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o'stiradi. Ikki ovozli qo'shiqlarni tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichik hajmdagi asarlar maqsadga muvofiqdir. Har qaysi ovozning ohangi aniq, ravshan, mustaqil bo'lishi kerak. Pastgi ovoz kuyi shirali, xushohang, yaxshi esda qoladigan bo'lishi ayniqsa muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni seksta, septima, oktavalardan hajmidan oshmaydigan qo'shiqlar aytishga ayniqsa qulaydir.

Qo'shiqlar o'rtacha tempda yozilgan bo'lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo'shiqlarni ohanglari imitatsiya jihatdan shakli yengil va oson bo'lishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'qituvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o'rgatishi o'quvchilarni talaffuzi intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovoz cho'zib, ikkinchi ovoz harakatlilishi ham, bolalarni eshitish qobiliyatlarini o'stiradi. Keyinchalik esa, ovozlarni parallel bir tomonga yo'nalishi, ovozlarni qarama-qarshi yo'nalishi va har xil murakkabroq holatida ham kuylash mumkin bo'ladi. Musiqa darsi jarayonida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo'lish shart emas, balki taxminiy bo'lishi ham mumkin. Chunki ikkinchi, uchinchi ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o'quvi ko'proq o'sadi. SHuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim. Buning uchun albatta dastlab, sof unisonga erishiladi. So'ngra, ikki ovozli asarlarga o'tiladi. Beshinchi sinf bolalarining ovozlari yangroq, ovoz apparatlari shakllangan, ko'nikma va malakalarga ega bo'lganligi sababli ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi sinfda musiqa darslarini yil mavzusi:

«Kompozitorlik musiqa janri»

I-chorak: «O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati».

II-chorak: «Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janrlari».

III-chorak: «Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama va komediya».

IV-chorak: «Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri».

Beshinchi sinfda musiqa darslarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni boshlang'ich sinflarda olgan bilimlarini va tayyorgarlik darajasini aniqlab, musiqa mashg'ulotlariga, to'garak ishlariga qiziqtirishdan iborat. Mazkur maqsad yuzasidan kirish suhbat o'tkaziladi va ko'pchilik yoddan biladigan qo'shiq kuylanadi. Kuylashdan oldin ashula aytish holati, o'tirib va turib kuylash qoidalari tanishtiriladi va tartibga solinib, vokal mashqlari yordamida ovozlar sozlanadi. So'ngra qo'shiq ijro etiladi hamda ijro yutuq va kamchiliklari baholanadi. Qo'shiq mazmuni suhbatda aniqlanib asar xarakteri, tempi, shakli belgilanadi va talablarga ko'ra qayta kuylanadi, toki o'quvchilarda darsning professional darajasi sezilsin. Bunda ayniqsa ovoz erkinligi va ravonligi, soz va ansamblga e'tibor kuchayadi. Qo'shiq ijrosi xarakter jihatdan taqqoslanadi va badiiy mazmun jihatdan tahlil etiladi. Natijada o'quvchilarni qo'shiq kuylashga, musiqa tinglashga, asarlarni savodli tahlil qilishga, to'garaklarga qatnashishga, chiroyli ovoz hosil qilib kuylashga qiziqishi va mas'uliyati oshib boradi. Keyinchalik esa ikki ovozli qo'shiq kuylashga qiziqishi ham ortib boradi. Ikki ovozli kuylash malakasi singdiriladi. Bu to'garak ishlarida o'z natijasini ko'rsatadi. Musiqiy asarni tinglash va kuylash uchun albatta musiqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kerakligi va hayotda musiqa tarbiyasining ahamiyati haqida musiqa o'qituvchisi tushuntirib borishi lozim.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning ish mazmuni va metodikasi nimadan iborat?
2. Beshinchi sinf o'quvchilarining fiziologik-psixologik xususiyatlari?
3. Beshinchi sinfda ikki ovozda kuylashning ahamiyati va o'rgatish yo'llari qanday?
4. Beshinchi sinfda o'quvchilarning o'qish davomida o'zlashtirgan ko'nikma va malakalari nimalardan iborat?

Tayanch tushunchalar

Katta ashula– Farg'ona vodiysi, qisman Toshkentda ijro etiladigan jo'rsiz ashula turi.

Interval - aniq balandlikka ega bo'lgan, ikki tovush balandligi bo'yicha oraligi.

Opera–musiqali dramatik asar, nutqning ma'lum bir qismi yoki deyarli hammasi kuylanadi.

Xalq cholg'u asboblari orkestri – xalq cholg'u asboblariidan tuzilgan orkestrlar.

3 -MA'RUZA

MAVZU: OLTINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISHNI MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Oltinchi sinf o'quvchilarini psixologik-pedagogik xususiyatlari. 2. Oltinchi sinfdagi musiqa o'qitishni mazmuni. 3. Oltinchi sinfdagi dars mavzusi va uning o'quvchilar bilim va malakasiga mosligi. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Oltinchi sinf o'quvchilarini psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida ma'lumot berish - Oltinchi sinfdagi musiqa o'qitishni mazmuni bilan tanishtirish - Oltinchi sinfdagi dars mavzusi va uning o'quvchilar bilim va malakasiga mosligi haqida tushuncha berish		O'quv faoliyati natijalari: - Oltinchi sinf o'quvchilarini psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish - Oltinchi sinfdagi musiqa o'qitishni mazmuni bilan tanishish - Oltinchi sinfdagi dars mavzusi va uning o'quvchilar bilim va malakasiga mosligi haqida tushunchaga ega bo'lish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat

bosqichi (20 daqiqa)	<p>3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi.</p> <p>4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi.</p> <p>5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi.</p> <p>6. mashg'ulotni yakunlaydi.</p>	<p>qiladilar.</p> <p>4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar.</p> <p>5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.</p>
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<p>1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Plakatlar mohiyatini yoritadi.</p> <p>3. Prezentatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi.</p> <p>4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi.</p> <p>5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi.</p> <p>6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi.</p> <p>7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.</p>	<p>1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar.</p> <p>2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentatsiya bilan tanishadilar.</p> <p>3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar.</p> <p>4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar.</p> <p>5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.</p>
3-bosqich. YAKuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<p>1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash.</p> <p>2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi.</p> <p>3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish.</p> <p>4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.</p>	<p>1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar.</p> <p>2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar.</p> <p>3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar.</p> <p>4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar.</p> <p>5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

Ma'ruza matni

Oltinchi sinfda musiqa o'qitishning maqsad va vazifalari, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilandi. Oltinchi sinfda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezonlari – o'quvchilarning ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan musiqaviy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

5. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

6. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo'lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o'rgatish.

7. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, tempi, mualliflari haqida fikr yuritishga o'rgatish.

8. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish.

Oltinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni (Do₁-Fa₂) bo'ladi. Oltinchi sinfda o'quvchilarni o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-psixologik jihatdan o'quvchilarni ovozini o'zgarishi, bo'yni o'sishi, fanlarga

qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada bosh miya, yetarli darajada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. YA'ni, dars davomida o'quvchilarni diqqat-e'tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, mehribona munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlar o'tkazish talab etiladi. SHuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini kuzatib, uni o'rganishi lozim. CHunki, o'quvchilar kattalarni munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, ular ko'proq kattalar bilan muomalada bo'lishni istaydilar. Bolalarning intizomida ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, ularning istagi va qobiliyati orasida tafovutlar sodir bo'lib turadi. Bularning hammasi o'qituvchidan yuqori malaka va tarbiyachilikni talab etadi. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchilarni quyi sinflarda olgan bilim va malakalariga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini hayot bilan bog'lab olib borish zarur. Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarni sozlashi bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o'z milliy musiqa san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarda aniq tushuncha hosil qilishi lozim. SHu asosda o'zbek musiqasining qisqa tarixi cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari, mumtoz qo'shiqlari, zamonaviy qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan: «SHashmaqom», tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida, xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlar va zamonaviy musiqa bilan tanishtirish, taqqoslash lozim.

Musiqa savodidan o'lhovlar, ladlar, ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib musiqiy asarlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Oltinchi sinfda o'quvchilarni ovoz diapazoni 1-ovozlar uchun (Do₁-Fa₂). II-ovozlar uchun (Si_{kich}-Re₂), bu davrda o'quvchilarga qo'shiqlarni ikki ovoqlik qilib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. CHunki bu paytda, mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davridan oldin o'g'il va qiz bolalar ovozi o'rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya paytida qo'shiq o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Qo'shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ularning ovozlarni asrab avaylash ishlariga yordam berishi lozim. Darsning asosiy qismini ashula aytishga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik kerak. O'quvchilarni ikki ovozga ajratib qo'shiqlarni ikki ovoqlik qilib, ularning ovozlari moslash ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlari, asarlarni tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog'lanadi. YAngi dastur asosida yil mavzusi chorak mavzusi va dars mavzusi bir-biri bilan bog'lanadi.

Oltinchi sinfda yil mavzusi: «Mumtoz musiqa».

I-chorak: Mumtoz musiqa haqida ma'lumot

II-chorak: Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari.

III -chorak: SHarq xalqlari mumtoz musiqasi.

IV-chorak: «Evropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv».

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

- a. Oltinchi sinfda musiqa o'qitishni ish mazmuni nimadan iborat?
- b. YAngi dastur asosida musiqa darslarida olib borishning o'ziga xos qulayliklari va muammolari nimalardan iborat?
- c. Oltinchi sinfda musiqa o'qitishning ish mazmuni qanday printsiplar va metodlarga asoslanadi?
- d. Oltinchi sinfda vokal-xor ishlarini va musiqa tinglashning ish mazmuni qanday?
- e. Musiqa o'qitish bo'yicha ta'limning yangi o'quv dasturi va standartlari musiqa darslarida qanday ahamiyatga ega?

Tayanch tushunchalar:

Mumtoz musiqa –etuk, namunaviy degan ma'noni anglatadi.

SHoshmaqom – o'zbek va tojik xalqlari musiqa merosining yetuk mukammal asari.

Zamoaviy musiqa – hozirgi kunda o'z mohiyatini va qadrini yo'qotmagan musiqa asarlarga aytiladi.

Janr – musiqaning turi.

Diapazon – ashulachilar ovozini kengligi, hajmi.

4-MA'RUZA

MAVZU: YETTINCHI SINFDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA UNING MAZMUNI.

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi. 2. Ettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari. 3. Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning yakunlovchi davrida o'quvchilarning olgan bilim va malakalariga qo'yilgan talablar.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi haqida ma'lumot berish - Ettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan tanishtirish - Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning yakunlovchi davrida o'quvchilarning olgan bilim va malakalariga qo'yilgan talablar haqida tushuncha berish		O'quv faoliyati natijalari: - Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi haqida ma'lumotga ega bo'lish - Ettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari bilan tanishish - Ettinchi sinfdagi musiqa o'qitishning yakunlovchi davrida o'quvchilarning olgan bilim va malakalariga qo'yilgan talablar haqida tushunchaga ega bo'lish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob	
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy	
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona	
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test	

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. YAkuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Ettinchi sinflarda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumlashadi. Ayniqsa, musiqani tinglab, badiiy jihatdan mustaqil tahlil qilish, qo'shiq o'rgatish, musiqa savodi kabi dars faoliyatlarini tatbiq etish ishi nihoyasiga yetadi.

7-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra diqqat-e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqa doir albom, referatlar, sinf burchaklari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. SHuningdek, mashhur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirishi mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlari asrab tarbiyalash ishi murakkablashadi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi, chunki bu yoshda mutatsiya davri kuchayadi. Ayniqsa o'g'il bolalarda ovoz boylamlari yo'g'onlashib, ovoz registri bir oktavaga pasayadi. Natijada o'quv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar sof intonatsiyada aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qulay yo'llarni izlashi lozim. Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisobga olib, qo'shiqni ovoz partiyasini ikki ovozga bo'lish lozim. YOki ovozlarni transportirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim.

Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazoni birinchi ovozlarda (Do₁-Mi₂)-, 2-ovozlarda esa – (Si_{kich}-Re₂) gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar kahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lib, o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinlangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. CHunki darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o'tadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasi haqida fikr yurita olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etish, musiqaning tuzilishi, yangi qo'shiqlar, musiqa adabiyoti, musiqa savodi bilan tanishtirish ishlari nihoyasiga yetadi. Lekin vokal-xor igshlarida, qo'shiq o'rgatish, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlari ehtiyot qilish, metodik to'g'ri yo'llanma berish kerak. Ba'zi paytlarda, bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taklif etib, doktorga farzandining sog'lig'i haqida murojaat qilishni taklif qilish lozim. CHunki 7-sinfda bolalarda mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davrigacha o'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, ular bir-biridan uncha farq qilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o'zgarib, o'g'il bolalarda ovoz registri jihatdan bir oktava pasayib yo'g'onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib, ovoz kuchi, tembrning mayinligi deyarli saqlanib qoladi. SHu boisdan, o'g'il bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o'tadi. Natijada ba'zi o'g'il bolalar, ashula aytganda sozga tusholmay qiynaladilar. Ba'zilar esa kuchanib kuylaydilar.

Bu davrda o'g'il bolalar ovozi sharli ravishda erkakcha ovozga qiz bolalar ovozi esa balog'atli xotin-qizlar ovoziga asta-sekin o'ta boshlaydi. O'g'il bolalar tomog'ida ovoz boylamlari yo'g'onlashadi, qizlarda, shishlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og'irlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarga ashula o'rgatish mas'suliyat talab etiladi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga moslashtirib dars davomida, ularning ovozlari asrab-avaylab o'rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Emotsional uyg'onishlar, organizmdagi garmonik o'zgarishlar darsga nisbatan qizimqishini pasayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog'liq o'tishi, uning vositasida ahloqiy go'zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borishi lozim.

Vokal-xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalarga va hayotiy tajribalarga suyanib ish tutish yaxshi natija beradi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar o'tiladi. O'quvchilar, o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz ashulalari, yalla va laparlar, xalq musiqasining mahalliy uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o'rganadilar. Mumtoz ashulalar, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

Yettinchi sinf yil mavzusi:

«Xalq musiqasining mahalliy uslublari.

Maqomlar haqida umumiy tushuncha».

I-chorak: «Qashqadaryo, Surhandaryo, Samarqan-Buxoro vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv».

II-chorak: Farg'ona-Toshkent hamda Xorazm vohalarida musiqiy uslublari bilan tanishuv.

III-chorak: «Maqom. SHashmaqom».

IV-chorak: «Xorazm maqollari. Farg'ona, Toshkent maqom yo'llari».

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum asosda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlarining ijrochilik turlari va uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi lozim. Masalan: «Lad nima?», «Mahalliy musiqa usublari», «Maqom», «Katta ashula janri», «SHashmaqom» shular jumlasidandir. O'qituvchi tanlagan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan holda, o'quvchilarni mutatsiya davrida ovozigga ziyon yetkazmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavq, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgarligi e'tiborga olinishi lozim. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir. Ashula aytganda ovozini parvarish qilish va maxsus vokal-xor mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida jo'rsiz mashqlar, qo'shiqlardan parchalar aytib, ovozni sozlab bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Musiqa tinglaganda va xor bo'lib qo'shiq aytganda, musiqa sohasidan olingan barcha nazariy ma'lumotlari mashq qilish jarayonida mustahkamlanadi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqida qisqa qiziqarli obrazli kirish so'zi, asarning janri, mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o'tkazishi muhim rol o'ynaydi. yetti yillik o'qish davrida, musiqa sohasida ish olib borish natijasida, o'quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo'lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televidenie orqali, musiqa darslarida, kontsertlarda mehr bilan tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo'lib yetishadilar.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Ettinchi sinfda musiqa darslarining yil, chorak, dars mavzularining nomlari nima va ularning ahamiyati?
2. Ettinchi sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik tomondan organizmlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi va unga musiqa o'qituvchisining roli?
3. Ettinchi sinf o'quvchilari musiqa o'qitishni yakunlovchi davrida qanday dunyoqarashga, bilim va malakaga ega bo'lishlari kerak?
4. Ettinchi sinf o'g'il va qiz bolalarda mutatsiya davri qanday o'tadi va uning o'ziga xos xususiyatlari?

TAYANCH TUSHUNCHALARI:

Dinamika – tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.

Musiqa shakli – musiqa asarining tuzilishi.

Maqom – musiqa cholg'u asboblari parda va tovushlar o'rnini bildirgan.

SHashmaqom – o'zbek va tojik xalqlari musiqa merosining yetuk mukammal asari.

5-MA'RUZA
MAVZU: CINF DAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI TIZIMI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	1. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi. 2. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va maqsadi. 3. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ish rejasi. 4. Maktabdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va vazifalari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish
Pedagogik vazifalar: - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi haqida ma'lumot berish - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va maqsadi bilan tanishtirish - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ish rejasi xaqida tushuncha berish - Maktabdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va vazifalarini o'rgatish	O'quv faoliyati natijalari: - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi haqida ma'lumotga ega bo'lish - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va maqsadi bilan tanishish - Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ish rejasi xaqida tushunchaga ega bo'lish - Maktabdan tashqari musiqa tarbiyasining shakli va vazifalarini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 6. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 7. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarni iloji boricha ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, Ona-vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikki shakli mavjud.

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli.
2. Musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, «Musiqa xaftaligi», «O'zbekiston vatanim manim», «Ilhom chashmali» ko'rik-tanlovlaridan, ijodiy uchrashuvlar, teatr va kontsertalarga sayohat, «Alifbe» bayramlariga, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga oshirish, chinakam badiiy-musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim.

Musiqa o'qituvchining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga qarab, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uni asosiy maqsadi, hususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi. **To'garak ishlarini** esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, hohish-istagi, qiziqishi, ovozigiga qarab tanlab oladi va turli to'garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to'garakni guruhlariga bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi. To'garak faoliyati faollashtiradigan narsa – bu maktab sahnasidir. O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, tuman, shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashdilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his-tuyg'ularni Ona-Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab turli to'garaklar tuzish mumkin:

10. Xor
11. VIA
12. Ashula va raqs ansamblari
13. Vokal ansamblari
14. CHolg'uchilar ansambli (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar)
15. Raqs ansambli
16. Orkestr (duxovoy, xalq cholg'u asboblari orkestri)
17. Yakkaxon qo'shiqchilar.
18. Folklor dastasi.

Maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o'qituvchi nazoratida bo'lib, maktab hayotiga, ularning faol qatnashuvlarini ta'min etishi lozim. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Musiqa darslaridan tashqari, zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi lozim.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi nima?
2. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini qanday shakllari bor?
3. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasi qanday tuziladi?

4. Maktabdan tashqarida musiqa tarbiyasi ishlariga nimalar kiradi?
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda nimaga ahamiyat berish kerak?

Tayanch tushunchalar:

Sahna - teatr va konsertlar qo'yish uchun tomosha zalining ko'tarilgan joyi.

Orkestr – yunonchaso'z bo'lib, turli cholg'u asboblari bilan chaluvchi sozandalardan tuzilgan jamoaga deyiladi.

6-MA'RUZA

MAVZU: PEDAGOGIK KOLLEJLARDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING MAZMUNI VA METODIKASI
Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat		Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi		Ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni. Musiqa fanini o'rganish bo'yicha talabalarda bilim va malakalari qo'yilgan talablar. Talaba yoshlarni zamonaviy o'qituvchi kadrlar qilib tayyorlashning tarbiyaviy ahamiyati.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni haqida ma'lumot berish - Musiqa fanini o'rganish bo'yicha	O'quv faoliyati natijalari: - Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'lish - Musiqa fanini o'rganish bo'yicha talabalarda bilim va malakalari qo'yilgan talablar bilan tanishish	

talabalarda bilim va malakalari qo'yilgan talablar bilan tanishtirish - Talaba yoshlarni zamonaviy o'qituvchi kadrlar qilib tayyorlashning tarbiyaviy ahamiyati xaqida tushuncha berish	- Talaba yoshlarni zamonaviy o'qituvchi kadrlar qilib tayyorlashning tarbiyaviy ahamiyati xaqida tushunchaga ega bo'lish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich. Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezintatsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarining e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosalar qiladi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarini tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z

	7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. YAKuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiqa)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, barcha sohalardagi kabi bo'lajak pedagoglarning zimmasiga ham o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Pedagogik kollejning bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqa o'qitish metodikasi fanidan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi, axloqiy pok, xalol va sofdil, yuksak fazilatli, o'z kasbining jonkuyari, talabalarga va o'smir yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, qadriyatidari va an'analarini mukammal biladigan, hamda o'z kasbga talabalarni qiziqitira oladigan shaxs bo'lmog'i lozim.

Bugungi talaba – bo'lajak pedagog, o'tmishi bor o'zbek xalqining musiqa san'atini noyob namunalari o'zlashtirgan bo'lib o'quvchi-yoshlarga ulashmog'i davr talabidir. SHu sababli bo'lajak musiqa fani o'qituvchisi oldiga qo'yidagi talablar qo'yiladi.

6. O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan talaba-yoshlarga musiqa san'ati sirlarini o'rgatish borasida doimo izlanish.
7. Talaba-yoshlarga pedagogika, psixologiya, musiqa o'qitish metodikasi fanlarini mukammal o'rgatish.
8. O'quvchi-yoshlarni musiqa san'ati bo'yicha ijodkorlikka yetaklash. Iqtidorli talabalarini to'garaklarga jalb qilish.
9. Zamon talablariga mos dars va mashg'ulotlarni noan'anaviy dars rejalari asosida o'tkazish.
10. Jahon andozalariga xos yangi pedagogik texnologiyalarni, darslarda qo'llash.

YUqorida qayd etilgan talablarni o'zida mujassam etgan har qanday talaba kelajakda yetuk barkamol pedagog bo'lib voyaga yetishi mumkin.

Talabalarga musiqiy ta'lim berishning asosiy shakllari va ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ish yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

Ma'ruza – musiqa madaniyati darslarini va uni o'qitish metodikasini nazariy asoslari va metodlari o'rgatish demakdir.

Amaliy mashg'ulotlar – mavzuli rejalar asosida, og'zaki so'rov, suhbat dars, seminarlarga tayyorlanadi, hamda didaktik materiallar asosida amaliy dars faoliyatlarini o'tkazish.

Laboratoriya mashg'ulotlari – musiqa madaniyati darslarini oddiy faoliyat turlaridan boshlab, to'garaklarda ishlash kabi murakkab ish faoliyatlarini yakka tartibda bajarish demakdir.

Pedagogik kollejlarda musiqa o'qitish metodikasi fani asosiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. SHu bois, darslarga ko'rgazmali qurollar tayyorlash, dars ishlanmalari yozish, musiqiy tahlil qilish, musiqiy asarlarni biror cholg'uda (pianino, rubob, dutor) ijro etish, kuylash, dirijyorlik qilish, qo'shiq o'rgatish, musiqa tinglash, raqs harakatlarini o'rgatish, ijodkorlik kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarda musiqa san'ati borasidagi barcha nazariy hamda amaliy bilimlarni rivojlantirish, o'z sohasiga ijodiy yondashishni talab etadi.

Pedagogik kollej ishlarida ilg'or o'qituvchi bo'lishi uchun hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarni egallash va ularni amalda qo'llay bilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kundagi musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, bunga qadar mazkur metodikani shakllanishi murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari o'quv qo'llanmalari, dasturlari, metodik tavsiyalarni ahamiyati katta bo'ldi. Bu ta'lim mazmunida har bir xududning san'ati va musiqa madaniyati, uning badiiy an'analarida o'z ifodasini topgan. SHuni alohida qayd etish lozimki, hayotni va atrofdagi go'zallikni bilmay turib to'laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo'lmaydi.

Musiqa san'ati estetik idrokning bitmas-tuganmas manbaidir, inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Inson doimo go'zallikka intilishi va kundalik hayotda, shu go'zallik qoidalariga amal qilishi kerak. Talaba yoshlar uchun esa, musiqa ta'limi juda zarurdir, chunki bo'lajak talabalar o'qituvchilik kasbini egallab, yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Xulosa qilib aytganda, biz yosh avlodni bo'lajak musiqa o'qituvchilarini, o'zbek xalqining musiqa madaniyati bilan tanishtirib, uning nafosatli his-tuyg'ularini rivojlantirishimiz, musiqa ta'limining saviyasini oshirishimiz kerak.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarini shunday yuksak darajada tashkil etish zarurki, talaba-yoshlar umumiy o'rta ma'lumot olish bilan birga an'anaviy musiqa madaniyatidan bahramand bo'lsinlar.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

- Bo'lajak pedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?
- Musiqiy ta'lim berishning asosiy shakllarini izohlab bering?
- Musiqa o'qitish metodikasi fani qanday faoliyat turlaridan iborat?
- Bo'lajak musiqa pedagoglari oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?

7-MA'RUZA:

MAVZU: 1920-90 YILLARDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI

Texnologik pasport

Ma'ruzaga ajratilgan vaqt 4-soat	Talabalar soni 30-60
O'quv mashg'ulotlari shakli va turi	Ma'ruza
O'quv	1. O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi.

mashg'ulotining tarkibiy tuzilmasi	2. O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi. 3. Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari. 4. O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishi. 5. Hozirgi kunda, musiqa ta'lim tarbiyasining rivojlanishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish
Pedagogik vazifalar: - O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi haqida ma'lumot berish - O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi bilan tanishtirish - Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari xaqida tushuncha berish - O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishini o'rgatish	O'quv faoliyati natijalari: - O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish - O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi bilan tanishish - Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari xaqida tushunchaga ega bo'lish - O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishini o'zlashtirish
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, namoyish, pedagogik vaziyat, savol-javob
Ta'limni tashkil etish shakli	Ma'ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Mavzuga doir adabiyotlar, plakatlar, ma'ruza matni, slayd-prezintatsiya
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	Joriy nazorat, savol-javob, test

Texnologik karta

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mashmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish, tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Mavzu, mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Modullar yordamida o'quv mashg'ulotining tuzilishi-mantiqiy sxemasini taqdim etadi. 3. vaqti-vaqti bilan talabalarga murojaat etib, ularni hamkorlikka, faollikka undaydi. 4. Talabalar e'tiboriga pedagogik vaziyatlarni taqdim etadi. 5. Mashg'ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 6. mashg'ulotni yakunlaydi.	1. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, mavzu hamda uning mazmunini yorituvchi asosiy g'oyalarni yozib oladilar. 2. Taqdim etilgan sxema, plakat va slayd-prezintatsiya bilan tanishadilar. 3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. 4. O'qituvchi yoki tengdoshlari bilan bahsga kirishish orqali mavzu bo'yicha o'zlashtirayotgan bilimlarini oydinlashtiradilar. 5. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
2-bosqich.	1. Talabalarni mavzu rejasi va asosiy	1. o'quv materialining tegishli bo'limi bilan

Asosiy qism – anglash bosqichi (50 daqiq)	tushunchalari bilan tanishtiradi. 2. Plakatlar mohiyatini yoritadi. 3. Prezentsiya asosida nazariy ma'lumotlarni bayon etdi. 4. Mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatadi. 5. Talabalarning e'tiborlariga pedagogik vaziyatlarni havola qiladi va ularning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil etadi. 6. O'quv materiallarining har bir bo'limi bo'yicha hulosa qiladi. 7. O'quv materiali bo'yicha yakuniy xulosani bayon etadi.	tanishadilar, bilimlarni o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchi nutqini tinglaydilar, plakatlar va slayd-prezentsiya bilan tanishadilar. 3. E'tiborlariga havola etilgan pedagogik vaziyatni guruh ishtirokida hal qiladilar, o'z yechimlari bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 4. Zarur o'rinlarda o'rganilayotgan mavzu. Uning bo'limlari yoki asosiy tushunchalarga oid savollar bilan o'qituvchiga murojaat qiladilar. 5. O'quv materialining asosiy o'rinlarini o'z daftarlariga qayd etishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism – fikrlash bosqichi (10 daqiq)	1. Guruhlardan pedagogik vaziyatni hal etishni so'rash. 2. Guruhlar tomonidan hal etilgan pedagogik vaziyatlarning yechimlarini talabalar bilan hamkorlikda tahlil qiladi. 3. Talabalar tomonidan berilgan savollar asosida mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan qismini qayta tushuntirish. 4. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan ularni tanishtiradi.	1. taqdim etilgan pedagogik vaziyatning yechimini kichik guruxlarga bo'linib izlaydilar. 2. Pedagogik vaziyatning yechimi yuzasidan guruh fikri bilan qolgan guruhlarni tanishtiradilar. 3. Boshqa guruhlarning pedagogik vaziyatlar bo'yicha yechimlari bilan tanishadilar, ularga nisbatan o'z fikrlarini bildiradilar. 4. O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydilar. 5. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar.

Ma'ruza matni

O'zbek halqi ko'p asarlik taraqqiyot tarixiga ega bo'lgan an'analar sohibidir. O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim zamonga borib taqaladi. Qadim madaniyaning ko'pdan-ko'p obidalari buyuk o'zbek mutaffakiri, shoirlari, yozuvchilari, ulug' daholalari Al-Farobiy, Abu-Ali ibn Sino, Navoiy, Jomiy, Nizomiylar lirikasida, keyinchalik esa o'zbek shoirlari va ma'rifatparvarlari Muqimiy, Furqat, Hamza asarlarida musiqa tarbiyasi va ta'lim berish borasida talaygina qiziqarli fikrlar bildirilgan.

Musiqa ta'limining rivojlanishiga nihoyatda katta ahamiyat bergan, O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim Muhammad Farobiy yosh avlodni tarbiyalash va o'qiish masalariga, etika va estetika masalalariga ko'plab ilmiy va amaliy g'oyalar bildiradi. U shuningdek, musiqa nazariyasining asoschilaridir. Taniqli tojik olimi, musiqachisi, faylasufi Jomiyning «Risoi dar ilmi musiqa» nomli kitobida, kompozitsiya, lad, ritm nisbatlari xaqida yozilgan.

O'zbek shoiri, mutaffakiri A.Navoiy musiqa san'ati sohasida nihoyatda katta bilimga ega bo'lgan edi. Uning musiqaviy-estetik qarashlari «Sabbai-Sayyor», «Mahbulul qulub», «Hamsa» va boshqa asarlarda aks etgan.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati xalq va professional ijod mahsuli bo'lgan musiqa asarlari, ooizdan-og'g'iizga o'tish asosida asirlar davomida o'plagan an'ana zamirida rivojlangan. U bizgacha xofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali yetib kelgan. Unga xalq ijodining eng yaxshi namunlari hamda professional ijrochilar tomonidan chalingan musiqa asarlari kirgan. So'nggi yillarda, olib borilgan tadqiqotlarning natijalari XVIII asrda o'ziga xos nota yozuvi bo'lgan bo'lsa ham, faqat, musiqa folklari emas, balki o'zbek xalqining professional musiqasi ham 1920 yillariga qadar asosan og'izdan-og'izga o'tish yo'li bilan tarqalgan.

SHunga qaramasdan, musiqa, o'zbek xalqi hayotida muhim va katta o'rin egallagan. Xalq ommasining madaniyatini yaratishdagi ishtiroki turlicha xarakterda edi. Avvalo savod chiqarish harakati keng quloq yoydi, chunki, aholi yoppasiga savodsiz bo'lgan. Xalqning savodsizligini tugatish hamda, xalq maorifining, yangi tizimini yaratish, jamiyatni ma'naviy qayta qurish asosiy

vazifa bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishi xalq maorifi tizimida asos qilib olingan edi. Tarbiyaviy va ta'lim ishlari, diniy muassasalarni ajratish ishlari yo'lga qo'yildi. SHuningdek 7 yillik majburiy bepul o'qitish joriy qilindi. Ishchi va o'quvchi yoshlar orasida havaskor «duxovoy» orkestrlar keng tarqaldi. Bu orkestrlar birinchi marotaba 1918 yilda o'zbek umumta'lim maktablari qoshida tashkil etila boshladi. Keyinchalik esa, musiqa jamiyatlari va xususiy tarzdagi musiqa darslari Turkistonning boshqa shaharlarida ham paydo bo'la boshladi. Qo'qondagi maktablarda o'zbek musiqasining mashhur targ'ibotchchisi H.H.Niyoziy, Toshkentda Abdulla Avloniy, Samarqandda Abduqodir SHakuriylar bo'lishgan.

Hamza o'zi ochgan maktablarda barcha fanlardan o'zi dars bergan va shu bilan birga «Engil adabiyot», «O'qish kitobi» kabi darsliklar yaratdi.

A.Avloniy faoliyati alohida diqqatga sazovordir. 1908 yilda Toshkenning Mirobod, Degrez mahallarida bolalarni ona tilida o'qitish uchun mo'ljallangan maktab ochgan, keyinroq 1919 yilni sentyabrida Turkiston respublikasida Xalq maorifi Komissarligi tuzilgan bo'lib, u bir qancha bo'limlarni o'z ichiga olgan. Bular ichida san'at bo'limi alohida e'tiborga sazovor edi. O'z navbatida uning ichki bo'limiga musiqa (Muzo), teatr (Teo), tasviriy san'at (izo) bo'limlariga ajralgan.

Musiqa bo'limi Turkiston respublikasida musiqa tarbiyais va ta'limini shakllantirish yosh avlodni musiqa madaniyati durdonalari bilan tanishtirish masalalari qo'yilgan edi.

1921-22 yillarda maorif institutlari qoshida fabrika va zavod to'garaklari hamda maktablar qoshida havaskorlik to'garaklari tashkil etila boshlagan edi. SHuning uchun yoshlar orasida havaskor «duxovoy» (puflab chalinadigan mis cholg'u asboblari) orkestrlar keng tarqalgan. CHunki urish yillari duxovoy musiqa maxsus ramziy ma'no kasb egan edi. Bu davrda Hamza juda faol qanashib, Farg'onadagi makablarning birida u ashuladan dars beradi. Bo'sh vaqlarida ota-onalar bilan ishlab, savod chiqarish va musiqa haqida tushuntirish ishlarini olib bordi. Aholining keng qatlami orasida musiqa ta'limiga qiziqish kuchaya boshladi. O'rta Osiyoda dastlabki, musiqa o'quv yurti 1917 yili Turkiston xalq konservatoriyasi ochildi. 1919 yili Samarqandda konservatoriya tashkil etildi. Keyinroq xalq konservatoriyalari, maxsus o'quv yurtlari musiqa texnikumlariga aylantiriladi. 1936 yili Toshkentda Xalq konservatoriyalari qayta tashkil etildi. Maxsus o'quv yurtlari bilan bir qatorda musiqa maktablari, musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan instruktorlar kurslari ochildi. Turkiston maktablari uchun dastlabki, o'quv dasturlari va rejaları yaratildi. yetti yillik o'rta va uch yillik boshlang'ich maktablari uchun dasturlar yaratildi.

Musiqa darslari majburiy dars tariqasida kiritilgan bo'lsa ham, ba'zi hollarda «bo'sh» soat bo'lib, undan maktab ma'muriyati o'z bilganicha foydalangan edi. Ko'p joylarda maxsus darsliklar, metodik ko'rgazmalar yo'qligi sababli, musiqa dars soatlari ancha kamaytirildi. Musiqa tarbiyasining tashkil etishning samarali yo'llarini izlash lozim edi. Buning uchun 40-yillarning oxirida musiqa dasturini maktablariga moslab qayta ishlash va o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishlari bosh vazifa qilib qo'yildi. Musiqa maorifini yanada rivojlanishi hamda professional musiqa ta'limining shakllanishi uchun zamin yaratildi. O'zbekistonda 1941 yilning 7-11 yanvar kunlari respublikamizda tarbiyaviy ishlarga bog'langan birinchi pedagogik konferentsiya o'tkazildi. Unda maktablarda yetarli miqdorda musiqa o'qituvchilari yo'qligi bolalar xori kamligi haqida o'qituvchilarini malakasini oshirishga jiddiy e'tibor berish kerakligi haqida ta'kidlab o'tildi.

SHundan keyin, musiqa ta'limi sohasida jadal ishlar olib borildi. Musiqa maktablari yuzaga keldi. Texnika va maorif institutlari, texnika bilim yurtlari tashkil etildi. Bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, havaskorlik to'garaklari, o'qituvchilarni malakasini oshirish va qayta o'qitish institutlari, ilmiy-tekshirish institutlari ochildi. Musiqa ta'limi tizimida jiddiy qayta qurish ishlari amalga oshirildi.

1960-61 o'quv yillari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutida «musiqa nazariyasi va cholg'u asboblarni chalish» kafedrasini tashkil etildi. SHu yilning o'zida musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan maxsus «musiqa fakulteti» ochildi.

SHuningdek, viloyat pedagogika institutlar huzurida musiqa pedagogika kafedralari tarmoqlari ko'paya boshlandi. 60-70 yillarda va yillarda va 80-yillar boshida xalq maorifi tizimida musiqa o'quv yurtlar soni yanada ortib boradi. YOsh musiqachilar «San'at bayrami», «YOsh ijrochilar konkurslari», «Bolalar musiqa xaftaligi», «YOsh ijrojilar konkurslari», «Do, re, mi, fa,

sol», tele ko'rsatuvlari, O'zbekiston Televideniyesi va radiosi orqali bolalar musiqiy ko'rsatuvlari musiqa ta'limi va tarbiyasini targ'ibot qilishda muntazam ishlar olib boriladi.

Xalq maorifi ministirligi o'quvchi va talabalarga estetik tarbiya berish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. YAngi dasturga o'tish munosabati bilan to'plamlar, tavsiyanomalar, umumiy ta'lim makablari uchun «Musiqa alifbosi», «Musiqa darsligi» va boshqalar Respublika umumiy ta'lim makablarida «Musiqa madaniyati» fanidan 1-7 sinflar uchun darsliklar chop etish bosh vazifa qilib qo'yiladi.

Jumladan «Musiqa alifbosi», «Musiqa darsligi» va boshqalar Respublika umumiy ta'lim maktablarini malakali kadrlar bilan ta'minlash asosiy masala bo'lib qoldi. YAngi dastur bo'yicha darslarni olib borish uchun umumiy ta'lim maktablarida malakali o'qituvchilar rahbarlik qila boshladilar. 1985-86 o'quv yillarda musiqa xonalari tashkil eildi, ular texnik vositalari bilan, mebel, maxsus musiqa ma'lumotiga ega bo'lganlar amaliyotchi-student bo'lib tayorgarlik ko'rdilar. Sinflar uskunalar va musiqali cholg'u asboblari bilan ta'minlansin-degan qaror qabul qilindi. 1986-87 yillarda musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha respublika seminari o'tkazildi. SHuningdek, yangi dastur, darsliklar nashr etildi. Ushbu ma'lumotlar musiqa madaniyati markaziga uzoq viloyatlarda, shaxarlarda musiqa ta'limotini targ'ib qilish vositalariga aylandi.

Ularning ijodi tufayli o'zbek bolalar musiqasi rivojlandi, musiqa orqali, o'quvchilarning ma'naviy dunyosi shakllandi. Respublikamizda har yili «O'zbekiston – Vatanim, manim», «Ilxom chashmalari», «Qo'shiq bayram»larini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. O'zbekistonda musiqa o'tish metodikasini rivojlantirishda yangi dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar yaratishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda D.Omonullaev, X.Nurmatov, O.Ibragimov, O.Fayziev, SH.YOrmatov, A.Mansurov, Q.Mamirov, N.Norxo'jaev kabi olimlar, kompozitorlar va tajribali o'qituvchilar o'z hissalarini qo'shdilar. Hozirgi kunda musiqa madaniyati yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

TEKSHIRISH SAVOLLARI:

1. O'zbekistonda musiqa madaniyatining shakllanishiga qaysi muaffakirlar o'z hissasini qo'shdilar?
2. O'zbekistondagi maktablarda musiqa fani qachondan boshlab dars sifatida kiritildi?
3. Musiqa fani bo'yicha ilk dastur, musiqa kitob qachon va kim tomonidan yaratildi?
4. Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?
5. Xozirgi kunda musiqa o'tish metodikasini rivojlanishi uchun qanday tarzda amalga oshirilmoqda?

Tayanch tushunchalar:

Musiqa folklori –xalq musiqasi.

Musiqa estetikasi – musiqa san'atining mohiyati voqeylikka munosabati, ijtimoiy roli.

Ashula – keng tarqalgan musiqa janri va shakli bo'lib. unda she'riy va musiqiy tovushlar bir-biriga uyg'unlashgan.

AMALIY MASHG`ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO`YICHA KO`RSATMA VA TAVSIYALAR. 6-SEMESTR

№	Fanning bo'limi, mavzusi va mazmuni	Ajratilgan soat
1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari	2

2	Beshinchi sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi	2
3	oltinchi sinfda musiqa o'qitishni mazmuni va xususiyatlari	2
4	Yettinchi sinfda musiqa o'qitish metodikasi va uning mazmuni.	4
5	Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimi	4
6	Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni va metodikasi	4
7	1920-90 yillarda musiqa o'qitish metodikasining qisqacha tarixi	4
	Jami:	22

1-MAVZU: UMUMIY MUSIQIY TA'LIMNING MAQSADLARI
Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Vahti - 2 soat	Talabalar soni 25-30 gasha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy, klaster uslubi
Amaliy mashg'ulotining rejasi:	9. Mavzuning mazmuni va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish. 10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari. 11. Amaliy mashg'ulotni mohiyatini taqdimot texnologiyasi asosida yoritib berish. 12. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash. 13. Savol-javob orqali talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

14. O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: - Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari to'g'risida tushuncha berish; - talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari to'g'risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish; talabalarda ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish ko'nikmalarini shakllantirish	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - - talabalar shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar; - talabalar shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasidan xabardor bo'ladilar; - musiqiy fazilatlar va qobiliyatlarni shakllantirishni anglaydilar; - talabalar rivojlanshning yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar; - talabalar ta'lim oluvchilarga ularni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish zarurligini tushunadilar, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ta'lim jarayonida o'quvchining yosh va individual xususiyatini inobatga olish ko'nikmasini o'zlashtiradilar; talabalarning BKM darajasini aniqlovchi nazorat savollari va test topshiriqlari bo'yicha javob qaytarish orqali mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlarni baholaydilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, Klaster uslubi, blits-so'rov, taqdimot.
O'qitish shakli	Gurux, individual, jamoada ishlash.
O'qitish vositalari	proektor, A32 bichimidagi qog'oz marker, doska, bo'r.
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlangan namunadagi auditoriya.

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi



<u>Bosqichlar, vaqti</u>	<u>Faoliyat mazmuni</u>	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich Kirish (5 minut)	1.1. Mashg'ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi	1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar

	(1-ilova).	
II-bosqich Bilimlarni faollashtirish (10 minut)	II.1 Ekranga testlar chiqariladi, test olinadi va tekshiriladi.(2-ilova). II.2 Test natijalari taxlil qilinadi va xatolarga to'xtalib o'tiladi va iopshiriqlarni qaytarib o'tadi	II.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. II.2. Test natijalarini taxlil qiladilar.
III-bosqich Asosiy anglash bosqichi(55 minut)	III. 3 talabalarni uch guruxga bo'ladilar va topshiriqlarni qaytaradai .(3-ilova).Ish yakunlanganida qanday natijaga ega bo'lishi kutilayotgani bilan tanishtiradi. Klaster uslubi yordamida savollarni echish qoidalari bilan tanishtiradi.(4-ilova) III.3 O'zaro baholash natijalarini xal etishni tashkil etadi. Izoxlaydi javoblarni tartibga soladi, o'quv jaroayoni davomida olingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	III.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. III.2. Test natijalarini taxlil qiladilar. III.3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. III.4. Topshiriqlarni bajaradilar –gurux sardorlari muammoni xal etishni va prizentatsiyani tayyorlashni tashkil qiladilar. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
IV-bosqich Yakuniy (10 minut)	IV. 1 Mavzuni yakunlaydi ishtirokchilarni baholaydi, rag`batlantiradi. IV.2 Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi; kelgusi mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qib kelish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash vazifa qilib beriladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar

1- Ilova

REJA

1. Mavzuning mazmuni va ijtimoiy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini maqsadi va asosiy bosqilari.
3. Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash.

Test topshiriqlari.

Talabalar 3 guruhga bo'linadilar, berilgan topshiriqqa javob beradilar

Klaster uslubidan foydalanish

2-Ilova

TEST TOPSHIRIQIARI

•TEST

Folklor -deganda nimani tushunasiz?


- A) san'atining mohiyati
- B) badiiy shakl
- D) o'zbek xalq og'zaki ijodi.
- C) bilish, o'rganish usuli.

Dinamika – deganda nimani tushunasiz?


- A) Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.
- B) - tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi..
- D) g'oyaviy-emotsiya
- C) tovushni

« Maqom » deganda nimani tushunasiz?

- A) O'zbekiston tarixini
- B) ekalogiyani
- D) – musiqa cholg'u asboblari parda va tovushlar o'rnini
- C) musiqachi






3-Ilova





(C)fuul



1-GURUX

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini ochib bering?
Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsad va omillarini yoritib bering?

2-GURUX

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini asosiy bosqichlari mazmunini ochib bering?
Davlat Ta'lim Standartlari mazmuni va maqsadini aytib bering?

3-GURUX

Davlat Ta'lim Standartlari mazmuni va maqsadini aytib bering?
Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi va unga qanday vazifalar qo'yilgan?

KLASTER USLUBINI YECHISH BOSQICHLARI

- Mustaqil fikrlang, Xayolingizga kelgan barcha g'oya, fikrlarni qog'ozga yozing.
- Barcha g'oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa maxsus belgi qo'ying.
- G'oyalarni boxolang.
- Eng maqbul g'oya gurux g'oyasi sifatida shakllantiradi.
- Barcha yozilgan g'oyalar gurux muammosini eshish uchun guruxlashtirish mumkin.
- Guruxning umumiy javobi shakllantiriladi.

•AQLIY HUJUM USULINI YECHISH BOSQICHLARI

- 3.Barcha fikrlar yozib olingandan so'ng o'qituvchi talabalar bilan birga fikrlarni silliqlashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi, keyinshluk ishdan foydalanish maqsadida eng muhiimlari ajiratib ko'rsatiladi.

•1-GURUX

1-topshiriq. Sinfдан tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi nima?

Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq. Sinfдан tashqari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasi qanday tuziladi?

Klaster uslubidan foydalanib izoxlang.

2-GURUX

1-topshiriq. Sinfдан tashqari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasi qanday tuziladi?

Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda nimaga ahamiyat berish kerak?

laster uslubidan foydalanib izohlang.

3-GURUX•

1-topshiriq. Sinfidan tashqari musiqa tarbiyasini qanday shakllari bor?

Klaster uslubidan foydalanib izohlang.

2-topshiriq. Sinfidan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi nima?

Savolga "klaster" usulida javob toping.

Klaster uslubidan foydalanib izoxlang..

•GURUX BILAN ISHLASH QOIDALARI

•Guruxning har bir a'zosi:

-o'z sheriklarini fikrlarini xurmat qilishlari lozim;-berilgan topshiriqlar faol, hamkorlikda va ma'suliyat bilan ishlashlari lozim;

-o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;

-yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;

-guruxni baxolash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

GURUHLARGA TOPSHIRIQLAR

•TEST

1-topshiriq

Sahna – deganda nimani tushunasiz?

•A) Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.

B) - teatr va kontsertlar qo'yish uchun tomosha zalining ko'tarilgan joyi.

•D) g'oyaviy-emotsiya

•C) tovushni

2-topshiriq.


Orkestr?

Ushbu savolga aqliy hujum usulida javob bering.

3-topshiriq. Sahna?

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang?

4-topshiriq. Mavzuga qisqasha xulosa qiling .



BAXOLASH KO'RSATKICHLARI MEZONLARI (BALL)

Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari	Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari		
	1	2	3
1-topshiriq(test)			
2-topshiriq(savollarga javob berish)			

3-topshiriq interfaol usllardan foydalanish			
Xulosalarni aniq shakllantirilganligi			
Jami:			

BLITS-SO'ROV SAVOLLARI

Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni.

Musiqa fanini o'rganish bo'yicha talabalarda bilim va malakalari qo'yilgan talablar.

Talaba yoshlarni zamonaviy o'qituvchi kadrlar qilib tayyorlashning tarbiyaviy ahamiyati.

“INSERT USULU”

Insert-samarali o'qish va farqlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beradi.

Uni o'qib shiqib, “V; +; -; ?” belgilari orqali o'z fikrini ifodaladi.

MATNNI BELGILASH TIZIMI

(V)-men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)-yangi ma'lumot

(-)-men bilgan narsaga zid.

(?)-meni o'ylantiradi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

INSERT JADVALI

<i>Tshunchalar:</i>	V	+	-	?
Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni.				
Musiqa fanini o'rganish bo'yicha talabalarda bilim va malakalari qo'yilgan talablar.				
Talaba yoshlarni zamonaviy o'qituvchi kadrlar qilib tayyorlashning tarbiyaviy ahamiyati.				
Pedagogik kollejlarda musiqa fanini o'qitishning mazmuni.				

7-MAVZU: 1920-90 YILLARDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI

Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Vahti - 4 soat	Talabalar soni 25-30 gasha
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy, klaster uslubi

Amaliy mashg`ulotining rejasi:	6. O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi. 7. O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi. 8. Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari. 9. O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishi. 5. Hozirgi kunda, musiqa ta'lim tarbiyasining rivojlanishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlar.
O'quv mashg`ulotining maqsadi: Dars tashkil eta olish va o'qitish malakalarini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: - O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi haqida ma'lumot berish - O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi bilan tanishtirish - Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari haqida tushuncha berish - O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishini o'rgatish	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish - O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi bilan tanishish - Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari haqida tushunchaga ega bo'lish - O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishini o'zlashtirish
O'qitish uslubi va texnikasi	Amaliy, Klaster uslubi, blits-so'rov, taqdimot.
O'qitish shakli	Gurux, individual, jamoada ishlash.
O'qitish vositalari	proektor, A32 bichimidagi qog'oz marker, doska, bo'r.
O'qitish shart-sharoitlari	Kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlangan namunadagi auditoriya.



Amaliy mashg`ulotining texnologik kartasi

<u>Bosqichlar, vaqti</u>	<u>Faoliyat mazmuni</u>	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich Kirish (5 minut)	1.1. Mashg`ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi (1-ilova).	1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar
II-bosqich Bilimlarni faollashtirish (10 minut)	II.1 Ekranga testlar chiqariladi, test olinadi va tekshiriladi.(2-ilova). II.2 Test natijalari taxlil qilinadi va xatolarga to'xtalib o'tiladi va iopshiriqlarni qaytarib o'tadi	II.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. II.2. Test natijalarini taxlil qiladilar.
III-bosqich Asosiy anglash bosqichi(55 minut)	III. 3 talabalarni uch guruxga bo'ladilar va topshiriqlarni qaytaradai .(3-ilova).Ish yakunlanganida qanday natijaga ega bo'lishi kutilayotgani bilan tanishtiradi. Klaster uslubi yordamida savollarni echish qoidalari bilan tanishtiradi.(4-ilova) III.3 O'zaro baholash natijalarini xal etishni tashkil etadi. Izoxlaydi javoblarni tartibga soladi, o'quv jaroayoni davomida olingan xulosalarga e'tibor qaratadi.	III.1..“Test savollariga alohida javob tanlaydilar. III.2. Test natijalarini taxlil qiladilar. III.3. Zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladilar. III.4. Topshiriqlarni bajaradilar –gurux sardorlari muammoni xal etishni va prizentatsiyani tayyorlashni tashkil qiladilar. Mavzu mazmuni bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'ladilar.
IV-bosqich Yakuniy (10 minut)	IV. 1 Mavzuni yakunlaydi ishtirokchilarni baholaydi, rag`batlantiradi. IV.2 Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi; kelgusi mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qib kelish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash vazifa qilib beriladi.	Eshitadilar. Yozib oladilar

1- Ilova

REJA

O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi.

O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi.

Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari.

O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishi.

Hozirgi kunda, musiqa ta'lim tarbiyasining rivojlanishida olib borilayogan ilmiy tadqiqot ishlar.

Test topshiriqlari.

TEST TOPSHIRIQIARI

•TEST

Dinamika -deganda nimani tushunasiz?

- A) tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.
- B) badiiy shakl
- D) aniq balandlikka ega bo'lgan, ikki tovush balandligi bo'yicha oraligi
- C) bilish, o'rganish usuli.



Zamoaviy musiqa – deganda nimani tushunasiz?

- A) Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.
- B) - hozirgi kunda o'z mohiyatini va qadrini yo'qotmagan musiqa asarlarga aytiladi.**
- D) g'oyaviy-emotsiya
- C) tovushni


« Mumtoz musiqa » deganda nimani tushunasiz?

- A) katta ashula
- B) maqom
- D) etuk, namunaviy degan ma'noni anglatadi**
- C) lapar

3-Ilova



Skrinka



GURUXLARDA ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Bo'lajak pedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?
Musiqiy ta'lim berishning asosiy shakllarini izohlab bering?
Musiqqa o'qitish metodikasi fani qanday faoliyat turlaridan iborat?
Bo'lajak musiqa pedagoglari oldiga qanday vazifalar qo'yiladi?

1-GURUX

O'zbekistonda musiqa madaniyatining shakllanishiga qaysi muaffakirlar o'z hissasini qo'shdilar?
O'zbekistondagi maktablarda musiqa fani qachondan boshlab dars sifatida kiritildi?

2-GURUX

Musiqa fani bo'yicha ilk dastur, musiqa kitob qachon va kim tomonidan yaratildi?
Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?

3- GURUX

Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?
Xozirgi kunda musiqa o'tish metodikasini rivojlanishi uchun qanday tarzda amalga oshirilmoqda?

KLASTER USLUBINI YECHISH BOSQICHLARI

- Mustaqil fikrlang, Xayolingizga kelgan barcha g'oya, fikrlarni qog'ozga yozing.
- Barcha g'oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa maxsus belgi qo'ying.
- G'oyalarni boxolang.
- Eng maqbul g'oya gurux g'oyasi sifatida shakllantiradi.
- Barcha yozilgan g'oyalar gurux muammosini eshish uchun guruxlashtirish mumkin.
- Guruxning umumiy javobi shakllantiriladi.

•AQLIY HUJUM USULINI YECHISH BOSQICHLARI

- 1.O'qituvchi guruxga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va talabalarga o'z fikrlarini aytishni taklif qiladi.
2. Istisno tariqasida barcha fikrlar doskaga yoki flipshatga yozib boriladi.
- 3.Barcha fikrlar yozib olingandan so'ng o'qituvchi talabalar bilan birga fikrlarni silliqlashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi, keyinshuluk ishdan foydalanish maqsadida eng muhiimlari ajiratib ko'rsatiladi.

•1-GURUX

1-topshiriq. Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?

Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq. Sinfдан tashqari musiqa tarbiyaviy ishlar rejasi qanday tuziladi?

Klaster uslubidan foydalanib izoxlang.

2-GURUX

1-topshiriq.

Musiqa fani bo'yicha ilk dastur, musiqa kitob qachon va kim tomonidan yaratildi?

Ushbu savolga izox bering (javobni asoslang).

2-topshiriq Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda nimaga ahamiyat berish kerak?

laster uslubidan foydalanib izoxlang.

3-GURUX•

1-topshiriq. O'zbekistonda musiqa madaniyatining shakllanishiga qaysi muaffakirlar o'z hissasini qo'shdilar?

Klaster uslubidan foydalanib izohlang.

2-topshiriq.

O'zbekistondagi maktablarda musiqa fani qachondan boshlab dars sifatida kiritildi?

Savolga "klaster" usulida javob toping.

Klaster uslubidan foydalanib izoxlang..

•GURUX BILAN ISHLASH QOIDALARI

•Guruxning har bir a'zosi:

-o'z sheriklarini fikrlarini xurmat qilishlari lozim;-berilgan topshiriqlar faol, hamkorlikda va ma'suliyat bilan ishlashlari lozim;

-o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;

-yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;

-guruxni baxolash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

GURUHLARGA TOPSHIRIQLAR

•TEST

1-topshiriq

Sahna – deganda nimani tushunasiz?

•A) Musiqa san'atining paydo bo'lishidan hozirgi zamonga qadar taraqqiyoti.

B) - teatr va kontsertlar qo'yish uchun tomosha zalining ko'tarilgan joyi.

•D) g'oyaviy-emotsiya

•C) tovushni

2-topshiriq.

Orkestr?

Ushbu savolga aqliy hujum usulida javob bering.

3-topshiriq. Sahna?

- Klaster uslubidan foydalanib izoxlang?

4-topshiriq. Mavzuga qisqasha xulosa qiling .



BAXOLASH KO'RSATKICHLARI MEZONLARI (BALL)

Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari	Baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari		
	1	2	3
1-topshiriq(test)			
2-torshiriq(savollarga javob berish)			
3-topshiriq interfaol usllardan foydalanish			
Xulosalarni aniq shakllantirilganligi			

Jami:			
--------------	--	--	--

BLITS-SO'ROV SAVOLLARI

O'zbekistonda musiqa madaniyatining shakllanishiga qaysi muaffakirlar o'z hissasini qo'shdilar?
 O'zbekistondagi maktablarda musiqa fani qachondan boshlab dars sifatida kiritildi?
 Musiqa fani bo'yicha ilk dastur, musiqa kitob qachon va kim tomonidan yaratildi?
 Konfederatsiya ko'rsatmalari qachon qo'llanildi?
 Xozirgi kunda musiqa o'tish metodikasini rivojlanishi uchun qanday tarzda amalga oshirilmoqda?

“INSERT USULU”

Insert-samarali o'qish va farqlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beradi. Uni o'qib shiqib, “V; +; -; ?” belgilari orqali o'z fikrini ifodaladi.

MATNNI BELGILASH TIZIMI

(V)-men bilgan narsani tasdiqlaydi.
 (+)-yangi ma'lumot
 (-)-men bilgan narsaga zid.
 (?)-meni o'yantiradi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

INSERT JADVALI

<u>Tshunchalar:</u>	V	+	-	?
O'zbekiston musiqa madaniyatini shakllanishi.				
O'zbekistonda 1920-50 yillarda musiqa tarbiyasi tizimini shakllanishi.				
Buyuk mutaffakirlarni musiqa tarbiyasiga oid olib borgan ishlari.				
O'zbekistonda musiqa ta'lim tarbiyasining shakllanishi.				
Hozirgi kunda, musiqa ta'lim tarbiyasining rivojlanishida olib borilayogan ilmiy tadqiqot ishlar.				

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-OB'EKTIV ZARURIYAT

Jamiyat rivojidadagi ilmiy- texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashrinishga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashrinish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashrinish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi.

Texnologiyalashrinish tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim- tarbiya qonuniyatlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish asosida umumiy maqsadga erishish- ijobiy sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi. YOKi pedagogik texnologizatsiyani shaxsda

yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lim- tarbiyani tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (YUNESKO)

"Pedagogik texnologiya- ta'lim maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashdir" (N.Azizxo'jaeva).

Pedagogik texnologiyalar ta'lim- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy- muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solib, uning optimal loyihasini tuzish bilan bog'liq tushunchadir. Jumladan, o'qitishning vazxonlik usulilaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchining bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'lovchi- o'qituvchi, ustoz rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil faoliyatini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir xil natijaga erishish imkoniyatining mavjudligidir. Ayniqsa, o'qitishga yagona davlat ta'lim standartlari joriy etilgan, jahonning barcha davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashning hozirgi davrida keyingi holat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanadi, kutilayotgan yakuniy natija- ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi tsikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi, o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash loyihasi g'oyasi XVI asrda yashagan slavyan pedagogi YA.O. Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o'zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta'lim- tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo'lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan" shunday joylashtirilishi kerak ediki, "butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Buyuk pedagog YA.O.Komenskiy etmagan orzuga XX asr pedagoglari etib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi. XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin.

- insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiyalar (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondoshuv, demokratik boshqaruv, insonparvarlikka yo'naltirilgan texnologiyalar)
- ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi)
- o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (dasturli o'qitish, differentsiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya kabi)
- o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruktsiya qilishda pedagogik texnologiyalar. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).
- xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiyalar.

«GALERIYANI AYLANISH» METODI

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bita muammo taklif etiladi. Har bir guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

«QOR BO'RON» METODI

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

«ASALARI GALASI» METODI

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

«DUMALOVCHI QOR UYUMI» METODI

Dumalovchi qor uyumi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomisi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbaalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama kilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchunchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda bircha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo yechimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarining qo'yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, boyib, kengqamrovli bo'lib boradi.

«SINDIKAT» METODI

Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma'lumki, uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchunchi guruh Matritsa usulidan foydalanib echadi. So'ngra yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

«AKVARIUM» METODI

Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muhokama qilishib, fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofda o'tirgan kuzatuvchilar o'rtasidagi talabalarining fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Etarli darajada fikr bildirgan olmagan o'rtadagi talabalar o'z o'rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

«RAQAMLI» METODLAR

Guruhlardagi talabalarining umumiy sonidan kelib chiqqan holda 4x4x4, 5x5x5, 6x6x6 metodlarining biridan foydalaniladi. Masalan, 5x5x5 metodida har biri 5 ta talabadan iborat 5 ta kichik guruhchalar tashkil etilib, ularning 5 nafar sardorlari to'plashib ko'yilgan muammoni hamkorlikda muhokama etishadi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga masalaning yechimini o'rgatishadi.

«AJURLI ARRA» METODI

Ajur frantsuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi. Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- talaba-o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi;
- talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar) ga qirg'iladi;
- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarining har bir a'zosiga tarqatiladi;
- kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;
- kichik guruhlarining yaxshi o'zlashtiruvchi a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;
- ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni xamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini egallashadilar;
- ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o'rganganlarini boshqa sheriklariga o'rgatishadi.

O'qitishga bunday yondashilganda talaba-o'quvchilarning xamkorlikda ishlariga va katta hajmdagi o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o'quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni kuni bilan o'rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

«SINEKTIKA» METODI

Bu metod amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib, "aqliy hujum" metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.

«DUMALOQ STOL» METODI

Bu metod amaliy mashg'ulot uchun qulay. Bunda o'qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi.

Talabalar o'zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. SHu tarika yozilgan javoblar yig'ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

«RUCHKA STOL USTIDA» METODI

Bu metod amaliy mashg'ulot uchun ko'lay. Savolga o'zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga ko'yib varaqni yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo'ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarining qo'yilgan bir xil savolga javoblari yig'ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metod afzalliklari: o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor emasligini ko'rib turadi; mashg'ulotga tayyorlanmagan talaba og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo'lib, talaba intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustida uzoq o'ylab o'tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab yuboradi. SHuningdek talaba mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

«ROTATSIYA» METODI

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va kuyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi;

-dars mavzusi bo'yicha topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzular) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlariga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

- javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;
- topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimcha qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaygan;
- javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«DAVRA SUHBATI» METODI

Davra suhbat- talabalar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish usulidir.

Davra suhbat usuli qo'llanganda stol- stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabani bir- biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir talaba o'z fikr- mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama kilish lozim bulsa, barcha fikr — muloxazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarining mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

YOzma davra suhbatida ham stol—stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir talabaga konvert qog'ozi beriladi. Har bir talaba konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan - talaba o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. YAKuniy qismda barcha kotsvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbat usulining afzalliklari:

- o'tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha talabalar o'zaro muloqotda bo'ladilar;
- har bir talaba o'zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

«ISHBOP O'YIN» METODI

Ishbop o'yin—berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) usuli hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq—atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat kilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'gartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual - guruhli xarakterga ega. Xar bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo'yicha maqsadga erishish butun guruh a'zolari erishgan natijalarga bog'likdir. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

«Ishbop o'yin» usulining afzalliklari:

- talabalarining bilimlarini va tajribalarini o'z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- talabani boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- talabalar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«YO'NALTIRUVCHI MATN» METODI

Yo'naltiruvchi matn — talabalar mustaqil ravishda yo'naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan usuldir.

«Yunaltiruvchi matn» usuli loyixalash bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ikki usulni bir-biridan quyidagi nuqta nazar bo'yicha farqlash mumkin:

- 1 «yo'naltiruvchi matn» usuli talabalarining mustaqil o'rganishiga qaratilgan;

2 «loyixalash» usuli esa, talabalarining mustaqil o'rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o'rganishda kerak bo'ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

«Yo'naltiruvchi matn» usulidan o'quv amaliyot darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usulni o'tkazish bosqichlari loyihalash usulining bosqichlari bilan bir—xildir. Ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida talaba va o'qituvchi orasida «qaytuvchi aloqa» o'rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Talabalarga boshlang'ich bosqichlarda o'qituvchi tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo'naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshkalar kiradi.

«Yunaltiruvchi matn» usulining afzalliklari:

- talabalarining kunikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;
- talabalarining mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- talabalarda muloqot qilish, o'z natijalarini o'zi tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- talabalarda ish - harakatlarni rejalashtirish, mustakil karor qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«MUAMMOLI VAZIYAT» METODI

Muammoli vaziyat — talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topishga asoslangan usuldir. «Muammoli vaziyat» usuli uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi talabalarining bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, talabalarining qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

«Muammoli vaziyat» usulining afzalliklari:

- talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- talabalar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;
- talabalarining bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- talabalar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

«AQLIY HUJUM» METODI

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy hujum» usuli biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy hujum usulining yozma va og'zaki usullari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarining har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa, berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qogoz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» usulining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to'g'ri va ijobiy ko'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum usulidan foydalanilganda talabalarining barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar tanqidiy baholanmasligi talabalarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

«Aqliy hujum» usuli o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarining boshlang'ich bilimlarini aniklash maqsad qilib qo'yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshirish o'rinlidir.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda — yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda- mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshirish samara beradi.

«Aqliy hujum» usulining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr- g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- talabalarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr- g'oyalar rag'batlantirib boriladi;
- talabalarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- talabalarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

“ROLLI O'YIN” METODI

Rolli o'yin- talabalar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart- sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi usuldir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni yakuniy baholashning olib borilmasligidir. Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

O'yin yakunida talabalardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan talabalar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

«Rolli uyin» usulida o'qituvchi talabalar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir talabaning individual xarakteri, xulq- atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular talabalarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“Rolli o'yin” usulining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida talabalarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- talabalarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“ZIG—ZAG” METODI

«Zig—zag» usuli tahsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtiriladi hamda o'zaro suhbat, bahs- munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o'zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

“Zig—zag” usuli bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich. 4—5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o'rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo'laklarga ajratgan holda guruhlarga tarqatish. (Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim)

2-bosqich. Guruh a'zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so'ng guruh bilan mustaqil o'rganiladi

3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog'ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo'lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

4-bosqich. Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham o'qituvchi, ham talaba rovida ishtirok etadilar.

O'qituvchi sifatida o'rganib kelgan materialini sheriklariga tushuntiradi. Talaba sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o'rganadi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir – birlarini tekshirib ko'radilar. Baholash esa, guruhlarning bir- birlariga savol berishi yoki test, savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko'rinishida olib borilishi mumkin.

Bu usulining afzalligi:

- Hajm jihatidan katta materialni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi.
- Kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligining mustahkamlanishi.

«BAHS-MUNOZARA» METODI

Bahs — munozara talabalarni ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish usuli. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul

qo'llaniladi. Bahs- munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish mumkin. Bahs- munozarani talabalar erkin holda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu usul olib borilayotganda talabalar orasida paydo bo'ladigan "nizo"larni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs- munozara usulining afzalliklari:

- Talabani mustaqil fikrlashga undaydi;
- Talabalar o'z fikrini to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar;
- Talabalarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi;

INSERT TEXNOLOGIYASI


Insert texnologiyasi — o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, tahsil oluvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda uy vazifalarini mustaqil bajarishda qo'llaniladigan texnologiyadir. Ushbu texnologiyada ishtirokchilar matnlardan mustaqil foydalanishni, olingan axborotlarni taxlil qilish, tizimlashtirish, belgilar qo'yib o'qishni, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar

Usulning afzalligi:

- tahsil oluvchi matnlardan mustaqil foydalana oladi.
- olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi
- axborotlarni tizimlashtirib, shartli belgilar yordamida ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
- kichik guruhlarda ishlash jarayonida xar bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjixatligi mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonida interfaol usulli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilovalar

I. Interfaol usulli texnologiyalar asosiga qurilgan o'quv mashg'ulotini quyidagi ketma-ketlikda rejalashtirish mumkin:



O'quv maqsadlari tasnifi

- Yo'naltiruvchi o'quv maqsadlar;
- Umumiy o'quv maqsadlar;
- Aniq o'quv maqsadlar.

Aniq o'quv maqsadlar kichik ko'lamdagi ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lib, ko'zlangan natija (bilim, ko'nikma, malaka)ni aniq belgilaydi.

II.

Rolli o'yin texnologiyasi

Ўйин жараёнига тайёргарлик
Мавзу бўйича ўқитувчи сценарий ишлаб чиқади

Ўқитувчи гуруҳ иштирокчиларини ўйин жараёнига тайёрлайди

Ролларни
тақсимлай
ди

Экспертла
рни
тасдиқлай
ди

Ўйин
ўтказиш
бўйича
йўл-йўриқ
беради

Ижро
этиладига
роллар
машқ
қилинади

Ўқитувчи
воситалар
билан
таъминлай
ди

Роллар ижро этилади

Тақдимот муҳокамаси

III.

Ўқитувчининг хулосаси

Ishbop o'vinlar texnologiyasi

Ўқитувчи “Ишбop ўйин” режасини ишлаб чиқади

Ўқитувчи гуруҳ иштирокчиларини ўйин тартиб қоидалари ва баҳолаш мезонлари билан таништиради.

1 гуруҳ

2 гуруҳ

3 гуруҳ

4 гуруҳ

Кичик гуруҳ иштирокчиларига топшириқлар тақсимлаб берилади.

Кичик гуруҳ иштирокчиларининг ҳар бири аввал ўзининг вазифаси бўйича қарор қабул
Ҳар бир гуруҳ иштирокчилари томонидан эришилган натижалар баҳоланади.

Ўқитувчи хулоса қилади.

IV. Muammoni hal etish texnologiyasi.

Ўқитувчи томонидан муаммоли топшириқлар ишлаб чиқилади

Кичик гуруҳлар шакллантирилади

1 гуруҳ

2 гуруҳ

3 гуруҳ

4 гуруҳ

Кичик гуруҳларга муаммоли топшириқлар тақсимлаб берилади.

Кичик гуруҳ иштирокчилари муаммоли вазиятларни таҳлил қиладилар ва уларнинг
ечимларини топадилар

Кичик гуруҳ иштирокчилари берилган топшириқлар бўйича тақдимот қиладилар

Ҳар бир кичик гуруҳ тақдимоти қолаган гуруҳлар ва ўқитувчи томонидан баҳоланади

Ўқитувчи хулоса қилади.

V. Yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash texnologiyasi

Кичик гуруҳлар шакллантирилади

1 гуруҳ

2 гуруҳ

3 гуруҳ

4 гуруҳ

Гуруҳларга вазифалар тақсимлаб берилади.

Йўналтирувчи матн ва саволлар асосида кичик гуруҳ мустақил равишда маълумот йиғади, режалаштиради ва амалга оширади

Берилган вазифалар бўйича тақдимот қилинади

Ўқитувчи якуний хулоса қилади.

MA'RUZA MASHG'ULOTI

**AQLIY XUJUM
MUAMMOLI VAZIYAT
TANQIDIY FIKRLASH
KEYS-STADI
BBB
INSERT
TAQDIMOT
MODUL
KLAster**

SEMINAR MASHG'ULOTI

“FSMU” (fikringizni bayon eting, fikringiz bayoniga sabab ko'rsating, sababni izoxlovchi misol keltiring, fikringizni umumlashtiring), “FIDBEK” (karshi ta'sir), “3X4”, “KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish)”, BUMERANG, KLAster DAVRA SUXBATI, ZIG-ZAG, AJURLI ARRA, ROTATTSIYA, AKVARIUM, RAKAMLI METODLAR, GALEVERIYA, QOR BO'RON METODI, SNEKTIKA METODI, ELPIG'ICH, BLISS O'YINI, CHORRAXA, MUOMILA TEXNOLOGIYASI, AGAR MEN BO'SAM.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA

“SWOT-TAHLIL JAVDALI”

“T-JAVDAL”

“QARORLAR SHAJARASI”

“TUSHUNCHALAR TAHLILI”

“AJIL-(amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar)

RUCHKA STOL USTIDA METODI, SINDIKAD METODI, ASALARI GALASI METODI, DUMOLOVCHI QOR, SNEKTIKAT METODI, DUMALOK STOL METODI

ASHULA O'RGATISH UCHUN MISOLLAR

Asarlar annatatsiyasi

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi Abdulla Oripov she'ri, Mutavakkil Burhonov musiqasi.

Har bir davlatning konstitutsiyasi, gerbi, bayrog'i bo'lgani kabi uning musiqiy belgisi, ya'ni madhiyasi ham bo'ladi. Barcha ramziy belgilar kabi uning madhiyasida ham shu davlatning mustaqilligi, shonu - shuhrati, qadimiy an'analari, salobati va salohiyati haqida kuylanadi.

Madhiyamizning she'riy matnida ham ona Vatanimiz O'zbekistonning oltin vodiylari, ulug' xalqimizning jo'sh urib yashnayotgan hur zamonimiz, turli millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar, faravon hayot, iymonli xalqimizning bag'rikengligi, barcha fuqarolarning erkin ijod qilishiga keng yo'l ochib berilganligi haqida kuylanadi.

O'zbekiston madhiyasi uning sharafini ulug'layotgan san'atkorlarimiz, sportchilarimiz, va boshqa tadbirlarda qayta - qayta takrorlana boradi.

Uni kuylaganda xalqimizning o'zbekona salomi kabi o'ng qo'limizning kaftini yuragimiz ustiga qo'yib, qaddimizni rostlab, kuylashimiz lozim.

Asarning kuyi cholg'u sozlari orqali alohida chalish uchun ham mo'ljallangan.

Madhiyamiz bizning muqaddas musiqiy belgimizdir.

2. O'zbekistonim

Qambar Ota she'ri, Laylo Mujbadoyeva musiqasi

Asarda mustaqilikka erishgan ona diyorumiz O'zbekiston, ochiq ko'ngilli, yuzidan har doim tabassum arimas sahiy xalqi haqida kuylanadi. Qo'shiq yakka xonanda va ikki ovozlik bolalar xori uchun yozilgan. Unda simkoqa goh taktining

Bu asar bog'cha va maktab yoshdagi bolalarga mos keladi. Uning quvnoq harakatchan ohangi bolalarga olam—jahon quvonch bag'ishlashi tabiiy.

3. Nevaralar qo'shig'i

Safar Barnoyev she'ri, Nadim Norxo'jayev musiqasi

Baxtli oilaning kichkintoylaritomonidan kuylanadigan bu asarda o'zbek oilasiga xos ko'p farzandlilik va ular o'rtasidagi o'zaro inoqlik, ittifoqdan bolalarning ham dillari yayrab kuylashlari tasdiqlangan. Aksariyat o'zbek oilalarida farzandlar o'z ota - onalari bilan birga yashashlari shu xonadonda nevara, chevara va evaralarning ham pay do bo'lishlari mazza qilib yashashlari haqidagi fikr ilgari suriladi.

Bolalar bobolari va momolarini ezozlab, ularni alohida hurmat bilan tilga olishlarining boyisi ham shirin so'zlik va totuvlikdan ekanligini his qilish mumkin.

Asarni bolalar bog'chalarida va birinchi sinf musiqa mashg'ulotlarida kuylatish mumkin. Unchalik tez bo'lmagan sur'at, so'zlari aniq talaffuz qilishga imkon beradi.

4. Oy bolamiz - toy bolamiz

Safar Barnoyev she'ri, Habibulla Rahimov musiqasi

O'g'il va qiz bolalar birga kuylashlari uchun mo'ljallangan bu qo'shiqda jajji bolalarimizning orzu -istaklari o'z ifodasini topgan.

O'g'il bolalar bobomiz Amir Temurbek yoki Alpomishdek mard, paxlavon bo'lib yetishini orzu qilsalar, qizlar Barchinoydek sadoqatli va jasur bo'lishni tilak qiladilar. Qo'shiq so'ngida aniq ishonch bilan albatta boy -badavlat bo'lishlariga ishonch bildiradi.

Asar mazmunan tuzilishining soddaligi va she'riy matnning ruhiyatiga ko'ra boshlang'ich sinf oquvchilariga mos keladi.

5. Nisholda

Rauf Tolib she'ri, Dilorom Omonullayeva musiqasi

O'zbek xalqining sevib iste'mol qiladigan taomlaridan biri nisholda bo'lib, u shirin, mazali hammaga birday yoqadigan xush ta'mga ega. U kishini to'q tutganligi va chanqatmasligini hisobga olib, odatda ramazon oylarda ko'p istemol qilish xalq taomiiiga aylangan.

Nisholdani Navro'z bayramida ham tayyorlashadi. U bolalar yaxshi ko'radigan musqaymoqdan ham totliroq ekanligi tansiq taom ekanligi tilga olinadi. Bolalar oh! -oh! deya uning mazasini tatib ko'rishga chaqiradi.

Aynan shu oh! bo'g'inlari asarda ko'p bor takidlanadi va uni alohida, uzib — uzib kuylash tavsiya etiladi.

Asar boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos keladi.

6. Soglom avlod qo'shigi

Safar Barnoyev she'ri, Shermet Yormatov musiqasi

